
№3 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№3 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

O‘SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIGA BARQARORLIGI XUSUSIYATLARI

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik xususiyatlari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan hamda ushbu yo‘nalishda olib borilgan empirik tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot davomida o‘smir sportchilarning stress omillariga moslashuv darajasi, emotsional barqarorligi va psixologik resurslari baholanib, olingan natijalarning ilmiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir sportchilar, stress, stressga barqarorlik, emotsional barqarorlik, psixologik moslashuv.

ОСОБЕННОСТИ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ ПОДРОСТКОВ-СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. В данной статье с психологической точки зрения рассматриваются особенности стрессоустойчивости подростков-спортсменов, а также представлены результаты проведённого эмпирического исследования. В ходе исследования были изучены уровень адаптации подростков-спортсменов к стрессовым факторам, их эмоциональная устойчивость и психологические ресурсы, а также проведён научный анализ полученных результатов.

Ключевые слова: подростки-спортсмены, стресс, стрессоустойчивость, эмоциональная устойчивость, психологическая адаптация.

CHARACTERISTICS OF STRESS RESILIENCE IN ADOLESCENT ATHLETES

Abstract. This article examines the characteristics of stress resilience among adolescent athletes from a psychological perspective and presents the findings of an empirical study conducted on this issue. The research assessed adolescent athletes’ adaptation to stressors, emotional stability, and psychological resources, followed by a scientific analysis of the obtained results.

Keywords: adolescent athletes, stress, stress resilience, emotional stability, psychological adaptation.

KIRISH

Dunyo miqyosida pedagogika va psixologiya sohasi mutaxassislari stress muammosiga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar hamda uning yil sayin yosharib borayotganligini ta’kidlamoqdalar. Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotining 2019-yilda e’lon qilingan ma’lumotlariga ko‘ra, stress bilan bog‘liq kasalliklar barcha kasalliklarning 65 foizini tashkil etadi. Shuningdek, jahon taraqqiyoti bosqichida sportchilar faoliyatini samarali tashkil etish, ularni psixologik jihatdan tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sport faoliyatida stress muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda stress holatining sportchilar faoliyatiga psixologik ta’sirini o‘rganish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorlarida bolalarning sport orqali jismoniy, aqliy va ruhiy salomatligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Shu sababli sport faoliyatining inson kamolotida tutgan o‘rni, shuningdek, sportchi faoliyatini tashkil etishda uning psixologik tayyorgarligining ahamiyati dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda stress muammosi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilib, sport faoliyati jarayonida sportchilarni stress holatlariga tayyorlash, stress vaziyatlarida o‘zini o‘zi baholash va boshqarish, stressning sportchi barqarorligiga ta’siri, sportchi shaxsining individual xususiyatlari, stress holatidan chiqishda koping-strategiyalarning o‘rni hamda frustratsiya holatlari bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘smir sportchilar faoliyatida stressning namoyon bo‘lish xususiyatlari, ularning stressga munosabati, stressga moyilligi mavjud sportchilarning faoliyatida shaxs xususiyatlarining o‘rni kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishni yanada takomillashtirish masalalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda “…respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, milliy sport turlarini va xalq o‘yinlarini rivojlantirish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda kurash turlari bilan muntazam shug‘ullanishning ahamiyatini oshirish, ularning turli stressogen vaziyatlarga nisbatan psixologik barqarorligini kuchaytirish, shuningdek, stressga bardoshli shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda mazkur muammolarning samarali yechimlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida stress va shaxsning stressga barqarorligi muammosi e'tirof etilmoqda. Mazkur muammoning psixologiyada tadqiq etilishi XX asr boshlaridan ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilib kelinayotgan bo'lib, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan muammolardan biri sanaladi. Aytish joizki, o'z davrida ko'plab xorijiy va rus psixologlari ushbu muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan hamda bu borada o'zlarining ilmiy talqinlarini (izohlarini) bildirganlar.

Shaxsning kundalik hayotida turli muammolar va murakkab vaziyatlarga duch kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Paydo bo'lgan muammolar stressni yuzaga keltiradi. Stressning haddan tashqari ortib ketishi inson salomatligining buzilishiga, psixik barqarorlikning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Stress inson psixikasida bosim, tanglik hamda zo'riqishni keltirib chiqaradi. Ushbu terminni G. Sele qo'llagan bo'lib, uning fikriga ko'ra, stress organizmga ko'rsatilgan tashqi ta'sirga nisbatan nospesifik javob reaksiyasi yoki moslashuvning nospesifik simptomi hisoblanadi. Stressga sabab bo'luvchi ta'sirning xususiyatiga bog'liq holda stress ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Agar stress insonga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, u «eustress», salbiy ta'sir ko'rsatsa esa «distress» deb ataladi. Eustress holati individga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning faoliyati samaradorligini oshirsa, distress holati esa individga salbiy ta'sir ko'rsatib, psixik zo'riqishning kuchayishiga sabab bo'ladi [8].

G. Sele stress holatini uch bosqichli jarayon sifatida asoslab, uni umumiy moslashuv sindromi deb nomlaydi hamda uch bosqichda tavsiflaydi. Birinchi bosqich - xavotir bosqichi bo'lib, unda xavotirlanish stressorning dastlabki ta'siri natijasida yuzaga keladi. Qisqa vaqt davomida organizmning rezistentlik darajasi pasayishi oqibatida jismoniy va vegetativ funksiyalar izdan chiqadi. Bunday vaziyat organizmning ichki zahiralariga ta'sir ko'rsatadi va himoya jarayonlarining o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini ishga tushiradi. Agar himoya reaksiyasi samarali bo'lsa, xavotir holati yo'qoladi va organizm faoliyati o'z me'yoriga qaytadi. Stressning aksariyat ko'rinishlari aynan ushbu bosqichda bartaraf etiladi.

Ikkinchi bosqich - rezistentlik (qarshilik ko'rsatish) bosqichi bo'lib, unda stressning ta'siri uzoq davom etganda hamda organizmning himoya reaksiyasini saqlab turish zarurati yuzaga kelganda boshlanadi. Ushbu bosqichda adaptatsion zahiralarning muvofiqlashtirilgan faoliyati namoyon bo'ladi.

Uchinchi bosqich - tugash bosqichi bo'lib, u organizmning kuchli va uzoq davom etuvchi stressorlar ta'siriga qarshilik ko'rsatish mexanizmlarining zaiflashuvi bilan tavsiflanadi hamda adaptatsion zahiralarning amalda kamayishiga olib keladi. Natijada organizmning bardoshlilik xususiyati susayadi va funksional buzilishlar kuzatiladi [8].

Mazkur muammoni yanada chuqurroq o‘rgangan G. Sele stressning ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi, ya’ni distress (distress - charchash, tugash, baxtsizlik) va eustress. G. Selening fikriga ko‘ra, eustress samarali qarshilikdan keyin faollikni oshiruvchi, quvonch manbai bo‘lib xizmat qiluvchi ijobiy omil hisoblanadi. Stressning ushbu bosqichida o‘zini o‘zi va vaziyatni anglash, xotiraning faollashuvi kabi psixik jarayonlarning samaradorligi kuzatiladi. Distress esa o‘ta kuchli stress holatida yuzaga kelib, zo‘riqish va qarshilik bosqichlaridan so‘ng chorasizlik, tushkunlik, umidsizlik, talab etilayotgan zo‘riqishni adolatsizlik sifatida qabul qilish hamda xafa bo‘lish kabi holatlarda namoyon bo‘ladi [8].

Bizning fikrimizcha, G. Selening yuqorida stress borasida bildirgan fikrlari hamda ularning har biriga berilgan ilmiy-psixologik ta’riflar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bosqichlar bo‘yicha bilimga ega bo‘lish shaxsda yuzaga keladigan stressni boshqarish, unga qarshi kurashish va stressga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Odatda, stressni yuzaga keltiruvchi omillar nihoyatda ko‘p bo‘lib, ularning ta’sir etish mexanizmlarini har tomonlama o‘rganish turli-tuman distresslardan himoyalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dj. Everli va R. Rozenfeldlarning tadqiqotlariga ko‘ra, ichki va tashqi ta’sirlarning stressorlarga aylanishida aynan ushbu ta’sirlarni mantiqiy va hissiy baholash muhim rol o‘ynaydi. Agar ta’sir shaxs tomonidan xavf-xatar yoki tahdid sifatida qabul qilinmasa, u holda stress holati yuzaga kelmaydi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, aksariyat ta’sirlar shaxsning o‘zi tomonidan shakllantiriladi va ularga uzoq vaqt imkon berilsa, stress holati ham shuncha vaqt davom etadi [9].

Z. Freyd ham stress borasida o‘z mulohazalarini bildirib, hissiy stress holatini yuzaga keltiruvchi xavotirning real, nevrotik va axloqiy turlarini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikriga ko‘ra, real xavotir ob’ektiv ko‘rinishda bo‘lib, mavjud xavf haqida ogohlantiradi. Nevrotik xavotir esa anglanilmagan qo‘rquv bo‘lib, individga xos yoshlik davri bilan bog‘liq instinktiv ehtiyojlar va reallik bilan bog‘liq kechinmalar asosida shakllanadi. Axloqiy xavotir esa shaxsning o‘zlashtirgan ijtimoiy me’yorlarning buzilishidan qo‘rqishini anglatadi [10].

B. X. Vardanyan stressning individual ifodalanishi va ko‘rinishlariga urg‘u berib, insonning favqulodda vaziyatdagi rolini psixologik ustanovkalar bilan bog‘liq deb hisoblaydi. V. A. Bodrov esa stressni keltirib chiqaruvchi omillarni guruhlashni taklif etadi va ularni to‘rt guruhga ajratadi. Uning fikriga ko‘ra, har qanday stress fiziologik jarayon bo‘lib, u fiziologik reaksiyalar orqali kechadi va unda hissiy reaksiyalar ham mavjud bo‘ladi. Mazkur fikrdan kelib chiqadigan bo‘lsak, stressning fiziologik va hissiy reaksiyalarini boshqarish uchun shaxsda stressga barqarorlik xususiyati mavjud bo‘lishi lozim. Shaxsning stressga barqarorligi uning o‘z hissiyotlarini boshqarish, ularni nazorat qilish hamda qiyin vaziyatlarda o‘zini

tuta bilish asosida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o‘tish ko‘nikmasi hisoblanadi.

Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlari olimlari tomonidan ham mazkur masala yuzasidan qator fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, N. N. Danilova shaxsning stressga barqarorligi borasida quyidagi fikrni bildiradi: “...og‘ir zo‘riqishlarni ko‘p boshdan o‘tkazish va qiyin, murakkab vaziyatlarda o‘ziga xos hamda real, adekvat yechim topish qobiliyati” [5]. A. A. Babanov esa stressga barqarorlikni: “Stressga barqarorlik psixik barqarorlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, turli omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi”, deb ta’riflaydi [2].

Shuningdek, V. Subbotin stressga barqarorlik masalasida fikr yuritar ekan, o‘z tadqiqot natijalariga asoslanib, stressga barqarorlikni anglashda uning hissiy va psixologik barqarorlik, frustratsion tolerantlik kabi omillarini ham e’tiborga olish lozimligini ta’kidlaydi.

V. L. Mariщuk esa shaxsning stressga barqarorligini murakkab faoliyat jarayonida yuzaga keladigan hissiy qo‘zg‘alishni nazorat qilish va uni yengib o‘tish qobiliyati sifatida baholaydi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Sport faoliyatida, ayniqsa sport musobaqalari jarayonida stressogen vaziyatlarning ko‘plab yuzaga kelishi sportchilar faoliyatining tabiiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Musobaqalarning keskinligi, sportchilarning his-hayajonlari hamda sport kurashining jozibasi aynan ushbu vaziyatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda sportchilarning nafaqat jismoniy, taktik va texnik tayyorgarligi, balki psixologik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqotimizda o‘smir sportchilarning stressga barqarorligini o‘rganishga harakat qildik. O‘z oldimizga qo‘ygan vazifani amalga oshirish maqsadida tadqiqot jarayonida N. V. Kersheva va N. V. Ryabchikovalar tomonidan tavsiya etilgan “Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika shaxsning stressga barqarorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu metodika O‘zbekiston sharoitida amaliy tajribadan o‘tgan bo‘lib, bir qator o‘zbek psixologlari tomonidan qo‘llanilgan metodikalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika asosida olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasiga oid tadqiqot natijalarini tahlil qilishda, asosan, ularning ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati asosida izohlashga urg‘u berdik. Chunki shaxsning kundalik ijtimoiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarda stressga barqarorlik darajasi yuqori foizni tashkil etmasligi mumkin. Biroq sport mashg‘ulotlari bilan muntazam shug‘ullanish jarayoni sportchilarning stressga bardoshlilik qobiliyatining ijobiy namoyon

bo‘lishiga yordam beradi. Sababi, sport mashg‘ulotlari davomida psixologik bosimga bardosh berish, musobaqa vaqtida yuzaga keladigan qiyin va murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish hamda vaziyatni o‘z foydasiga hal etish xususiyatlari aynan mashg‘ulotlar jarayonida shakllanadi.

1-jadval

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi dispersion tahlili (ANOVA) natijalari

Shkala	Sport turlari						f	r
	Yunon - rum		Milliy kurash		Dzyudo			
	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish		
Stressga barqarorlik	33,3	6,81	32,6	6,46	32,0	4,72	,637	,530

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, yunon-rum kurashi, milliy kurash va dzyudo bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda stressga barqarorlik darajasi o‘rtachadan yuqori natijani ko‘rsatmoqda. Shuningdek, barcha kurash turlari bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlarda katta farq kuzatilmadi (1-jadvalga qarang). Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, natijalarning ushbu darajasi mazkur kurash turlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Chunki o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi, ayniqsa, sport musobaqalari jarayonida muvaffaqiyatga erishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, o‘smir sportchilar bo‘lajak musobaqaga nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham puxta tayyor bo‘lishlari lozim.

Sport musobaqalari jarayonida sportchilar kuchli stress holatidan chiqa olishlari, bellashuv davomidagi kuchli psixologik bosimga bardosh bera olishlari uchun ulardan yuksak irodaviy sifatlar talab etiladi. Ular nafaqat o‘z kuchlariga ishonishlari va o‘z imkoniyatlariga real baho bera olishlari, balki musobaqa hamda raqib bilan kurashish jarayonida yuzaga keladigan qaltis vaziyatlarga tayyor turishlari, ushbu vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olishlari hamda qisqa vaqt ichida real va adekvat qaror qabul qila olishlari zarur. Bu esa sportchilarning atrofdagi stressogen holatlar va psixologik bosimlarga bo‘lgan munosabati, ularni qabul qilishi hamda tezkor tahlil qila olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bu borada R. A. Abdurasulov o‘zining ilmiy izlanishlari asosida quyidagi mulohazalarni bildiradi: “Sportchi raqib bilan keskin jang vaziyatida psixik zo‘riqish, stress va mashg‘ulotlarda o‘rgangan harakatlarini xato qilish orqali yo‘qotish xavfi holatida qaror qabul qilishiga to‘g‘ri keladi. Musobaqa

bellashuvlarining turli bosqichlarida taktik usullarning bahosi ham turlicha bo‘ladi. Masalan, basketbolchi o‘zining maydoni tomonida to‘pni raqibidan tortib olishi va tezda raqib tomonga harakat qilib, himoyasini yorib o‘tishga qaror qilishi mumkin. Bu esa xatarli harakat bo‘lib, raqiblari undan to‘pni olib qo‘yishlari mumkin. Bu qarorni faqat raqibdan katta farq bilan oldinda borayotgan paytda qabul qilish mumkin. Bu holatda kuchli hissiy ta’sirlanish holati qaror qabul qilish jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yetarlicha psixik barqaror bo‘lmagan sportchi vaziyatni noto‘g‘ri baholashi, asoslanmagan qaror qabul qilishi mumkin” [1].

Aytish joizki, sport o‘yinlarida noto‘g‘ri qabul qilingan qarorni o‘yin jarayonining o‘zida to‘g‘rilash imkoniyati mavjud. Biroq kurash turlarida bunday xatolarning oqibati ayanchli bo‘lishi, ya’ni sportchining mag‘lubiyati bilan yakunlanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bunga misol tariqasida o‘zbek boksi afsonasiga aylangan Rufat Risqievning sport faoliyatini yoki o‘zbek futbolining “Maradona”si sifatida e’tirof etilgan Mirjalol Qosimovni keltirish mumkin. Kurash turlarining o‘ziga xos xususiyatlari sportchilardan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki musobaqa jarayoni keskin sharoitda kechadi, kuchli psixologik bosim ostida o‘tadi, har bir daqiqa va soniya muhim ahamiyat kasb etadi hamda sportchining irodaviy sifatlari va aqliy salohiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan, kuchli bosim va stressga bardosh bera oladigan, o‘z imkoniyatlari hamda raqibining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay oladigan sportchi muvaffaqiyatga erishadi.

Tadqiqotimiz jarayonida stressga barqarorlik bo‘yicha olingan natijalar bilan koping-kurash indikatori natijalarining o‘zaro korrelyatsion aloqadorligi ham tahlil qilindi. Mazkur tahlil natijalari quyidagi 2-jadvalda o‘z aksini topgan.

2-jadval

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining koping-kurash strategiyasi bilan korrelyatsion aloqadorligi natijalari

Shkala	Muammoni hal etish strategiyasi	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyasi	Muammodan qochish strategiyasi
Stressga barqarorlik darajasi	,340**	,029	,067

Izoh: **-p ≤ 0,01

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bilan koping-kurash indikatori bo‘lgan muammoni hal qilish shkalasi

o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli (r = 0,340; p < 0,01) ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘smir sportchilarda stressga barqarorlik darajasining o‘rtachadan yuqori natijani ko‘rsatgani (1-jadvalga qarang) shundan dalolat beradiki, har uchala kurash turi bilan shug‘ullanuvchilarda nafaqat mashg‘ulot va musobaqa jarayonida, balki kundalik ijtimoiy hayotda ham o‘ziga va o‘z kuchiga ishonch, har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotmaslik, voqea-hodisalarga real baho berish, qaror qabul qilishdan oldin uning sabablarini o‘rganish va tahlil qilish, vaziyatni o‘z foydasiga yo‘naltira olish, ko‘rsatilayotgan ta’sirlarga bosiqlik bilan javob qaytarish, yuzaga kelgan vaziyatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarish hamda muammoni ijobiy hal etishga intilishda mavjud imkoniyat va resurslaridan samarali foydalanish namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bo‘yicha olingan natijalar ularning turli holatlarni tabiiy jarayon sifatida qabul qilishlari bilan ham xarakterlanadi.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik natijalarining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorligi ham musbat bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda. Bu holat o‘smir sportchilarning faol xulq-atvor strategiyasini ifodalaydi. Ular yuzaga kelgan har qanday muammoni (mashg‘ulotlarda, o‘zaro munosabatlarda yoki hayotiy faoliyatda) samarali hal qilish uchun atrofdagilar, ya’ni oila a’zolari, do‘stlari, murabbiylari va o‘qituvchilaridan yordam so‘rashga intiladilar. Shuningdek, ular o‘zlarini qo‘llab-quvvatlashlarini, hissiy kechinmalarini to‘g‘ri tushunishlarini kutadilar, yaqin insonlari bilan o‘zida sodir bo‘layotgan holatlar va ichki his-tuyg‘ulari haqida suhbatlashishni istaydilar hamda ulardan maslahat olishga, vaziyatga nisbatan o‘z munosabatlarini bildirishlarini so‘raydilar. Ana shu omillar asosida ular muammoga yondashadilar va uni hal etishga harakat qiladilar.

Stressga barqarorlik darajasining o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichi bilan muammodan qochish strategiyasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilar bunday vaziyatlarda o‘zini nazorat qila oladi, yuzaga kelgan vaziyatlarni tabiiy hol sifatida qabul qiladi, sport mashg‘ulotlariga ko‘proq e’tibor qaratadi, o‘rtoqlari bilan ko‘ngilxushlik qiladi hamda ayrim hollarda yolg‘iz bo‘lishga harakat qiladi. Natijada ular muammoning tabiiy yo‘l bilan hal etilishiga, vaqt o‘tishi bilan vaziyatning o‘zi ijobiy tomonga o‘zgarishiga ishonadilar. Shu bilan birga, bu insonning passiv xulq-atvor strategiyasi bo‘lib, bunday vaziyatda shaxs muammoni hal etishdan, uni o‘rab turgan atrof-muhitdan va real voqelikdan qochishga harakat qilishi bilan ham izohlanadi. O‘smir sportchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar jarayoni ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqladi. Ular stressdan xalos bo‘lishda ko‘proq sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga, o‘rtoqlari va oila davrasida bo‘lishga harakat qilishlarini ta’kidladilar.

Shu o‘rinda P. B. Zilbermanning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz. Uning fikriga ko‘ra, stressga barqarorlik shaxsning integrativ xususiyati hisoblanadi hamda u shaxs psixik faoliyatining hissiy, irodaviy, aqliy va motivatsion komponentlarining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi va hissiy holatlarda maqsadga erishishning optimal yo‘lini tanlash imkonini yaratadi. Shuningdek, D. Amirxan, R. Lazarus, O. Sirotkin va boshqa olimlar stressga barqarorlikni stressni yengib o‘tishga yordam beruvchi psixologik himoya mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra, ushbu mexanizm shaxsning kognitiv, hissiy va xulq-atvor sohalaridagi bardoshlilik, o‘zini nazorat qilish, qo‘llab-quvvatlashni izlash, muammodan qochish hamda muammoni ijobiy baholash kabi koping-kurash strategiyalarida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, koping-kurash muammoni yechish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash va muammodan qochish strategiyalari orqali ham ifodalanadi.

Ta’kidlash joizki, B. B. Velichkovskiyning fikriga ko‘ra, stressga barqarorlik bir qator shaxs xislatlari bilan bog‘liq bo‘lib, aynan ushbu xislatlar insonning kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan aqliy, irodaviy va hissiy zo‘riqishlarni o‘zi, atrofdagilar hamda faoliyati uchun salbiy oqibatlarsiz yengib o‘tish imkonini beradi.

B. B. Velichkovskiyning ushbu mulohazasiga asoslanib, biz o‘smir sportchilarning stressga barqarorligini Melnikov va Yampolskiylarning [7] shaxs xislatlarini aniqlashga mo‘ljallangan psixodiagnostik testi natijalari bilan korrelyatsion aloqadorlik nuqtai nazaridan tahlil qildik.

Aytish mumkinki, o‘smir sportchilarning stressga barqarorligi nafaqat koping-kurash mexanizmi bilan, balki ularning shaxs xislatlari bilan ham bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Buni tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi. Mazkur natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorligi bilan asabiylik shkalasi o‘rtasida ahamiyatsiz darajadagi manfiy aloqadorlik mavjud ekanligi aniqlandi. Bu holat o‘smirlarning stressga barqarorligi ularning asabiylik darajasi bilan bog‘liqligini bildiradi. Demak, o‘smirlarning o‘zini nazorat qila olishi, o‘zaro munosabatlarning ijobiyligi, mashg‘ulotlarda qat’iy talablarga amal qilishi, murabbiyning ko‘rsatmalariga to‘g‘ri yondashishi hamda uning talablariga ijobiy munosabat bildirishlari o‘smir sportchilardagi asabiylik holatining pasayishiga yordam beradi. Bu holat tadqiqot natijalarida ham o‘z aksini topgan.

Stressga barqarorlik ruhiy tajanglik shkalasi bilan ham manfiy korrelyatsion bog‘liqlikni namoyon qilmoqda. O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi ularning ruhiy holati, ichki kechinmalari, xulq-atvori, atrofdagi odamlarga munosabati, o‘zini tutishi va boshqa omillar bilan bog‘liq holda shakllanishini inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Shuningdek, stressga barqarorlikning shakllanishida asabiylik hamda ruhiy tajanglikning o‘zaro

bog‘liqligini ham unutmaslik kerak. Chunki ushbu ikkala xislat o‘smir sportchilarda yuqori darajada namoyon bo‘lsa, stressga barqarorlik haqida, ayniqsa uni shakllantirish to‘g‘risida so‘z yuritish qiyinlashadi. Biroq bizning tadqiqot natijalarimizda ushbu ikkala xislat past darajada namoyon bo‘ldi.

3-jadval

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining shaxs xislatlari bilan korrelyasion aloqadorligi natijalari

Shkala	Asabiylik	Ruhiy tajanglik	Ruhiy azoblanish	Vijdonlilik	To‘ sqinlilik	Umumiy faollik	Hadiksirash	Dilkashlik	Estetik ta’ sirlanish	Nazokatlilik	Ruhiy tuturuqsizlik	Ijtimoiysizlik	Odamovilik	Tortinchoqlik
Stressga barqarorlik	-,033	-,209	,006	,001	-,204	-,037	-,190	-,003	,021	,144	,141	,099	,067	,027

Tadqiqot jarayonida o‘smir sportchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar va kuzatishlar natijalari ham ularning xulq-atvoridagi barqarorlik, o‘zaro munosabatlardagi bosiqlik, o‘zini tuta bilishi hamda ochiqko‘ngillilik xislatlari stressga barqarorlik darajasining ijobiy namoyon bo‘lishiga xizmat qilayotganini ko‘rsatdi.

Ruhiy azoblanish xislati bilan stressga barqarorlik darajasi o‘rtasida ham ahamiyatsiz darajadagi manfiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillarimiz shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilarda psixikaning ko‘pqirraliligi, kengligi va o‘zgaruvchanligi, shaxslararo munosabatlarda erkinligi, o‘z kuchiga ishonishi, faolligi, qat’iyligi hamda hayotga bo‘lgan ishtiyoqi kabi xislatlar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mas’uliyati va muammoni hal qilishdan qochmaslik xususiyatlari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ularda stressga barqarorlikning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining vijdonlilik shkalasi bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorligi o‘smirlarning ijtimoiy normalar va etika talablariga rioya qilish asosida o‘zini nazorat qilishi, halollik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik, haqiqatparvarlik hamda umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan ijobiy munosabati bilan izohlanadi. Shuningdek, bunda ta’lim-tarbiya va psixologik muhit kabi omillarning ta’siri ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smir sportchilarning to‘sqinlilik shkalasi bilan ularning stressga barqarorlik darajasi o‘rtasida esa manfiy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi. To‘sqinlilik shaxs xulq-atvorining ijtimoiylashuvi va o‘zini tuta bilish darajasi sifatida qaraladigan bo‘lsa, u o‘smirlarda ijtimoiy talablarga rioya qilish, o‘zini tuta bilish hamda muomalada ehtiyotkor bo‘lishga intilishlarida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa kurash mashg‘ulotlarining ijobiy ta’siri natijasi ekanligidan dalolat beradi.

Umumiy faollik shkalasining o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bilan korrelyatsion bog‘liqligi ijobiy jihatdan namoyon bo‘lmoqda. Bu holat o‘smir sportchilarning har qanday faoliyat (jismoniy va ijtimoiy faoliyat) jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarga aql bilan yondashishi bilan xarakterlanadi. Ya’ni, ularda tashabbuskorlik, faollik hamda har qanday vazifalarni bajarishdan bo‘yin tovlamaslik kabi sifatlar namoyon bo‘ladi.

Stressga barqarorlik darajasi bilan hadiksirash shkalasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik tahlili natijalari manfiy aloqadorlikni ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘smir sportchilarning o‘ziga yuqori baho berishga moyilligidan dalolat beradi. Ayrim holatlarda ularda qat’iyatsizlik, tortinchoqlik va ishonchsizlik kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishi qaror qabul qilish jarayonining cho‘zilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur holat esa o‘smir sportchilarning stress holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining ulardagi dilkashlik xislati bilan korrelyatsion aloqadorligi ijobiy natijani namoyon etdi. Aytish joizki, o‘smir sportchilardagi ushbu xislat, ya’ni muloqot doirasining kengligi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi hamda ochiqko‘ngillilik kabi sifatlar ularning faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ko‘ngilsiz voqea va hodisalarni yengib o‘tishlarida hamda bunday vaziyatlarga tabiiy holat sifatida munosabat bildirishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, bu holat o‘smirlarga xos bo‘lgan muloqotga intilish, ko‘proq do‘stlar va tanishlar orttirishga bo‘lgan ehtiyoj, jamoada ishlash va dam olishga moyillik kabi yosh xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Shuningdek, o‘smirlarga xos mazkur xususiyatlar ularning stressga barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlardagi estetik ta’sirlanish shkalasi bilan stressga barqarorlik darajasining korrelyatsion aloqadorligi ham ijobiy natijani ko‘rsatmoqda. Agar estetik ta’sirchanlikni estetik va badiiy qadriyatlarga nisbatan ta’sirchanlik hissi sifatida qabul qilsak, stressni kamaytirishda o‘smirlardagi tasavvur, qiziqish va orzu qilish hissi, ularning tabiatga bo‘lgan munosabati, tabiat go‘zalligini his etishi hamda badiiy ta’sirchanlik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buni o‘smirlarda namoyon bo‘ladigan abstrakt fikrlash, mulohazalilik va idrok etish xususiyatlarida ham kuzatish mumkin.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorligi darajasi bilan nazokatlilik shkalasi o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni quyidagicha izohlash mumkin: kurash turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlardagi jasurlik, uddaburonlik, o‘zini namoyon qilish, qat’iy va tezkor harakat qilishga intilish kabi xislatlar ularda stressga barqarorlikning namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xususiyatlarning shakllanishida kurash mashg‘ulotlarining ta’sirini alohida ta’kidlash lozim. Shuningdek, o‘smir sportchilarda stressga barqarorlikni shakllantirishda nazokatlilikning boshqalarning nozik jihatlarini his qilish, o‘z fikrlarini hissiy bayon eta olish, muomalasi bilan boshqalarda qiziqish uyg‘otish hamda ularni oson o‘z tomoniga og‘dira olish kabi sifatlari ham muhim o‘rin tutadi.

Stressga barqarorlik darajasining ruhiy tuturiqsizlik shkalasi bilan korrelyatsion bog‘liqligini o‘smir sportchilarning ichki kechinmalarga berilmasligi, yuzaga keladigan muammolarga ortiqcha bog‘lanib qolmasligi, o‘zidan qoniqishi hamda talab va normalarga rioya qilishga tayyor bo‘lishi kabi jihatlarda ko‘rish mumkin. Aytish joizki, kurash turlari bilan shug‘ullanish jarayonida o‘smirlarda ruhiy barqarorlikni shakllantirish, nizolardan yiroq bo‘lish, tartib-qoidalarga amal qilishga o‘zini tayyorlash, shuningdek, o‘z xulq-atvori va xatti-harakatlarini nazorat qila olish xislatlari ularda stressga barqarorlikning namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

Sportning kurash turlari bilan shug‘ullanish jarayoni o‘smirlarda stressga barqarorlikning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda ularda axloqiy va etik talablarga, jamiyat qoidalariga rioya qilish, faollik, tez til topisha olish, muloqotga kirishimlilik, ochiqko‘ngillik hamda jur’atlilik kabi xislatlarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, o‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bilan ijtimoiysizlik va odamovilik shkalalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aynan ushbu xislatlar orqali izohlash o‘rinli bo‘ladi. Chunki o‘smir sportchilarning jamiyat qoidalari va tartib-intizomga rioya qilishi, ularning ijtimoiylashuvi hamda odamlar bilan ijobiy munosabat o‘rnata olishi faoliyat jarayonida yuzaga keladigan stress holatlarini bartaraf etishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

O‘smir sportchilarda stressga barqarorlik bo‘yicha olingan natijalar bilan tortinchoqlik shkalasi natijalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil o‘rtacha darajadagi musbat aloqadorlikni ko‘rsatdi. Bu shundan dalolat beradiki, o‘smir sportchilarning vaziyatlarga aql bilan yondashishi, boshqa odamlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi, insonlardagi to‘g‘rilik va samimiylikni qadrlashi hamda adolatli munosabat bildirishga intilishi ularning stressga barqarorlik darajasining ijobiy namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ulardagi teran fikrlash, mulohazalilik, yuzaga keladigan vaziyatlarga ijobiy yondashish, boshqalarning ichki kechinmalarini

tushunish va ularga hamdard bo‘lish kabi jihatlar ham stressga barqarorlikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Aytish joizki, stressga barqarorlik tushunchasini izohlashda ko‘plab psixolog olimlar turli fikr-mulohazalarni bildirganlar. Ularning qarashlarida ushbu tushunchaning yagona talqini mavjud bo‘lmasa-da, stressga barqarorlik negizida aqliy, irodaviy va hissiy zo‘riqishlar natijasida yuzaga keladigan stressni bartaraf etishga yordam beruvchi shaxs xususiyatlari majmui tushuniladi. Shu asosda stressga barqarorlik nafaqat professional faoliyatda, balki hayotiy va ijtimoiy faoliyatda ham namoyon bo‘ladigan zo‘riqishlarni o‘ziga va boshqalarning salomatligiga zarar yetkazmagan holda yengib o‘tish imkonini beradi.

Demak, yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, stressga barqarorlik - shaxsning stressogen vaziyatlarda nafaqat irodaviy, balki hissiy, aqliy, xulq-atvor va ijtimoiy jihatdan ham barqaror bo‘lishini ifodalovchi xususiyat bo‘lib, ushbu barqarorlik shaxsning stressli vaziyatlarda faoliyatini muvaffaqiyatli yakunlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurasulov R.A. Sport mashg‘ulotlarining o‘quvchi-sportchilar shaxsini shakllanishdagi roli (yakkakurash turlari misolida): 19.00.06 - Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. - 56 b.
2. Бабанов С.А. Профессиональные факторы и стресс: синдром эмоционального выгорания // Трудный пациент. - 2009. - Т. 7, № 12. - С. 42-46.
3. Бодров В.А. Когнитивные процессы и психологический стресс // Психологический журнал. - 1996. - № 4. - С. 64-74.
4. Варданян Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. - Москва, 2003. - С. 102-114.
5. Данилова Н.Н. Психофизиологическая диагностика функциональных состояний: учебное пособие. - Москва: Изд-во МГУ, 1992. - 342 с.
6. Марищук В.Л., Евдокимов В.И. Поведение и саморегуляция человека в условиях стресса. - Санкт-Петербург, 2001. - 290 с.
7. Мельников В.М., Ямпольский Л.Т. Введение в экспериментальную психологию личности. - Москва: Просвещение, 1986. - 319 с.
8. Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме. - Москва, 1960. - 312 с.
9. Фрейд З. Психология бессознательного / сост., науч. ред., авт. вступ. ст. М.Г. Ярошевский. - Москва: Просвещение, 1990. - 448 с.
10. Эверли Дж.С., Розенфельд Р. Стресс: природа и лечение / пер. с англ. - Москва: Медицина, 2003. - 224 с.

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna
TAFU Psixologiya kafedrasi mudiri, p.f.d. professor

Annotatsiya. Maqolada shaxsning kasbiy rivojlanishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida urg‘u beriladi. Jumladan, mutaxassis kadrlarda Hard Skills, Soft Skills va Self Skills kompetensiyalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlarni ilmiy o‘rganish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv, amaliy ko‘nikmalar, Hard Skills, Soft Skills, Self Skills, kompetensiya, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi refleksiyalash, psixologik mezonlar.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПОСВЯЩЁННЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ РАЗВИТИЮ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация. В статье особое внимание уделяется исследованиям, направленным на изучение профессионального развития личности. В частности, рассматриваются исследования психологических особенностей, влияющих на развитие Hard Skills, Soft Skills и Self Skills у специалистов.

Ключевые слова: когнитивные, практические навыки, Hard Skills, Soft Skills, Self Skills, компетентность, самооценка, саморефлексия, психологические критерии.

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE SPECIALISTS

Annotation. The article places special emphasis on research aimed at studying the professional development of the individual. In particular, it examines studies on the psychological characteristics that influence the development of Hard Skills, Soft Skills, and Self Skills among professionals.

Keywords: cognitive, practical skills, Hard Skills, Soft Skills, Self Skills, competence, self-assessment, self-reflection, psychological criteria**.**

KIRISH

Pedagog-psixologlarning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan, Chapel Hilldagi Shimoliy Karolina universiteti (AQSh), Notre Dame Merilend universiteti Formatsiya maktabi (AQSh), AQSh Milliy universiteti (AQSh), Maks Plank nomidagi Inson miyasi va kognitiv fanlar instituti (Germaniya), Edit Kovan

universiteti (Avstraliya), Seul milliy universiteti (Koreya), Janubi-G‘arbiy universitet (Xitoy), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi) hamda Yaroslavl davlat universitetida (Rossiya Federatsiyasi) olib borilmoqda.

Jahonda shaxsning kasbiy rivojlanishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar asosida qator muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Xususan, o‘zini o‘zi baholash va o‘zini o‘zi refleksiyalash psixologlar uchun asosiy kompetensiya hamda kasbiy tayyorgarlikning muhim asosi ekanligi aniqlangan (Chapel Hilldagi Shimoliy Karolina universiteti, AQSh); psixologlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, Hard Skills, Soft Skills va Self Skills darajasini oshirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlar ishlab chiqilgan (Notre Dame Merilend universiteti Formatsiya maktabi, AQSh); shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglashidagi o‘zgarishlar tadqiq etilgan (AQSh Milliy universiteti, AQSh); refleksiv xususiyatlarning kasbiy shakllanishdagi ahamiyati asoslab berilgan (Maks Plank nomidagi Inson miyasi va kognitiv fanlar instituti, Germaniya); talabalarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarining psixologik mexanizmlari aniqlangan (Edit Kovan universiteti, Avstraliya); ta’lim muhitiga nisbatan refleksiyani shakllantirishda psixologik bilimlarning ta’siri o‘rganilgan (Seul milliy universiteti, Koreya); psixologlarning kasbiy o‘zini o‘zi anglash xususiyatlarining neyrobiologik asoslari yoritilgan (Janubi-G‘arbiy universitet, Xitoy); shaxsda refleksivlikni rivojlantirishning psixologik mezonlari ishlab chiqilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi); psixologlarning kasbiy kompetensiyasini diagnostika qilish metodikalari yaratilgan va ilmiy jihatdan asoslangan (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda amaliyotchi psixolog va psixolog-konsultantlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, ta’lim muhitida kompetentligi yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, psixologlarda kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish, ularning amaliy ko‘nikmalari rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, mutaxassislarda Hard Skills, Soft Skills va Self Skills kompetensiyalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, pedagog-psixologlarning kasbiy shakllanishi, amaliy ko‘nikmalarni dual ta’lim tizimida rivojlantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning Soft Skills kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali mexanizmlarini aniqlash zarurati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikni dinamik rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini ochib berish

hamda ularning kasbiy rivojlanishida Hard Skills va Soft Skills kompetensiyalariga oid amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, bo‘lajak pedagog-psixologlarning kasbiy-amaliy kompetentligini rivojlantirishda «raqobatbardosh mutaxassis» obrazining empatiya, tashkilotchilik, kommunikativlik va o‘z-o‘zini faollashtirish bilan bog‘liq professional sifatlarining integrativ namoyon bo‘lishi muhim omil sifatida qaraldi. Shu asosda kasbiy identifikatsiyaning kognitiv-semantik hamda hissiy-irodaviy xususiyatlarining dinamik shakllanishi jarayonida Hard Skills va Soft Skills kompetensiyalarining o‘zaro uyg‘unlashuvini aniqlash tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Respublikamizda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik xususiyatlari, kasbiy qobiliyat, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy mas’uliyat hamda kasbiy sifatlar muammolari M.A. Abdullajonova, D.N. Arzikulov, Yu.M. Asadov, Sh.R. Baratov, A.A. Beknazarov, M.G. Davletshin, U.S. Jumayev, S.X. Jalilova, V.M. Karimova, I.I. Maxmudov, M.M. Mavlonov, N.M. Majidov, A.M. Mashkurov, N.H. Murotaliyeva, D.G. Muxamedova, A. Muxtorova, N.A. Ruziqulov, H.A. Rixsiyeva, N.S. Safoyev, L.A. Popova, A.X. Ubaydullayev, B.R. Qodirov, U.A. Qosimov, F.I. Xaydarov, E.G‘. G‘oziyev, G‘.B. Shoumarov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari V.G. Asev, S.A. Alifanov, A.M. Arsenev, D.B. Bogoyavlenskaya, L.I. Bojovich, A.V. Brushlinskiy, F.N. Gonobolin, A.A. Derkach, E.F. Zeer, E.P. Ilin, E.A. Klimov, A.K. Markova, L.M. Mitina, I.N. Klyuyeva, A.V. Karpov, A.V. Kashirin, N.V. Kuzmina, T.V. Kudryavseva, E.A. Levanova, A.N. Leontev, K.S. Leytes, A.M. Novikov, I.N. Nikitin, V.A. Slastenin, L.N. Stepanova va boshqalar tomonidan bo‘lajak mutaxassislarning ta’lim jarayonidagi muloqotchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, Hard Skills kompetensiyalarini shakllantirish, shaxsning kasbiy rivojlanishi, kasbiy yo‘nalganligi hamda qobiliyat va layoqatni rivojlantirishning ilmiy asoslari keng tadqiq etilgan. Xorijlik psixologlar D. Abrams, M. Argyle, S. Joshi, E. Erikson, D. Campbell, Ch. Cooley, R. Laing, K. Lewin, K. McGowan, G.H. Mead, P. Miller, J. Raven, H. Tajfel va boshqalar tomonidan kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda kasbiy identifikatsiyaning psixologik xususiyatlariga oid masalalar chuqur ilmiy o‘rganilgan.

Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligini shakllantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlari doirasida hali ham maxsus tadqiqot obyekti sifatida to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish uchun, avvalo, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligini shakllantirish jarayonida yuzaga

keladigan muammolarni aniqlash hamda ularning kasbiy faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur. Bunda mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy mobillikning shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni o‘rganish, kasbiy mobillik modelini ishlab chiqish hamda uning komponentlari rivojlanishini ta’minlovchi mazmun, shakl va metodlarni aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Yu.Yu. Dvoretskaya, G.E. Zborovskiy, E.A. Nikitina, I.V. Nikulina va M.N. Rutkevich kasbiy mobillikni shaxsning kognitiv hamda kasbiy faoliyat sohalarida samarali harakat qilish qobiliyati sifatida talqin etgan bo‘lsalar, L.V. Vershinina, L.V. Goryunova, S.G. Jeltova, B.M. Igoshev, Yu.I. Kalinovskiy, I.V. Nikulina va S.V. Nujnova kasbiy mobillikni shaxsning muhim kasbiy sifati sifatida ilmiy asoslab berganlar.

Oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon murakkab va ko‘p bosqichli xususiyatga ega. Shu sababli uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. Kasbiy mahorat va kompetentlik nafaqat ta’lim jarayonida, balki mutaxassisning o‘z ustida muntazam ishlashi hamda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malakasini oshirib borishi bilan ham belgilanadi. L.M. Mitinaning ta’kidlashicha, kasbiy tayyorgarlik faoliyati o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oliy ta’lim bosqichidayoq mutaxassisning o‘z salohiyatini namoyon etishiga xizmat qiladi. O‘zbek psixologi D.G. Muxamedovaning fikricha, zamonaviy oliy ta’lim tizimi jahon talablari va standartlariga mos, ijodkor, kompetent, mas’uliyatli, o‘z kasbining ustasi hamda innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyor mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

Ijtimoiy faollik shaxs hayotining barcha jabhalarida namoyon bo‘lib, talabalarda u, avvalo, o‘quv-amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy tahlillar talabaning ijtimoiy faolligini belgilovchi asosiy sifatlar qatoriga kirishimlilik, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijtimoiy muloqotchanlik hamda o‘z ijtimoiy faoliyatidan qoniqish kabi omillarni kiritadi. Aynan ushbu sifatlarni rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy kompetentligini dinamik rivojlantirishning muhim psixologik omillaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash keng qamrovli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u nazariy hamda amaliy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy qobiliyatlar, kasbiy ko‘nikmalar va malakalar negizida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikning dinamik rivojlanishi yuz beradi. Ushbu dinamik rivojlanishning psixologik xususiyatlari “Men” konsepsiyasi, kasbiy o‘zini o‘zi baholash, kasbiy qadriyatlar, o‘z imkoniyatlarini anglash, kasbiy talablarga adekvat javob bera olish hamda kasbiy tajribani o‘zlashtirish jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan

birga, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikning dinamik rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u bir tomondan bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarning takomillashuvi asosida kasbiy faoliyat samaradorligining izchil ortishi bilan tavsiflansa, ikkinchi tomondan, kasb talablari bilan shaxs sifatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli regressiv rivojlanish holatlari yuzaga kelishi bilan ham tavsiflanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

A.K. Markovaning fikricha, mutaxassisning muhim kasbiy sifatlari qatoriga eruditsiya, maqsadga yo‘naltirilganlik, ijodiy tafakkur, zukkolik, ko‘tarinki kayfiyat, kuzatuvchanlik, ishonchlilik, topqirlik, pedagogik bashorat hamda refleksiya (o‘zini o‘zi anglash va namoyon etish) kiradi.

Hard Skills - pedagog-psixologning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar majmuidir. Mazkur kompetensiyalar odatda an’anaviy oliy ta’limning asosiy bosqichlarida tizimli ravishda shakllantiriladi hamda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining fundamental asosini tashkil etadi. So‘nggi yillarda Hard Skills bilan bir qatorda zamonaviy ta’lim tizimida Soft Skills tushunchasi ham keng qo‘llanila boshladi.

Universal kasbiy kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladigan Soft Skills bugungi kunda dunyoning barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun muhim talab hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur tushuncha turli nomlar bilan talqin qilinadi. Jumladan, «ishga joylashish ko‘nikmalari» (employability skills), «insonlar bilan ishlash ko‘nikmalari» (people skills), «kasbiy bo‘lmagan ko‘nikmalar» (non-professional skills), «tayanch ko‘nikmalar» (key skills), «hayotiy ko‘nikmalar» (life skills) hamda keyingi yillarda «ijtimoiy taraqqiyot ko‘nikmalari» (skills for social progress) atamalari qo‘llanilib kelinmoqda (Raitskaya & Tixonova, 2018).

Soft Skills (yumshoq ko‘nikmalar) - kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlovchi shaxsiy fazilatlar, odatlar, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish hamda samarali muloqot qilish qobiliyatlari majmuidir. Mutaxassisning Soft Skills kompetensiyalari, avvalo, samarali muloqot o‘rnatish, jamoada ishlash va hamkorlik qilish, muammolarni konstruktiv hal etish, turli vaziyatlarga moslasha olish, tashkilotchilik, yetakchilik hamda vaqtni oqilona boshqarish kabi sifatlarda namoyon bo‘ladi.

Ko‘nikmalar amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish hamda nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llashni ta’minlovchi faoliyat komponenti hisoblanadi. Mazmuniga ko‘ra ko‘nikmalar amaliy (jismoniy) va aqliy, shakliga ko‘ra esa oddiy hamda murakkab turlarga ajratiladi. Shu bois Hard Skills va Soft Skills kompetensiyalarining uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-

amaliy kompetentligini shakllantirishning muhim psixologik shartlaridan biri sifatida qaraladi.

XULOSA

Bilimlarni egallash, ularni chuqur o‘zlashtirish va amaliy faoliyatda samarali qo‘llashga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Kasbiy rivojlanishning asosiy zaminini esa uzluksiz ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoj, doimiy o‘qish va o‘z bilim hamda ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishga intilish tashkil etadi. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, mustaqil izlanish, refleksiv tahlil qilish va o‘z ustida tizimli ishlashga bo‘lgan ichki motivatsiya mutaxassisning kasbiy kompetentligini izchil rivojlantirishning muhim psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu sifatlar bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi, zamonaviy kasbiy talablarga moslashishi hamda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Корнеева Н. Ю., Уварина Н. В. Методологические основы формирования надпрофессиональных навыков у педагогов профессионального обучения //Вестник педагогических наук Учредители: Индивидуальный предприниматель Клюев Александр Васильевич. – №. 2. – С. 329-334.

2. Tuychieva C. (2024). Проблема Формирования Надпрофессиональных Навыков Будущих Специалистов. Modern Science and Research, 3(1), 1–7. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28163.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARIDA SHAXSIY QADRIYATLARNING KASBIY KARYERANI REJALASHTIRISHDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD
Email: n.kholygitova@kiut.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlikning kasbiy karyerani rejalashtirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Zamonaviy mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, kasbiy faoliyat mazmunining o‘zgarishi hamda inson kapitaliga qo‘yilayotgan talablarning ortishi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy karyerasini ilmiy asosda rejalashtirishni muhim vazifaga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy qadriyatlar tizimi, kasbiy motivatsiya, qaror qabul qilish xususiyatlari hamda karyeraga yo‘nalganlikni kompleks o‘rganish tadqiqotning asosiy maqsadi etib belgilandi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy qadriyatlar, qadriyatli yo‘nalganlik, kasbiy karyera, karyerani rejalashtirish, kasbiy motivatsiya, qaror qabul qilish, karyera "yakor"lari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilari, professional rivojlanish, mehnat bozori, psixologik diagnostika.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПЛАНИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ У ВЫПУСКНИКОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ социально-психологического значения системы личностных ценностей в планировании профессиональной карьеры выпускников высших учебных заведений. Усиление конкуренции на современном рынке труда, изменение содержания профессиональной деятельности, а также возрастающие требования к человеческому капиталу делают научно обоснованное планирование профессиональной карьеры одной из важнейших задач выпускников вузов. В этой связи основной целью исследования является комплексное изучение системы личностных ценностей, ценностной направленности личности, профессиональной мотивации, особенностей принятия решений и карьерной ориентации как ключевых факторов эффективного планирования профессиональной карьеры. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию роли личностных ценностей в профессиональном развитии и могут служить научной основой

для совершенствования программ профориентации и психологического сопровождения в системе высшего образования.

Ключевые слова: личностные ценности, ценностная направленность, профессиональная карьера, планирование профессиональной карьеры, профессиональная мотивация, принятие решений, карьерные якоря, социально-психологические особенности, выпускники высших учебных заведений, профессиональное развитие, рынок труда, психологическая диагностика.

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF PERSONAL VALUES IN CAREER PLANNING AMONG HIGHER EDUCATION GRADUATES

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the socio-psychological characteristics of personal value orientation and its influence on career planning among higher education graduates. The growing competitiveness of the modern labor market, the transformation of professional activities, and the increasing demands placed on human capital have made scientifically grounded career planning an essential task for university graduates. From this perspective, the study aims to comprehensively examine the system of personal values, professional motivation, decision-making characteristics, and career orientation as key determinants of effective career planning. The findings highlight the significant role of personal values in shaping professional aspirations, career-related decision-making, and long-term professional development. The study also emphasizes the importance of integrating psychological diagnostics and value-based career guidance into higher education to facilitate graduates' successful adaptation to the labor market and sustainable career development.

Keywords: personal values, value orientation, career, career planning, professional motivation, decision-making, career anchors, socio-psychological characteristics, higher education graduates, professional development, labor market, psychological assessment.

KIRISH

XXI asrda mehnat bozorida yuz berayotgan chuqur institusional va texnologik o‘zgarishlar inson kapitaliga nisbatan mutlaqo yangi talablarni shakllantirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, global raqobat va mehnat migratsiyasining kuchayishi natijasida mutaxassisning faqat kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi yetarli hisoblanmay qoldi. Bugungi kunda mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun shaxs o‘zining kasbiy faoliyatini uzoq muddatli strategiya asosida

rejalashtira olishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi hamda tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslasha bilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kasbiy karyerani rejalashtirish faqat iqtisodiy yoki boshqaruv kategoriyasi emas, balki ijtimoiy psixologiyaning ham muhim tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Chunki insonning kasbiy yo‘lini belgilash jarayoni uning shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy ehtiyojlari, hayotiy pozisiyasi, o‘zini anglash darajasi, ichki motivatsiyasi va qaror qabul qilish uslublari bilan bevosita bog‘liqdir. Aynan ushbu psixologik omillar kasbiy faoliyatning barqarorligi, ishdan qoniqish, professional o‘sish va shaxsiy farovonlikni ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda xorijiy olimlar tomonidan kasbiy karyerani rivojlantirishning turli nazariy modellari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning katta qismi mehnat bozori talablari yoki tashkilot ehtiyojlariga qaratilgan bo‘lib, shaxsiy qadriyatlar tizimining karyera rejalashtirishga ta’siri yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining shaxsiy qadriyatlari bilan kasbiy karyerani rejalashtirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi empirik tadqiqotlar hanuz kamchilikni tashkil etadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kasbiy karyerani rejalashtirish muammosi zamonaviy psixologiya, pedagogika, sosiologiya va inson resurslarini boshqarish sohalarida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlikning kasbiy karyerani rejalashtirishga ta’siriga bag‘ishlangan kompleks ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar hanuz yetarli emas.

Kasbiy rivojlanish nazariyasining shakllanishida klassik olimlardan biri bo‘lgan T. Parsons kasb tanlash jarayonini shaxs xususiyatlari hamda kasb talablari o‘rtasidagi muvofiqlik asosida tushuntirgan. Uning fikricha, kasbiy muvaffaqiyat insonning qobiliyatlari, qiziqishlari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikka bog‘liq. Keyinchalik mazkur yondashuv kasbiy maslahat berish tizimining metodologik asoslaridan biriga aylandi.

J. Xolland kasbiy muhit va shaxs tipologiyasi nazariyasini ishlab chiqib, inson shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy muhit o‘rtasidagi muvofiqlik qanchalik yuqori bo‘lsa, kasbiy qoniqish va mehnat samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘lishini ilmiy jihatdan asosladi. Uning RIASEC modeli hozirgi kungacha kasbiy diagnostika sohasida eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Kasbiy karyerani shaxs hayoti davomida shakllanadigan jarayon sifatida talqin qilgan olimlardan biri Mark Savikas hisoblanadi. U ishlab chiqqan Career Construction Theory konsepsiyasiga ko‘ra, inson o‘z karyerasini tashqi omillar

ta’sirida emas, balki shaxsiy hayotiy tajribasi, qadriyatlari, maqsadlari va identikligi asosida qurib boradi. Bu yondashuv shaxsiy qadriyatlarni kasbiy rivojlanishning markaziy psixologik mexanizmi sifatida baholaydi.

Kasbiy qadriyatlar va ichki motivatsiya muammosini chuqur tadqiq etgan olimlardan yana biri Edgar Sheyn hisoblanadi. Uning "Career Anchors" nazariyasi inson kasbiy qarorlarining asosida tashqi rag‘batlantirish omillari emas, balki shaxsning ichki qadriyatlari, hayotiy ustuvorliklari va o‘zini anglash darajasi yotishini ko‘rsatadi. Sheyn tomonidan ajratilgan professional kompetentlik, boshqaruv, avtonomiya, xavfsizlik, xizmat qilish, tadbirkorlik, hayot uslubi va chaqiriq kabi karyera “yakor”lari shaxsning uzoq muddatli kasbiy yo‘nalishini belgilaydi.

Pozitiv psixologiya va tashkilot psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda F. Lyutans inson kapitali tushunchasini psixologik kapital konsepsiyasi bilan boyitib, o‘z-o‘ziga ishonch, optimizm, umid va psixologik barqarorlik kabi omillar kasbiy muvaffaqiyatning muhim determinantlari ekanligini asoslab berdi. Bu yondashuv kasbiy karyerani rejalashtirish jarayonida shaxsiy resurslarni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Rossiya psixologik maktabida Ye.A. Klimov, A.K. Markova, L.M. Mitina, Yu.P. Povarenkov va boshqa olimlar kasbiy shakllanish, professional o‘zini anglash hamda kasbiy kompetentlikning psixologik mexanizmlarini o‘rganganlar. Ularning ishlarida kasbiy rivojlanish bosqichma-bosqich kechadigan psixologik jarayon sifatida talqin qilinib, shaxsiy rivojlanish bilan kasbiy o‘sishning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kasbiy shakllanish, mehnat psixologiyasi va professional rivojlanishga oid qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq ularning aksariyati kasbiy tayyorgarlik yoki mehnat faoliyati samaradorligiga bag‘ishlangan bo‘lib, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlikning kasbiy karyerani strategik rejalashtirishga ta’siri mustaqil tadqiqot ob’yekti sifatida kam yoritilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda quyidagi muammolar yetarlicha ochib berilmagan:

- shaxsiy qadriyatlar tizimining kasbiy qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir mexanizmi;
- qadriyatlar, motivatsiya va karyera strategiyalari o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik bog‘liqlik;
- turli ta’lim yo‘nalishlari talabalarida qadriyatlar tizimining qiyosiy xususiyatlari;
- shaxsiy qadriyatlar asosida kasbiy karyerani psixologik qo‘llab-quvvatlashning ilmiy modeli.

Tadqiqotda kasbiy karyerani rejalashtirish shaxsiy qadriyatlar, qaror qabul qilish xususiyatlari, motivasion omillar va kasbiy yo‘nalganlikning o‘zaro integratsiyalashgan tizimi sifatida qaraladi. Bu yondashuv kasbiy rivojlanishni faqat mehnat bozori talablari nuqtai nazaridan emas, balki shaxsning ichki psixologik resurslari bilan uyg‘unlikda tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, tadqiqot natijalari talabalarning kasbiy karyerani rejalashtirish darajasi birinchi navbatda ularning shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. Shaxsiy qadriyatlari aniq shakllangan ishtirokchilar o‘z kasbiy kelajagini rejalashtirishda uzoq muddatli maqsadlarni belgilashga, shaxsiy resurslarini baholashga hamda mehnat bozori talablarini hisobga olishga nisbatan yuqori tayyorlik namoyon etdilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy yo‘nalganlik, hamkorlikka tayyorlik, empatiya va yutuqqa intilish darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda karyera rejalashtirish ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘lgan. Bu holat shaxsiy qadriyatlar tizimi insonning kasbiy qaror qabul qilish jarayonida ichki psixologik resurs vazifasini bajarishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, hayotda barqarorlikka intilish, jamiyatga foyda keltirish, o‘zini rivojlantirish va shaxsiy o‘sishga qaratilgan qadriyatlar karyerani strategik rejalashtirish bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekani aniqlandi. Bu natijalar shaxsiy qadriyatlarning nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional kelajakni qurishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Qaror qabul qilish uslublari tahlili talabalarning psixologik xususiyatlari karyera strategiyalarini tanlashga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Xususan, vaziyatni chuqur tahlil qilishga moyil, mas’uliyatli va intizomli talabalarda uzoq muddatli kasbiy maqsadlarni belgilash darajasi yuqori ekani kuzatildi. Aksincha, ikkilanishga moyil va qaror qabul qilishni kechiktiruvchi ishtirokchilarda karyera rejalarining aniqligi nisbatan past bo‘ldi. Bu esa qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish karyerani rejalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Ta’lim yo‘nalishlari kesimida ham muayyan farqlar aniqlandi. Pedagogika yo‘nalishi talabalarida ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va o‘z ustida ishlashga intilish yuqori darajada namoyon bo‘lgan bo‘lsa, iqtisodiy yo‘nalish talabalarida moddiy mustaqillik, liderlik, yuqori mavqega erishish va ijodkorlikka yo‘nalgan qadriyatlar ustunlik qildi. Bu holat turli kasbiy muhitlar talabalar qadriyatlar tizimiga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, shaxsiy qadriyatlar tizimi, motivasion profil va karyera "yakor"lari o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik talabalarning kasbiy o‘zini anglash

darajasini oshirishi hamda kelajakdagi professional barqarorlikni ta’minlashi kuzatildi. Bu natija shaxsiy qadriyatlar va karyera rejalashtirish o‘rtasida tizimli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar zamonaviy karyera psixologiyasi nazariyalari bilan uyg‘unlikda talqin qilindi. Jumladan, M. Savikasning karyerani qurish nazariyasiga muvofiq, inson o‘z karyerasini shaxsiy qadriyatlari va hayotiy maqsadlari asosida shakllantiradi. Tadqiqotimizda ham shaxsiy qadriyatlari barqaror shakllangan talabalarning kasbiy kelajakni ongli rejalashtirishga moyilligi ushbu nazariy yondashuvni tasdiqladi. Shuningdek, E. Sheynning "Career Anchors" konsepsiyasida ta’kidlangan ichki qadriyatlar va kasbiy qarorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi. Talabalarning karyera "yakor"lari bilan shaxsiy qadriyatlari o‘rtasidagi muvofiqlik ularning kasbiy maqsadlarining aniqligi va professional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy karyerani samarali rejalashtirishni ta’minlovchi asosiy omillar qatoriga faqat akademik tayyorgarlik emas, balki shaxsiy qadriyatlar tizimi, ichki motivatsiya, psixologik barqarorlik va qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham kiritish lozim. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida karyera markazlari va psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlik kasbiy karyerani rejalashtirishning yetakchi ijtimoiy-psixologik omillaridan biri hisoblanadi;
- talabalarning qadriyatlar tizimi ularning kasbiy qaror qabul qilish sifati va strategik karyera rejalarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
- ta’lim yo‘nalishi, motivatsiya va shaxsiy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyasini belgilaydi;
- kasbiy karyerani psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirish bilan integratsiya qilish oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida karyerani rejalashtirish tizimini takomillashtirish, psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda shaxsiy qadriyatlarga asoslangan karyera modellarini amaliyotga joriy etish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Savickas, M. L. (2019). Career construction theory and counseling model. In J. A. Athanasou & H. N. Perera (Eds.), International Handbook of Career Guidance (2nd ed., pp. 171–200). Springer.
2. Schein, E. H. (2006). Career Anchors: Self-Assessment (3rd ed.). John Wiley & Sons.
3. Holland, J. L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.
4. Luthans, F., Youssef-Morgan, C. M., & Avolio, B. J. (2015). Psychological Capital and Beyond. Oxford University Press.
5. Климов, Е. А. (2004). Психология профессионального самоопределения. Москва: Академия.
6. Маркова, А. К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание».
7. Митина, Л. М. (2004). Психология профессионального развития личности. Москва: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО «МОДЭК».

UDK 37; 377; 15

O‘QUVCHILARNING DEMOKRATIK VA AVTORITAR USLUBDAGI O‘QITUVCHILAR SHAXSIGA NISBATAN PSIXOSEMANTIK TASAVVURLARI

Turayeva Dilafruz Rustamboevna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
d.turayeva@kiut.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta’lim maktablari o‘quvchilarining demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi qo‘llanilib, 86 nafar pedagog va 654 nafar yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etgan. O‘qituvchi shaxsi baholash, iroda va faollik omillari asosida qiyosiy baholandi. Natijalar demokratik uslubdagi o‘qituvchilar o‘quvchilar tomonidan ko‘proq tushunuvchan, ishonchli va muloqotga ochiq shaxslar sifatida qabul qilinishini, avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar esa asosan talabchanlik va intizom bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida demokratik pedagogik muloqotni rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik uslub, demokratik uslub, avtoritar uslub, o‘qituvchi shaxsi, semantik differensial, Charlz Osgud metodikasi, psixosemantika, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari, pedagogik muloqot, psixologik idrok.

ПСИХОСЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ О ЛИЧНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ С ДЕМОКРАТИЧЕСКИМ И АВТОРИТАРНЫМ СТИЛЯМИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье проанализированы психосемантические представления учащихся общеобразовательных школ о личности учителей с демократическим и авторитарным стилями педагогической деятельности. В исследовании использована методика семантического дифференциала Чарльза Осгуда, в котором приняли участие 86 педагогов и 654 учащихся 10–11-х классов. Личность учителя оценивалась по факторам оценки, силы (волевой компонент) и активности. Полученные результаты показали, что учителя с демократическим стилем воспринимаются учащимися как более

понимающие, надежные и открытые к общению, тогда как учителя с авторитарным стилем характеризуются прежде всего требовательностью и ориентацией на дисциплину. Результаты исследования подтверждают эффективность метода семантического дифференциала для изучения восприятия личности педагога и обосновывают необходимость развития демократического педагогического взаимодействия, а также совершенствования коммуникативных и эмоциональных компетенций учителей.

Ключевые слова: педагогический стиль, демократический стиль, авторитарный стиль, личность учителя, семантический дифференциал, методика Чарльза Осгуда, психосемантика, взаимоотношения учителя и учащихся, педагогическое общение, психологическое восприятие.

STUDENTS' PSYCHOSEMANTIC PERCEPTIONS OF TEACHERS WITH DEMOCRATIC AND AUTHORITARIAN TEACHING STYLES

Abstract. This article examines secondary school students' psychosemantic perceptions of teachers with democratic and authoritarian teaching styles. The study employed Charles Osgood's Semantic Differential technique and involved 86 teachers and 654 students from grades 10–11. Teachers' personalities were evaluated across the dimensions of evaluation, potency, and activity. The findings indicate that teachers with a democratic teaching style are perceived by students as more understanding, trustworthy, and communicative, whereas teachers with an authoritarian style are primarily associated with strictness and discipline. The results confirm the effectiveness of the Semantic Differential technique for assessing students' perceptions of teachers' personalities and highlight the importance of promoting democratic pedagogical interaction as well as improving teachers' communicative and emotional competencies to enhance the quality of the educational process.

Keywords: teaching style, democratic teaching style, authoritarian teaching style, teacher personality, Semantic Differential, Charles Osgood's technique, psychosemantics, teacher–student relationships, pedagogical communication, psychological perception.

KIRISH

So‘nggi yillarda ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish hamda pedagogik muloqot samaradorligini oshirish masalalari pedagogika va psixologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi

mutaxassis, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi hamkor sifatida qaralmoqda. Shu bois o‘quvchilarning o‘qituvchi shaxsini qanday qabul qilishi, pedagogik uslubni qanday baholashi hamda bu baholarning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar sifati bilan belgilanadi. Ayniqsa, demokratik va avtoritar pedagogik uslublarning o‘quvchilar tomonidan turlicha qabul qilinishi ularning motivatsiyasi, emotsional holati, ta’limga munosabati hamda pedagogga nisbatan ishonch darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘quvchilar ongida shakllangan o‘qituvchi obrazini ilmiy asosda tahlil qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi shaxsining psixologik qabul qilinishi, pedagogik muloqot va ta’lim samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilarni semantik differensial metodikasi asosida qiyosiy baholash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o‘qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo‘yicha kompleks psixosemantik tahlili zamonaviy ta’lim sharoitida dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi umumta’lim maktablari o‘quvchilarining demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlarini aniqlash hamda ularning asosiy shaxsiy va kasbiy sifatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

So‘nggi yillarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning ta’lim sifati, o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati hamda psixologik farovonligiga ta’siri xalqaro ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda pedagogik faoliyat samaradorligi faqat o‘qitish metodlari bilan emas, balki o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, pedagogik uslubi va o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi bilan ham izohlanmoqda. A.A. Rean va Ya.L. Kolominskiy pedagogik muloqotni shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida baholab, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuv va ta’lim samaradorligini oshirishini asoslab bergan. A.A. Bodalev shaxsni ijtimoiy idrok etish nazariyasida inson haqidagi tasavvurlar muloqot sifatini belgilashini ko‘rsatgan bo‘lsa, V.A. Kan-Kalik pedagogik muloqot madaniyati o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi va emotsional yaqinligini shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslagan.Teacher–student relationship (o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari) bo‘yicha olib borilgan meta-

tahlillar ijobiy emotsional munosabatlar o‘quvchilarning maktabdagi faolligi, akademik natijalari va motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatgan [1,2].

2019 yildan keyingi xalqaro tadqiqotlarda demokratik, ishtirokchilikka asoslangan pedagogik uslub o‘quvchilarning psixologik xavfsizligi, darsdagi faolligi va maktabga tegishlilik hissini oshirishi, direktiv yoki avtoritar uslub esa intizomni kuchaytirishi bilan birga emotsional yaqinlikni pasaytirishi aniqlangan [3].

Pedagogik uslub va sinf boshqaruvi samaradorligi bo‘yicha eng yirik meta-tahlillardan birida Korpershoek va hammualliflar (2025) 76 ta eksperimental tadqiqotni umumlashtirib, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar akademik, xulq-atvor, motivatsion hamda ijtimoiy-emotsional natijalarga statistik jihatdan ishonchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [4]. Mualliflar ayniqsa so‘nggi yillarda teacher–student relationship komponentiga qaratilgan tadqiqotlar soni sezilarli ortganini qayd etadilar.

Need-Supportive Teaching nazariyasiga asoslangan zamonaviy tadqiqotlar o‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan kutishlari (teacher expectations) uning pedagogik xatti-harakatlariga va o‘quvchilar bilan o‘rnatadigan munosabatlariga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Past kutishlarga ega o‘quvchilarga nisbatan pedagoglar kamroq avtonomiya berishi va ular bilan munosabat sifati ham pastroq bo‘lishi aniqlangan [5].

Shaxs obrazini psixosemantik jihatdan o‘rganishda Charlz Osgud tomonidan ishlab chiqilgan semantik differensial metodikasi eng ishonchli klassik usullardan biri hisoblanadi. Mazkur metod shaxs yoki hodisaga nisbatan subyektiv munosabatni baholash, kuch (iroda), baholash va faollik omillarini aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda ham ushbu metod pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlarda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari umumiy pedagogik yoki psixologik ko‘rsatkichlar orqali baholangan. Demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilarning o‘quvchilar ongida qanday psixosemantik obraz hosil qilishi, baholash, iroda va faollik omillari kesimida qanday farqlanishi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi yordamida pedagogik uslublarni kompleks qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlar juda kam uchraydi.

Shu sababli mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsining o‘quvchilar tomonidan psixosemantik qabul qilinishi Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi asosida baholanadi hamda baholash, iroda va faollik omillari bo‘yicha qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

So‘nggi tadqiqotlarda pedagogik uslubni baholash faqat kuzatish yoki anketa orqali emas, balki sun’iy intellekt va ko‘p modal ma’lumotlar asosida ham amalga oshirilmoqda. Nutq, mimika, tana harakati va dars mazmunini kompleks tahlil qilish orqali o‘qituvchining pedagogik uslubini avtomatik aniqlash imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatni obyektiv baholash imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, o‘quvchilarning psixologik idroki va subyektiv baholarini to‘liq aks ettira olmaydi.

Demokratik sinf boshqaruvi bo‘yicha Janubiy Afrika oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqot demokratik boshqaruv tamoyillarining amaliyotga to‘liq tatbiq etilmayotganini ko‘rsatdi. Mualliflar pedagoglarni tayyorlash tizimida demokratik muloqot, teng huquqlilik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydilar.

Biroq mavjud ilmiy ishlarning aksariyatida o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari umumiy psixologik yoki pedagogik ko‘rsatkichlar orqali baholangan. Demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsining o‘quvchilar ongida qanday psixosemantik obraz hosil qilishi, ularning baholash, iroda va faollik omillari bo‘yicha qanday farqlanishi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi yordamida pedagogik uslublarni kompleks qiyosiy tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlar juda kam uchraydi.

Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Unda demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsining o‘quvchilar tomonidan psixosemantik qabul qilinishi Charlz Osgudning semantik differensial metodikasi asosida baholanadi hamda baholash, iroda va faollik omillari kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv o‘qituvchi shaxsining psixologik qabul qilinish mexanizmlarini chuqurroq ochib berish bilan birga, pedagogik uslubni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shaxs obrazini o‘rganishda Charlz Osgud tomonidan ishlab chiqilgan semantik differensial metodikasi psixosemantik tadqiqotlarning eng ishonchli usullaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu metod shaxs yoki hodisaga nisbatan subyektiv munosabatni baholash, baholash, kuch (iroda) va faollik omillari bo‘yicha psixologik tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Metodikaning afzalligi shundaki, u respondentlarning yashirin munosabatlari va emotsional baholarini miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan pedagogik muloqot, o‘qituvchi kompetentligi yoki ta’lim uslublarining umumiy tavsifiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar haqidagi psixosemantik tasavvurlarini kompleks qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada

yoritilmagan. Xususan, o‘qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo‘yicha semantik differensial metodikasi asosida olingan natijalarni pedagogik uslub bilan bog‘liq holda tahlil qiluvchi tadqiqotlar kam uchraydi.

Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning demokratik va avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlarini aniqlash hamda ularning pedagogik amaliyot uchun ahamiyatini asoslashni maqsad qiladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib boruvchi 86 nafar pedagogning 654 nafar o‘quvchisini qamrab olindi. Ularning tarkibiga yuqori sinf (10–11-sinf) o‘quvchilari kiritildi.

Tadqiqot o‘tkazishda har bir ishtirokchiga o‘qituvchi obrazini ifoda etuvchi 25 ta semantik juftliklardan iborat maxsus shkala taqdim etildi. Juftliklar uch pog‘onali omillar tizimi - baholash, iroda va faolligi mezonlariga mos holda tanlandi. Masalan, “adolatli – adolatsiz”, “tushunuvchi – tushunmaydigan”, “qattiqqo‘l – yumshoq”, “hayotga qiziqqan – befarq” kabi juftliklar. Ishtirokchilardan har bir juftlikdagi ikki qarama-qarshi sifatdan qay biri o‘qituvchiga ko‘proq mos kelishi va qanchalik darajada mos kelishi 7 ballik shkalada baholanishi so‘raldi. Masalan, “+3” yoki “–3” kabi chekka qiymatlar kuchli muvofiq yoki mutlaq qarama-qarshilikni, “0” neytral munosabatni anglatdi. Metodikani o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarga avval metodning mazmuni va topshiriqni tushuntirildi, so‘ng anketa shaklidagi blanklar tarqatildi. Har bir o‘quvchiga anketa to‘ldirish uchun 15–20 daqiqa vaqt berildi. Barcha javoblar anonim tarzda to‘plandi, bu esa o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishlariga yordam beradi deb hisobladik. To‘plangan ma‘lumotlar bo‘yicha har bir xususiyatning o‘rtacha balli hisoblandi va ular Osuga metodikasidagi asosiy omillarga moslab qayta ishlandi. Shu yo‘sinda, avtoritar va demokratik uslubdagi o‘qituvchilar uchun alohida bo‘laklar shakllantirildi hamda ijobiy va salbiy xususiyatlar kesimida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Semantik differensial metodikasi natijalari tahlili respondentlarning belgilangan sifatlarni qay darajada tanlaganini ko‘rsatib, o‘qituvchi shaxsiyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib berdi. demokratik uslubda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar haqida o‘quvchilarning fikrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlari ko‘proq ijobiy jihatlarda namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, o‘quvchilar bunday o‘qituvchilarni “tushunuvchi” (66,1%) sifatida qabul qiladilar. Bu holat, o‘qituvchining o‘quvchining ichki dunyosiga, ehtiyoj va ehsoslariga e‘tibor qaratishi, ularning fikr va ehtiyojlarini tinglab, muloqotga ochiq bo‘lishi bilan bog‘liq. Demokratik o‘qituvchida empatiya yuqori rivojlangan bo‘lib, u sinfda

hamkorlik muhitini yaratadi va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi.



2.3-rasm. Semantik differensial metodikasi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchi shaxsiga tegishli deb qayd etilgan sifatlar ko‘rsatkichi.

Shuningdek, o‘quvchilar demokratik uslubdagi o‘qituvchini “ishonchli” (52,8%) deb baholaydilar. Bu esa o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarida psixologik xavfsizlik hissi, o‘quvchining o‘qituvchiga suyana olishi, uning so‘z va harakatlariga ishonishi mavjudligini anglatadi. Ishonchli o‘qituvchi o‘quvchilarda mas‘uliyatni his qilish va o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni engishda ruhiy yordamchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat - o‘quvchilar demokratik uslubdagi o‘qituvchilarni “hushmuomala” (51,2%) deb ta’riflaydilar. Bu o‘qituvchi muloqot jarayonida konstruktiv va iliq munosabatlar o‘rnatishga qodir ekanini ko‘rsatadi. Hushmuomalalik o‘quvchilarda ijobiy ruhiy holat uyg‘otib, ularning ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytiradi. O‘quvchilarning muayyan qismi bunday o‘qituvchilarni “mehribon” (33,0%) va “do‘stona” (34,7%) sifatida ham qayd etgan. Bu ko‘rsatkichlar shundan dalolat beradiki, demokratik uslubda ishlaydigan o‘qituvchilarda nafaqat kasbiy talabchanlik, balki insonparvarlik va do‘stona munosabat ham kuchli aks etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan olib qaralganda, o‘quvchilar tomonidan demokratik uslubdagi o‘qituvchilarga berilgan ushbu baho, ularning shaxsiy fazilatlari o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishigagina emas, balki emotsional-axloqiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu esa demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida empatiya, ishonch, muloqotchanlik va insonparvarlik kabi sifatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini namoyon etadi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning faoliyati o‘quvchilar

tomonidan ko‘proq ijobiy baholangan bo‘lib, ularni “tushunuvchi, ishonchli, muloqotga ochiq va do‘stona” sifatida qabul qilishlari, pedagogning shaxsiy-kasbiy fazilatlarining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Avtoritar uslubda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar haqida o‘quvchilarning baholari shundan dalolat beradiki, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlari ko‘proq talabchanlik va adolatga bog‘liq jihatlarda namoyon bo‘ladi. Jadval ko‘rsatkichlariga ko‘ra, bunday o‘qituvchilar “adolatli” (44,2%), “tushunuvchi” (27,0%) va “ishonchli” (25,9%) sifatida baholangan. Bu holat avtoritar uslubdagi pedagogning asosiy maqsadi intizomni saqlash, tartibni ta’minlash va bilim berish jarayonida qat‘iy mezonlarni ustuvor qo‘yishdan iboratligini ko‘rsatadi. Ushbu sifatlar o‘qituvchining sinfdagi nufuzini ta’minlaydi va o‘quvchilar unda muayyan darajada himoya va adolatni ko‘ra oladilar.

Biroq shu bilan birga, avtoritar uslubdagi o‘qituvchilarda emotsional yaqinlik va iliq munosabatlar etarlicha namoyon bo‘lmaydi. O‘quvchilarning bahosida “do‘stona” (4,8%) va “mehribon” (12,5%) kabi fazilatlar juda past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bu esa bunday o‘qituvchilar ko‘proq nazorat va talabchanlikka tayanishini, ammo o‘quvchilar bilan shaxsiy munosabatlarda iliqlik va do‘stona muhit kamroq ko‘zga tashlanishini anglatadi.

Psixologik nuqtayi nazardan olib qaralganda, avtoritar uslub o‘qituvchida qat‘iyat, adolat va talabchanlik kabi irodaviy jihatlarni kuchli namoyon etadi, ammo empatiya, muloqotchanlik va emotsional qo‘llab-quvvatlash komponentlari soyadagidek qolib ketadi. Bu esa ayrim o‘quvchilarda ruhiy masofa, qo‘rquv yoki xo‘mrayish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa o‘quvchilar uchun bunday uslub tartib va intizomni ta’minlovchi omil sifatida ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas. avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar o‘quvchilar nazaridan asosan adolatli va talabchan, ammo emotsional muloqot va do‘stona munosabatlarda past baholangan shaxslar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uslub o‘quv jarayonida tartib va intizomni kuchaytirsa-da, o‘quvchilarning ruhiy qoniqishi va ijobiy emotsional muhitini kamaytirishi mumkin.

O‘quvchilarning fikrlari tahlilida salbiy sifatlar ham qayd etilgan bo‘lib, ularning ko‘rsatkichlari o‘qituvchi shaxsi va uslubiga nisbatan muayyan mulohazalarni ifodalaydi. Bu erda berilgan foizlar - o‘quvchilarning tanlov ulushini ko‘rsatadi, ya‘ni qancha foiz o‘quvchi muayyan uslubdagi o‘qituvchini ana shu sifatga xos deb baholaganini anglatadi.

Birinchi salbiy sifat - “mas‘uliyatsizlik”. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar uchun bu ko‘rsatkich 19,8%, avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar uchun esa 10,5% ni tashkil etdi. Bu holatdan ko‘rinib turibdiki, ayrim o‘quvchilar demokratik uslubda ishlaydigan o‘qituvchilarni, muloqotchan va yordamchi bo‘lishlariga qaramay,

ba‘zida etarlicha qat‘iy va nazoratchi emas, deb qabul qilgan. Shu sababli, ularda “mas‘uliyatsizlik” taassuroti hosil bo‘lishi mumkin. Avtoritar uslubda esa bu ko‘rsatkich nisbatan past, chunki bunday o‘qituvchilar qat‘iyat va talabchanlikka ko‘proq e‘tibor qaratganlaridan, ularni mas‘uliyatsiz deb baholash o‘quvchilar orasida kamroq uchraydi.


Ikkinchi salbiy sifat - “befarqlik”. Avtoritar uslubda bu ko‘rsatkich 12,5%, demokratik uslubda esa 9,9% bo‘lgan. Har ikki uslubda ham bu ko‘rsatkich nisbatan past, ya‘ni o‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘qituvchilarini “befarq” sifatida baholamagan. Biroq avtoritar uslubda bu sifat demokratik uslubga nisbatan biroz yuqoriroq ko‘rsatkichga ega. Buning sababi shundaki, avtoritar o‘qituvchilar ko‘proq talab va intizomga yo‘nalganligi sababli, ayrim o‘quvchilar ularni emotsional jihatdan sovuq yoki o‘quvchi hissiyotlariga kamroq e‘tiborli deb qabul qilishlari mumkin. Salbiy sifatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki uslubda ham “mas‘uliyatsizlik” va “befarqlik” xususiyatlari yuqori baholanmagan, ular faqat ayrim o‘quvchilarning tanlovida qayd etilgan. Demokratik uslubda mas‘uliyatsizlik ko‘rsatkichi yuqoriroq, avtoritar uslubda esa befarqlik ko‘proq qayd etilgan. Bu o‘quvchilarning tanlov foizlari orqali ko‘rsatkichlar turli uslubdagi o‘qituvchilarning afzal va kamchilik tomonlarini ochib berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, o‘quvchilar turli uslubdagi o‘qituvchilar sifatini tanlashda ularning shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga turlicha e‘tibor qaratganlari namoyon bo‘ladi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar o‘quvchilar tomonidan asosan ijobiy emotsional va shaxslararo sifatlar orqali tavsiflangan. Jumladan, “tushunuvchanlik”, “do‘stona munosabat”, “mehribonlik” va “hushmuomalalik” kabi fazilatlar yuqori ulush bilan qayd etilgan. Bu holat demokratik o‘qituvchilarning o‘quvchi shaxsiyatiga yaqinlikni ta’minlashi, sinfda psixologik xavfsizlik va hamkorlik muhitini yarata olishini anglatadi. Bunday sifatlar o‘quvchilarda ijobiy emotsional tajriba uyg‘otib, ularning ta’lim jarayoniga qiziqishini hamda faol ishtirokini kuchaytiradi.

Avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar esa ko‘proq “adolatlilik” va “talabchanlik” bilan tavsiflangan. Bu uslubda tartib-intizom va bilim nazorati ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning fikriga ko‘ra, avtoritar o‘qituvchilarda “do‘stona” yoki “mehribon” munosabatlar kamroq namoyon bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ruhiy masofani kuchaytiradi, muloqotda sovuqlik va formallik taassurotini keltirib chiqarishi mumkin. Salbiy sifatlar tahlil qilinganda esa quyidagi holat kuzatilgan: “mas‘uliyatsizlik” va “befarqlik” kabi jihatlar har ikki uslubda ham qayd etilgan bo‘lsa-da, ular umumiy ulushda nisbatan past darajada uchraydi. Demokratik uslubda “mas‘uliyatsizlik”

ko‘rsatkichi biroz yuqoriroq, avtoritar uslubda esa “befarqlik” nisbatan ko‘proq qayd etilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, har ikki uslubda ham ayrim o‘quvchilar pedagogning faoliyatida muayyan salbiy taassurotlarni ko‘rgan, ammo ular umumiy tendensiyada ustuvor ahamiyat kasb etmaydi.

Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar emotsional qo‘llab-quvvatlash, muloqotchanlik va insonparvarlik jihatidan yuqori baholanadi. Avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar esa adolat va talabchanlikda ustun bo‘lib, lekin emotsional yordam va yaqin munosabatlarda kamroq ko‘rsatkichga ega. Salbiy jihatlar har ikki uslubda mavjud bo‘lsa-da, ular past darajada namoyon bo‘lgan.



	Tushunuvchi	Adolatli	Mehribon	Hushmuomala	Mas’uliyatsiz	Do‘st	Ishonchli	Befarq
Avtoritar	-1,38	-0,35	-2,25	-1,56	2,37	-2,71	-1,45	2,25
Demokratik	0,97	-0,03	-1,02	0,07	1,81	-0,92	0,17	2,41

2.4-rasm. Semantik differensial metodikasi asosida turli uslubdagi o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarining baholanishi

Ch. Osgud semantik differensial metodikasi asosida aniqlangan natijalar tahlili o‘quvchilarning o‘qituvchi shaxsiga nisbatan sub‘ektiv baholarini ochib berdi. M±σ chegaralari orqali har bir sifatning past, o‘rta va yuqori darajada namoyon bo‘lishi aniqlandi, bu esa o‘quvchilarning fikrlari qanchalik uyg‘un yoki tarqoq ekanini ko‘rsatdi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar asosan ijobiy shaxslararo sifatlar bilan tavsiflangan. Masalan, “tushunuvchi” sifati (M= 0,97; σ=0,82) ko‘rsatganidek, ko‘pchilik o‘quvchilar bu fazilatni o‘rta va yuqori darajada qayd etgan. Shu bilan birga, “ishonchli” va “hushmuomala” fazilatlari ham neytraldan yuqoriga yaqin qiymatlar bilan baholanib, o‘quvchilarda pedagogga nisbatan ishonch va muloqotchanlik taassuroti kuchli ekanini ko‘rsatadi. Biroq “mehribon” va “do‘stona” kabi fazilatlarda past qiymatlar ustun bo‘lib, bu demokratik uslubda ham hamisha samimiylik va yaqin munosabat kuchli namoyon bo‘lmasligini anglatadi. Shuningdek, “mas‘uliyatsiz” (M= +1.81; σ=1.08) va

“befarq” (M= +2.41; σ=1.12) kabi salbiy sifatlar yuqori darajada qayd etilgani, ayrim o‘quvchilarda demokratik o‘qituvchilar qat‘iy nazoratdan ko‘ra ortiqcha erkinlikka moyil deb qabul qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Avtoritar uslubda esa asosiy e‘tibor intizom va talabchanlikka qaratilgan. Natijalarda “adolatli” (M= –0.35; σ=0.88) va “tushunuvchi” (M= –1.38; σ=0.95) kabi fazilatlar o‘rta darajadan past baholangan. Bu o‘quvchilarning fikricha, avtoritar o‘qituvchilarda adolat va tushunuvchanlik unchalik kuchli emasligini ko‘rsatadi. Eng past darajalar “mehribon” (M= –2.25; σ=1.02) va “do‘stona” (M= –2.71; σ=1.20) fazilatlarida kuzatilib, bu avtoritar o‘qituvchilarning emotsional yaqinlikdan ko‘ra rasmiylik va nazoratga ko‘proq yo‘nalganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “mas‘uliyatsiz” (M= +2.37; σ=1.15) va “befarq” (M= +2.25; σ=1.05) kabi salbiy sifatlar yuqori baholanib, o‘quvchilarda avtoritar o‘qituvchilarni yordam bermaydigan, qattiqqo‘l va ayrim hollarda ruhiy jihatdan masofa saqlaydi deb qabul qilishadi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilarda empatiya, ishonchlilik va muloqotchanlik yuqori baholangan, ammo ularda nazorat va qat‘iyat etishmasligi, avtoritar uslubda esa aksincha, talabchanlik va intizom ustuvor, lekin insonparvarlik va samimiylik jihatlari past ko‘rsatkichda qolganligini ko‘rsa bo‘ladi. Yuqoridagi natijalardan aytish mumkinki, demokratik uslub – ijobiy emotsional va muloqot sifatlariga boy, ammo ayrim hollarda nazoratsizlik sifatida qabul qilingan. Avtoritar uslub – intizom va talabchanlikda kuchli, ammo o‘quvchilar uni sovuq va kam samimiy deb baholagan. Salbiy sifatlar har ikki uslubda ham qayd etilgan bo‘lsa-da, ularning mazmuniy yo‘nalishi turlicha bo‘lib, demokratikda - mas‘uliyatsizlik, avtoritarda - befarqlikni ko‘rish mumkin.

Semantik differensial metodikasi asosida o‘quvchilarning baholari tahlil qilinganda, turli uslubdagi o‘qituvchilarning iroda omiliga oid xususiyatlari sezilarli farq bilan namoyon bo‘ldi. Avtoritar o‘qituvchilarda “jiddiy”lik fazilati 75,9% bilan yuqori darajada qayd etilgan. Bu o‘quvchilarning ularni intizomli, qat‘iy talab qo‘yadigan va o‘quv jarayoniga jiddiy munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida qabul qilishini ko‘rsatadi. Demokratik uslubda esa bu 50,4% ko‘rsatkich pastroq bo‘lib, o‘quvchilar ularni ayrim hollarda ko‘proq muloqotchan va yumshoq deb baholagan. Demokratik o‘qituvchilarda “e‘tiborli” fazilati eng yuqori 81,8%ko‘rsatkichni olgan. Bu ularning o‘quvchi ehtiyojlari va shaxsiy holatlariga ko‘proq e‘tibor qaratishi bilan bog‘liq. Avtoritar o‘qituvchilar ham bu fazilatda yuqori baholangan 73,0%, ammo ularning e‘tibori ko‘proq nazorat va talabchanlikka yo‘nalgan bo‘lishi mumkin. Avtoritar uslubda “qattiqqo‘l”lik sifati yuqori ko‘rsatkichga etgan 84,6%. Bu ularning talabchanligi, intizomni qattiq saqlashga intilishi va qoidalarga so‘zsiz itoat talab qilishi bilan izohlanadi. Demokratik uslubda esa bu fazilat avtoritarga nisbatan kam qayd etilgan 41,3%, ya‘ni o‘quvchilar ularni ko‘proq muloqotga ochiq

va yumshoq munosabatda bo‘ladi deb qabul qilishgan. Har ikki uslubda ham “talabchan”lik fazilati yuqori baholangan bo‘lib, avtoritar o‘qituvchilarda 84,6%, demokratik uslubda ish olibboruvchi o‘qituvchilarda esa 71,0% ni tashkil qilgan. Bu o‘qituvchi shaxsiyatidagi umumiy talabchanlik o‘quvchilar nazaridan muhimligini ko‘rsatadi. Biroq farq shundaki, avtoritar uslubda talabchanlik ko‘proq intizom va jazo tizimi orqali, demokratik uslubda esa motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash orqali namoyon bo‘ladi. Avtoritar uslubda “asabiy” fazilati 55,7% qayd etilgan bo‘lib, bu o‘quvchilar ularni ko‘p hollarda haddan ortiq qattiqqo‘l va ruhiy bosim ko‘rsatadi deb qabul qilishlari mumkinligini ko‘rsatadi. Demokratik o‘qituvchilarda esa bu ko‘rsatkich 40,4% ni tashkil qilgan, ya‘ni ularda emotsional barqarorlik va muloqotda sabrliroq munosabat seziladi deb aytish mumkin.

Demak, iroda omili tahlilidan avtoritar o‘qituvchilar ko‘proq jiddiy, qattiqqo‘l va talabchan, ammo ayrim hollarda asabiylik orqali ruhiy bosim uyg‘otishi mumkin va demokratik o‘qituvchilar esa e‘tiborli va muloqotchan, ammo ularda jiddiylik va qattiqqo‘llik jihatlari nisbatan sust deyish mumkin. Shu bilan birga, talabchanlik har ikki uslubda ham yuqori baholanib, o‘quvchilar uchun o‘qituvchi shaxsiyatidagi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Rasmda keltirilgan tadqiqot natijalari tahlili avtoritar va demokratik uslubda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini o‘quvchilar qanday qabul qilishini yaqqol namoyon etdi. Birinchi navbatda, avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar jiddiylik jihatidan yuqori baholangan. Bu holat ularning sinfda intizomni ta’minlashga, qoidalarga qat‘iy amal qilishga va tartibni ustuvor deb bilishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar ham jiddiy deb baholangan bo‘lsa-da, o‘quvchilar ularning ko‘proq yumshoq va tushunuvchan tomonlariga e‘tibor qaratganlar. Ikkala uslubda ham e‘tiborlilik yuqori baholangan, ammo demokratik uslubda bu fazilat ustunlik qilgan. Bu esa demokratik o‘qituvchining o‘quvchi uchun faqat bilim beruvchi emas, balki uning ehtiyoj va hissiyotlariga e‘tibor qaratuvchi shaxs sifatida ham qabul qilinishi bilan izohlanadi. Shu orqali o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatida o‘zaro hurmat va ishonch muhiti yaratiladi.

Qattiqqo‘llik ko‘rsatkichida esa keskin farq kuzatildi, ya‘ni avtoritar uslubda bu fazilat eng yuqori darajada qayd etilgan bo‘lsa, demokratik uslubda deyarli uchramaydi. Bu holat pedagogik muloqotdagi asosiy farqni namoyon qiladi: avtoritar o‘qituvchi uchun intizom va nazorat ustuvor bo‘lsa, demokratik o‘qituvchi ko‘proq muloqot va hamkorlikka e‘tibor qaratadi. Talabchanlik har ikki uslubda ham kuchli baholangan, ammo avtoritar uslubda bu ko‘rsatkich biroz yuqoriroq bo‘lib, ko‘proq intizom va qoidalarga yo‘naltirilgan. Demokratik uslubda esa talabchanlik muloqotchanlik bilan uyg‘unlashgan, ya‘ni o‘qituvchi talab qo‘yadi, biroq

o‘quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlarini ham hisobga oladi. Bu o‘quvchida motivatsiya va mas‘uliyat hissini kuchaytiradi.

Qiziq jihati shundaki, avtoritar o‘qituvchilar ko‘proq qattiqqo‘l va talabchan bo‘lishlariga qaramay, ularda asabiylik past ko‘rsatkich bilan qayd etilgan. Demokratik uslubda esa asabiylik biroz yuqoriroq baholangan. Bu holat ehtimol demokratik uslubda muloqot jarayoni faol bo‘lgani uchun, turli vaziyatlarda ruhiy zo‘riqish va asabiylik ko‘proq ko‘zga tashlanishi bilan izohlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning o‘qituvchi shaxsiga nisbatan shakllangan psixosemantik tasavvurlari pedagogik uslubga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilar o‘quvchilar tomonidan ko‘proq tushunuvchan, ishonchli va muloqotga ochiq shaxslar sifatida baholangan bo‘lsa, avtoritar uslubdagi o‘qituvchilar adolatlilik, talabchanlik va intizomni ta’minlash xususiyatlari bilan ajralib turdi. Semantik differensial metodikasi o‘qituvchi shaxsining baholash, iroda va faollik omillari bo‘yicha psixosemantik obrazini aniqlashda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalar ta’lim jarayonida demokratik pedagogik muloqotni rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Roorda D. L. et al. The influence of affective teacher–student relationships on students’ school engagement and achievement: A meta-analytic approach //Review of educational research. – 2011. – T. 81. – №. 4. – C. 493-529.

2.Endedijk H. M. et al. The teacher’s invisible hand: A meta-analysis of the relevance of teacher–student relationship quality for peer relationships and the contribution of student behavior //Review of Educational Research. – 2022. – T. 92. – №. 3. – C. 370-412..

3. Díaz Santana O. D., Cardenal M. E., González-Betancor S. M. Influence of the teacher role on academic performance in primary education //Humanities and Social Sciences Communications. – 2025. – T. 12. – №. 1. – C. 1-15.

4.Korpershoek H., de Boer H., Mouw J. M. An Update of the Meta-Analysis of the Effects of Classroom Management Interventions on Students’ Academic, Behavioral, Social-Emotional, and Motivational Outcomes //Review of Educational Research. – 2025. – C. 00346543251361903.

5.Boer I. et al. Teacher expectations: associations with need supportive teaching and students’ need satisfaction: Boer et al //European Journal of Psychology of Education. – 2025. – T. 40. – №. 3. – C. 77.

NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI BILAN DEPRESSIYA, XAVOTIR VA STRESS O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Kasimova Xulkar Atabayevna
Ma’mun universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD
x.a.kasimova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlil qilingan. K. Riffning «Psixologik farovonlik shkalasi» natijalari asosida o‘zini qabul qilish va hayotiy maqsadlar omillari depressiya bilan, ijobiy munosabatlar va muhitni boshqarish omillari esa xavotir va stress bilan manfiy yo‘nalishda ahamiyatli bog‘langanligi aniqlandi. Natijalar stress va koping nazariyalari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasi asosida talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: psixologik farovonlik, depressiya, xavotir, stress, nogiron farzand, ona, korrelyatsion tahlil.

THE ASSOCIATION BETWEEN PSYCHOLOGICAL WELL-BEING AND DEPRESSION, ANXIETY, AND STRESS IN MOTHERS OF DIFFERENT AGE GROUPS RAISING CHILDREN WITH DISABILITIES

Annotation. The article examines correlations between the psychological well-being of mothers raising children with disabilities and indicators of depression, anxiety, and stress. Self-acceptance and purpose in life were found to negatively correlate with depression, while positive relations and environmental mastery negatively correlated with anxiety and stress.

Keywords: psychological well-being, depression, anxiety, stress, child with disability, mother, correlation analysis.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕПРЕССИИ, ТРЕВОЖНОСТИ И СТРЕССА У МАТЕРЕЙ РАЗЛИЧНЫХ ВОЗРАСТНЫХ ГРУПП, ВОСПИТЫВАЮЩИХ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация. В статье анализируются корреляционные связи между психологическим благополучием матерей, воспитывающих детей с ограниченными возможностями, и показателями депрессии, тревоги и стресса. Установлено, что принятие себя и наличие жизненных целей отрицательно

коррелируют с депрессией, а позитивные отношения и управление средой - с тревогой и стрессом.

Ключевые слова: психологическое благополучие, депрессия, тревога, стресс, ребёнок с инвалидностью, мать, корреляционный анализ.

KIRISH

Nogiron farzand tarbiyasi onadan doimiy mas’uliyat, sabr va ruhiy kuch talab qiladi, bu esa depressiv kayfiyat, xavotir va stress kabi salbiy emotsional holatlarning kuchayishiga zamin yaratishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlarda parvarish yuklamasi bilan stress darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlangan, bu esa mavzuning amaliy dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ona o‘zini qabul qilishi, ijobiy munosabatlarni saqlashi va muhitni boshqara olishi kabi psixologik farovonlik tarkibiy qismlari uning ruhiy bosimlarga nisbatan bardoshliligini kuchaytiruvchi himoya resurslari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bog‘lanishlarning ilmiy jihatdan aniqlanishi nogiron farzandli onalarga psixologik yordam ko‘rsatishning maqsadli yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi K. Riffning «Psixologik farovonlik shkalasi» hamda «Depressiya, xavotir va stress shkalasi» natijalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlarni aniqlash va bu bog‘lanishlarni zamonaviy stress, koping va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash nazariyalari asosida ilmiy talqin qilishdan iborat.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Depressiya, xavotir va stress hodisalarining psixologik farovonlik bilan bog‘liqligini o‘lchashda S.X. Lovibond va P.F. Lovibond tomonidan ishlab chiqilgan «Depressiya, xavotir va stress shkalasi» (DASS) jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan ishonchli vosita hisoblanadi. Mazkur metodika uchta salbiy emotsional holatni bir-biridan aniq farqlab o‘lchash imkonini beradi [1]. K. Riff o‘z tadqiqotlarida psixologik farovonlikning yuqori darajasi shaxsni salbiy emotsional holatlardan butunlay himoya qilmasa-da, ularga nisbatan bardoshlilikni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatgan [2].

R.S. Lazarus va S. Folkmanning stress va kurashish (koping) transaksion nazariyasiga ko‘ra, stress darajasi shaxsning vaziyatni qanday baholashi (kognitiv baholash) hamda unga qarshi qanday resurslarni safarbar eta olishi bilan belgilanadi. Stress obyektiv vaziyatning o‘zidan emas, balki shaxs va muhit o‘rtasidagi nisbatdan kelib chiqadi [3]. Nogiron farzand tarbiyalayotgan ona uchun bunday ichki resurslar qatoriga o‘zini qabul qilish, ijobiy shaxslararo munosabatlar va hayotiy muhitni boshqarish salohiyati kiradi. Rossiyalik psixolog M.S. Golubeva og‘ir sensor nuqsonlari (ko‘rish yoki eshitish) bo‘lgan farzandlarni tarbiyalayotgan ota-onalarning kurashish xulq-atvorini maxsus tadqiq etib, muammoga yo‘naltirilgan faol strategiyalarni qo‘llovchi ota-onalarda stress darajasi va emotsional charchash

sezilarli darajada pastroq ekanligini, aksincha, qochish va inkor etishga asoslangan strategiyalarni qo‘llovchilarda esa depressiv kechinmalar yuqoriroq ekanligini aniqlagan [4]. Bu holat psixologik farovonlik va salbiy emotsional holatlar o‘rtasidagi bog‘lanishni koping strategiyalari orqali tushuntirishga imkon beradi.

Buyuk Britaniyadagi York universitetida S.K. Meysfild tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan yirik miqyosli tadqiqotda nogiron farzandlarni tarbiyalayotgan onalarning jismoniy va ruhiy salomatligi sog‘lom farzandli onalarnikiga nisbatan tizimli ravishda yomonroq ekanligi, bunda ko‘pgina holatlarda depressiya va xavotir alomatlari onalar tomonidan sezilmagan yoki tibbiy yordamga murojaat qilinmagan holda «yashirin» tarzda kechishi aniqlangan [5]. Muallif ta’kidlashicha, bunga onalarning parvarish bilan bog‘liq band vaqti hamda tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi to‘siqlar sabab bo‘ladi. Bu esa depressiya va xavotirni erta aniqlash hamda oldini olishning amaliy ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi.

M. Seligman farovonlikni faqat kasallik yoki simptomlarning yo‘qligi sifatida emas, balki ijobiy funksiyalash holati sifatida talqin qilib, ruhiy salomatlikka «ikki qutbli» (positive va negative continuum) yondashuvni asoslab bergan. Bu nuqtayi nazar depressiya va farovonlikning bir-biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarama-qarshi emas, balki qisman mustaqil o‘lchamlar ekanligini tushunishga yordam beradi [6]. S. Koen va T. Uillsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha klassik tadqiqotida ijtimoiy tayanch stress ta’sirini «buferlash» orqali kamaytirishi ilmiy jihatdan isbotlangan [7], bu esa mazkur tadqiqotdagi ijobiy munosabatlar bilan xavotir o‘rtasidagi manfiy bog‘lanishni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

E. Diener va M. Seligmanning «Beyond Money» tadqiqotida esa moddiy farovonlikning o‘zi ruhiy farovonlikni kafolatlamasligi, balki ijtimoiy munosabatlar va hayotiy mazmun kabi psixologik omillar muhimroq rol o‘ynashi asoslangan [9]. Bu xulosa nogiron farzand tarbiyasi bilan bog‘liq stressni faqat moddiy yordam orqali emas, balki psixologik resurslarni mustahkamlash orqali kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ko‘pchilik xorijiy tadqiqotlar [1, 3, 6, 7] asosan umumiy populyatsiya yoki klinik namunalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, M.S. Golubeva [4] va S.K. Meysfild [5] tadqiqotlari bevosita nogiron farzandli ota-onalar namunasida o‘tkazilgani bilan qimmatlidir. Biroq bu tadqiqotlar ham depressiya, xavotir va stressni psixologik farovonlikning barcha olti tarkibiy qismi bilan bir vaqtda korrelyatsion tahlil qilmagan. Mahalliy psixologiya fanida esa bunday tekshiruvlar hali yetarlicha son jihatidan cheklangan. Bu esa Z. Ibodullaev [8] ta’kidlagan amaliy-psixologik yordam tizimini takomillashtirish zaruratini yanada dolzarblashtiradi. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida quyida keltirilgan tadqiqot tashkil etildi.

Tadqiqotda n = 80 nafar nogiron farzandli ona ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining psixologik farovonligini baholashda K. Riffning «Psixologik farovonlik shkalasi» [2], depressiya, xavotir va stress darajasini aniqlashda esa S.X. Lovibond va P.F. Lovibond tomonidan ishlab chiqilgan «Depressiya, xavotir va stress shkalasi (DASS)» [1] qo‘llanildi. Olingan empirik ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, psixologik farovonlik omillari hamda depressiya, xavotir va stress ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida baholandi. Korrelyatsion tahlil natijalari asosida psixologik farovonlikning tarkibiy omillari bilan salbiy emotsional holatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarning yo‘nalishi va statistik ahamiyatlilik darajasi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval

K. Riffning «Psixologik farovonlik shkalasi» hamda «Depressiya, xavotir va stress shkalasi» o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n = 80)

Omillar	Depressiya	Xavotir	Stress
O‘zini qabul qilish	-0,48**	-0,12	-0,19
Ijobiy munosabatlar	-0,16	-0,33*	-0,11
Avtonomiya	-0,19	-0,16	-0,14
Muhitni boshqarish	-0,15	-0,41**	-0,44**
Hayotiy maqsadlar	-0,43**	-0,18	-0,15
Shaxsiy o‘sish	-0,12	-0,14	-0,10

“O‘zini qabul qilish” bilan “depressiya” o‘rtasida ahamiyatli manfiy bog‘lanish aniqlangan ($r = -0,48$; $p \leq 0,01$): ona o‘z shaxsini qanchalik past baholasa, depressiv kechinmalar shunchalik kuchayadi. Bu holat M. Seligmanning ijobiy funksiyalash konsepsiyasi [5] nuqtayi nazaridan, o‘zini qabul qilishning zaiflashuvi shaxsning o‘z resurslariga ishonchini yo‘qotishi va bu orqali depressiv holatga

moyillikni oshirishi bilan izohlanadi. Xuddi shunday, “hayotiy maqsadlar” bilan “depressiya” o‘rtasida ham ahamiyatli manfiy bog‘lanish qayd etilgan ($r = -0,43$; $p \leq 0,01$): kelajakka aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan onalarda depressiv fon nisbatan pastroq namoyon bo‘ladi. Bu R.S. Lazarus va S. Folkman nazariyasidagi [3] “muammoga yo‘naltirilgan koping” strategiyasining depressiyaga nisbatan himoya vazifasini bajarishi bilan mos keladi.

“Ijobiy munosabatlar” bilan “xavotir” o‘rtasida manfiy bog‘lanish mavjud ($r = -0,33$; $p \leq 0,05$): yaqin insonlar bilan iliq aloqalar onaning ruhiy yuklamasini bo‘lishishga, farzand kelajagi haqidagi bezovtalikni yumshatishga xizmat qiladi. Bu natija S. Koen va T. Uillsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “buferlik gipotezasi” [7] bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tasdiqlanadi: ijtimoiy tayanch mavjud bo‘lgan sharoitda stressor (farzandning nogironligi)ning xavotirga ta’siri kuchsizlanadi. “Muhitni boshqarish” omili esa ikkala salbiy holat bilan ham ahamiyatli manfiy bog‘langan: xavotir bilan ($r = -0,41$; $p \leq 0,01$) va stress bilan ($r = -0,44$; $p \leq 0,01$). Kundalik hayotiy sharoitlarni tartibga sola oladigan onalarda davolanish, reabilitatsiya va oilaviy vazifalarni muvofiqlashtirish jarayoni boshqariladigan tizim sifatida idrok etiladi. Bu esa R.S. Lazarus va S. Folkmanning [3] “kognitiv qayta baholash” mexanizmiga hamda M.S. Golubevaning [4] muammoga yo‘naltirilgan faol koping strategiyalari stress darajasini pasaytirishi haqidagi topilmasiga mos keladi. Natijada vaziyat tahdid emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilinadi.

“Avtonomiya” va “shaxsiy o‘sish” omillari bo‘yicha depressiya, xavotir va stress bilan statistik ahamiyatli bog‘lanish aniqlanmadi ($p > 0,05$). Bu natijani M. Seligmanning [6] farovonlik va salbiy holatlar qisman mustaqil kontinuumlar ekanligi haqidagi qarashi asosida talqin qilish mumkin. Avtonomiya va shaxsiy o‘sish salbiy emotsional holatlarga bevosita emas, balki bilvosita, masalan, o‘zini qabul qilish va muhitni boshqarish orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, S.K. Meysfildning [5] onalar ruhiy holatining ko‘p hollarda “yashirin” kechishi haqidagi topilmasini inobatga olsak, avtonomiya va shaxsiy o‘sishning yuqori darajasi ayrim onalarda haqiqiy ruhiy zo‘riqishni tashqi ko‘rinishda niqoblashi ehtimolini ham hisobga olish lozim.

Olingan natijalar psixologik farovonlikning ayrim tarkibiy qismlari - o‘zini qabul qilish, ijobiy munosabatlar, muhitni boshqarish va hayotiy maqsadlar - nogiron farzandli onalarda depressiya, xavotir va stressga qarshi himoya resursi vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. E. Diener va M. Seligmanning [9] iqtisodiy farovonlik yetarli emasligi haqidagi xulosasiga tayangan holda aytish mumkinki, nogiron farzandli oilalarga ko‘rsatiladigan yordam faqat moddiy yoki tibbiy xarakterda bo‘lmasligi, balki onaning psixologik resurslarini, xususan, o‘zini qabul

qilish va hayotiy maqsadlarni mustahkamlashga ham qaratilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishda faqat salbiy holatlarni bartaraf etishga emas, balki ijobiy psixologik resurslarni mustahkamlashga ham yo‘naltirilgan yondashuvning samaraliroq ekanligini asoslaydi. Bu xulosa mahalliy sharoitda Z. Ibodullaevning [8] amaliy-psixologik yordam mexanizmlariga oid qarashlari, shuningdek, S.K. Meysfildning [5] onalar salomatligini erta monitoring qilish zarurligi haqidagi tavsiyasi bilan ham uyg‘unlashadi.

Shuningdek, S.X. Lovibond va P.F. Lovibondning DASS metodikasi [1] hamda K. Riff shkalasi [2] natijalarining birgalikdagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, nogiron farzandli onalarda depressiya, xavotir va stress alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda kechadi. Bunda muhitni boshqarish omili ikkala salbiy holat - xavotir va stress bilan bir vaqtda bog‘langan yagona “tayanch nuqta” vazifasini bajaradi. Bu holat amaliy psixologik yordamda cheklangan resurslar sharoitida qaysi omilga birinchi navbatda e’tibor qaratish samaraliroq ekanligini aniqlashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, nogiron farzandli onalarda depressiv holatlarning oldini olish uchun o‘zini qabul qilish va hayotiy maqsadlarni mustahkamlashga qaratilgan psixologik mashg‘ulotlar, xavotir va stressni kamaytirish uchun esa S. Koen va T. Uillsning buferlik gipotezasiga [7] muvofiq ijobiy shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish, R.S. Lazarus va S. Folkman modeliga [3] hamda M.S. Golubevaning nazariyalariga [4] asoslangan muammoga yo‘naltirilgan koping ko‘nikmalarini (vaqtni rejalashtirish, yordam manbalaridan foydalanish) shakllantirishga qaratilgan amaliy trening dasturlarini tashkil etish tavsiya etiladi. S.K. Meysfildning [5] tavsiyasiga muvofiq, bunday dasturlarga onalarning o‘z ruhiy va jismoniy holatini muntazam monitoring qilishni o‘rgatuvchi qismni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lovibond S.H., Lovibond P.F. Manual for the Depression Anxiety Stress Scales. 2nd ed. Sydney: Psychology Foundation, 1995.
2. Ryff C.D. Psychological Well-Being in Adult Life // Current Directions in Psychological Science. 1995. Vol. 4(4). P. 99–104.
3. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer, 1984. 445 p.
4. Голубева М.С. Совладающее поведение родителей, воспитывающих детей с тяжелыми сенсорными нарушениями: дис. ... канд. психол. наук: 19.00.13. Кострома: КГУ, 2006. 235 с.

5. Masefield S.C. The Hidden Ill-Health of Mothers of Young Disabled Children: PhD thesis. York: University of York, Health Sciences, 2019. 268 p.

6. Seligman M.E.P. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-Being. New York: Free Press, 2011. 349 p.

7. Cohen S., Wills T.A. Stress, Social Support, and the Buffering Hypothesis // Psychological Bulletin. 1985. Vol. 98(2). P. 310–357.

8. Ибодуллаев З. Тиббиёт психологияси. Тошкент, 2019. 502 б.

9. Diener E., Seligman M.E.P. Beyond Money: Toward an Economy of Well-Being // Psychological Science in the Public Interest. 2004. Vol. 5(1). P. 1–31.

TURLI YOSH DAVRLARIDA PERFEKTSIONIZM VA PROKRASTINATSIYA XUSUSIYATLARINING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna
Renessans ta’lim universiteti
Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi
dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada mukammallikka intilish darajasi bilan prokrastinatsiya, ya’ni vazifalarni asossiz ravishda keyinga surish tendensiyasi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik 1052 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilinadi. Pirson korrelyatsiya tahlili natijalariga ko‘ra, ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, kuchsiz–o‘rtacha darajadagi musbat bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0,287$; $p < 0,001$), bu esa mukammallikka intilish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda prokrastinatsiya darajasi ham nisbatan kuchliroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 8,2\%$) prokrastinatsiyaning umumiy o‘zgaruvchanligida mukammallikka intilishning hissasi cheklanganligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va o‘z-o‘zini to‘sish mexanizmlari nuqtai nazaridan izohlanadi hamda amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi. Tadqiqot O‘zbekiston sharoitida kasbiy jihatdan xilma-xil 1052 nafar respondent ishtirokida amalga oshirilgan bo‘lib, mahalliy psixologiya amaliyoti uchun muhim empirik asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: mukammallikka intilish, prokrastinatsiya, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, korrelyatsion tahlil, psixologik tadqiqot, xatolardan qo‘rqish, o‘z-o‘zini to‘sish.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ОСОБЕННОСТЕЙ ПЕРФЕКЦИОНИЗМА И ПРОКРАСТИНАЦИИ В РАЗЛИЧНЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ

Аннотация. В статье анализируется статистическая взаимосвязь между уровнем стремления к совершенству (перфекционизмом) и прокрастинацией, то есть склонностью необоснованно откладывать выполнение задач, на основе результатов эмпирического исследования с участием 1052 респондентов. Результаты корреляционного анализа Пирсона выявили статистически значимую положительную связь слабой–умеренной силы между двумя переменными ($r = 0,287$; $p < 0,001$), что свидетельствует о несколько более выраженной прокрастинации у лиц с высоким уровнем стремления к совершенству. Коэффициент детерминации ($R^2 = 8,2\%$) показывает, что вклад перфекционизма в общую вариативность прокрастинации является

относительно ограниченным. Полученные результаты интерпретируются в контексте страха неудачи и механизмов самосаботажа, а также сопровождаются практическими рекомендациями. Исследование проведено в условиях Узбекистана на крупной и профессионально разнородной выборке, что формирует важную эмпирическую основу для развития отечественной психологической практики.

Ключевые слова: перфекционизм, прокрастинация, страх неудачи, корреляционный анализ, психологическое исследование, страх ошибок, самосаботаж.

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE CHARACTERISTICS OF PERFECTIONISM AND PROCRASTINATION ACROSS DIFFERENT AGE PERIODS

Abstract. This article examines the statistical relationship between the level of perfectionism and procrastination, defined as the tendency to unnecessarily delay task completion, based on the results of an empirical study involving 1,052 respondents. Pearson's correlation analysis revealed a statistically significant positive relationship of weak-to-moderate strength between the two variables ($r = 0.287$, $p < 0.001$), indicating that individuals with higher levels of perfectionism tend to exhibit slightly higher levels of procrastination. The coefficient of determination ($R^2 = 8.2\%$) suggests that perfectionism explains only a limited proportion of the overall variance in procrastination. The findings are interpreted within the framework of fear of failure and self-handicapping mechanisms and are complemented by practical recommendations. Conducted in Uzbekistan using a large and professionally diverse sample, the study provides an important empirical foundation for the development of psychological research and practice in the local context.

Keywords: perfectionism, procrastination, fear of failure, correlation analysis, psychological research, fear of mistakes, self-handicapping.

KIRISH

Prokrastinatsiya - zarur va muhim vazifalarni ongli ravishda, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilgan holda keyinga surish xulq-atvori bo‘lib, u shaxsning ta’lim, kasbiy va shaxsiy hayotidagi samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ilk qarashda mukammallikka intilish va prokrastinatsiya bir-biriga zid tushunchalardek tuyulishi mumkin: birinchisi harakatga undasa, ikkinchisi harakatni kechiktiradi. Biroq chuqurroq tahlil shuni ko‘rsatadiki, mukammallikka intiluvchi shaxslarda “mukammal

boshlash” yoki “mukammal bajarish” imkoniyati bo‘lmaganda, vazifani umuman boshlamaslikni afzal ko‘rish tendensiyasi kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi - mukammallikka intilish darajasi bilan prokrastinatsiya darajasi o‘rtasida statistik bog‘liqlik mavjudligini aniqlash va uning kuchini son jihatdan baholashdir. Tadqiqot 1052 nafar respondentni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli empirik ma’lumotlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot vazifalari: ikki o‘zgaruvchining tavsifiy statistik ko‘rsatkichlarini aniqlash; ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi va kuchini Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali hisoblash; olingan natijalarni “muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish” va o‘zini o‘zi tartibga solish nazariyalari kontekstida sharhlash.

Tadqiqot gipotezasi: mukammallikka intilish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda prokrastinatsiya darajasi ham nisbatan yuqori bo‘ladi, ya’ni ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli musbat bog‘liqlik mavjud, garchi bu bog‘liqlik ilk qarashda kutilganidek intuitiv bo‘lmasa-da. Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, mukammallikka intilish va prokrastinatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik G‘arb adabiyotida asosan talabalar namunasida o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida keng yosh oralig‘ini va besh xil kasb sohasini qamrab olgan holda olib borilgan, bu esa natijalarning kengroq populyatsiyaga tatbiq etilishi imkoniyatini oshiradi.

Prokrastinatsiya ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning akademik natijalariga, kasbiy muhitda esa loyihalarning o‘z vaqtida bajarilishiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mukammallikka intiluvchi shaxslarda ushbu xulq-atvorning kuchayishi ularning nafaqat samaradorligiga, balki hissiy holatiga ham (aybdorlik, uyat hissi) ta’sir ko‘rsatadi. Bunday shaxslar ko‘pincha o‘zlarining prokrastinatsiya qilishlarini yana bir “muvaffaqiyatsizlik” sifatida qabul qiladilar, bu esa ularning umumiy o‘zini o‘zi tanqid qilish siklini yanada chuqurlashtiradi.

Zamonaviy raqamli muhitda diqqatni chalg‘ituvchi omillarning ko‘payishi prokrastinatsiya muammosini yanada dolzarb qilmoqda. Mukammallikka intilish bilan bog‘liq prokrastinatsiyaning o‘ziga xos mexanizmlarini tushunish samarali profilaktika va aralashuv strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur. Kasbiy sohada muddatlarni buzish va vazifalarni oxirgi daqiqada bajarish natijada ish sifatiga ham, xodimning obro‘siga ham putur yetkazishi mumkin. Mukammallikka intiluvchi xodimlarda bu holat ayniqsa keskin ziddiyatli tarzda namoyon bo‘ladi: ular sifatga alohida ahamiyat berishlariga qaramay, aynan shu sifatga bo‘lgan haddan tashqari talab tufayli vazifani boshlashni kechiktiradilar. Bundan tashqari, prokrastinatsiya bilan bog‘liq surunkali aybdorlik va uyat hissi shaxsning umumiy hissiy farovonligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida yanada ko‘proq prokrastinatsiya qilishga olib keladigan salbiy aylanma siklni yaratadi. Ushbu siklni tushunish va uni uzish

yo‘llarini topish zamonaviy amaliy psixologiya uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mukammallikka intilish va prokrastinatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik “muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish” modeli orqali izohlanadi: agar shaxs vazifani mukammal bajara olmasligidan qo‘rqsa, u umuman boshlamaslikni afzal ko‘rishi mumkin, chunki boshlamaslik “men harakat qilmadim” degan izohni saqlab qolish imkonini beradi, bu esa “men harakat qildim, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradim” degan xulosadan ko‘ra kamroq og‘riqli. Ushbu mexanizm atributsiya nazariyasi nuqtai nazaridan ham izohlanadi: shaxslar muvaffaqiyatsizlikni o‘z qobiliyatiga emas, balki tashqi omillarga (vaqt yetishmovchiligi, sharoit) bog‘lashni afzal ko‘radilar, chunki bu ularning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ijobiy tasavvurini saqlab qolish imkonini beradi.

Sirois va Pychylning tadqiqotlariga ko‘ra, prokrastinatsiya ko‘pincha vaqtni boshqarish muammosi emas, balki hissiy tartibga solish muammosi sifatida qaraladi: shaxslar vazifa bilan bog‘liq salbiy his-tuyg‘ularni (xavotir, tanqidiy o‘z-o‘zini baholash) vaqtincha yumshatish uchun vazifani kechiktiradilar, garchi bu strategiya uzoq muddatda muammoni yanada kuchaytirsa ham. Ushbu nazariyaga ko‘ra, prokrastinatsiya “hozirgi men” bilan “kelajakdagi men” o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi: hozirgi men vazifadan qochish orqali darhol yengillik topadi, kelajakdagi men esa muddat yaqinlashganda yanada kuchliroq stress va bosimni boshdan kechiradi.

Frost va hamkasblarining ko‘p o‘lchovli modelida “harakatlarga shubha bilan qarash” o‘lchovi prokrastinatsiya bilan eng kuchli bog‘liq o‘lchov sifatida aniqlangan: shaxs o‘z harakatlarining to‘g‘riligiga shubha qilganda, u qaror qabul qilish va harakatni boshlashni tinimsiz kechiktiradi. Ushbu o‘lchov, aslida, mukammallikka intilishning axborotni qayta ishlash jarayoniga bevosita ta’sirini aks ettiradi: shaxs vazifani boshlashdan oldin barcha mumkin bo‘lgan yechimlarni “mukammal” tarzda baholashga urinib, bu jarayonning o‘zida uzoq vaqt sarflaydi.

Shu bilan birga, Stoeber va Ottoning intilishlar–tashvishlar modeliga ko‘ra, perfektsionistik tashvishlar prokrastinatsiya bilan kuchli bog‘liq bo‘lsa, sof perfektsionistik intilishlar, aksincha, ichki motivatsiya va o‘z vaqtida harakat qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa mukammallikka intilishning ikki tomonlama tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu farq amaliyotda katta ahamiyatga ega, chunki u mukammallikka intilishning o‘zini emas, balki uning qaysi komponenti ustunlik qilishini aniqlash orqali prokrastinatsiya xavfini oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Klinik va maslahat psixologiyasi sohasidagi mutaxassislar shuni ta’kidlaydilarki, mukammallikka intiluvchi prokrastinatorlar bilan ishlashda ularning “hammasi yoki hech narsa” tafakkur uslubini yumshatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday shaxslar ko‘pincha vazifani yoki mukammal, yoki umuman bajarmaslik variantlaridan birini tanlaydilar, oraliq, “yetarlicha yaxshi” variantni ko‘rmaydilar. Klinik kuzatuvlar shuni ham ko‘rsatadiki, mukammallikka intiluvchi prokrastinatorlar ko‘pincha “oxirgi daqiqa” strategiyasidan foydalanadilar: vaqt taqchilligi ularga o‘z ishining nomukammalligini vaqt yetishmovchiligi bilan izohlash imkonini beradi, bu esa ularning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan real bahosini ushbu tashqi omil ortiga yashirish imkonini yaratadi. Ushbu strategiya psixologik adabiyotda “o‘z-o‘zini to‘sish” deb ataladi: shaxs ongli yoki ongsiz ravishda o‘z muvaffaqiyatiga to‘siq yaratadi, chunki bu holda muvaffaqiyatsizlik shaxsning haqiqiy qobiliyati emas, balki tashqi to‘siq (vaqt yetishmovchiligi) bilan izohlanishi mumkin. Bu esa shaxsning o‘z-o‘zini qadrlashini vaqtincha himoya qilsa-da, uzoq muddatda uning haqiqiy salohiyatini namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi.

Tadqiqotda 1052 nafar respondent ishtirok etdi (530 nafar ayol, 522 nafar erkak), ular besh yosh davri va besh xil kasb sohasi (psixolog, pedagog, dasturchi, hamshira, sotuvchi) vakillaridan iborat edi.

Ma’lumotlarni to‘plash uchun “Mukammallikka intilish” (0-15 ball) va “Prokrastinatsiya” (15–75 ball) test-so‘rovnomalaridan foydalanildi. So‘rovnoma respondentlarning demografik ma’lumotlarini ham o‘z ichiga olgan yaxlit batareya ko‘rinishida tashkil etilgan edi. Olingan ma’lumotlar statistik dastur yordamida qayta ishlandi: tavsifiy statistika hisoblandi, ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali aniqlandi, natijaning ahamiyatliligi t-taqsimot asosida tekshirildi (erkinlik darajasi = 1050, $p < 0,05$). Barcha respondentlardan ma’lumotlantirilgan rozilik olindi va ma’lumotlar anonim tarzda qayta ishlandi. So‘rovnoma ishtirokchilarga ixtiyoriy asosda taqdim etildi. Ular istalgan vaqtda tadqiqotdan chetlashish huquqiga ega ekanliklari haqida oldindan xabardor qilindi. Tadqiqot davomida yig‘ilgan barcha ma’lumotlar faqat umumlashtirilgan ilmiy tahlil uchun ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval

Tavsifiy statistika

Ko‘rsatkich	O‘rtacha (M)	Standart chetlanish (SD)
Mukammallikka intilish darajasi	7.49	2.51
Prokrastinatsiya	45	9.99

Tavsifiy statistik tahlil respondentlarning mukammallikka intilish darajasi o‘rtacha 7,49 ball (SD = 2,51), prokrastinatsiya ko‘rsatkichi esa o‘rtacha 45,00 ball

(SD = 9,99) atrofida joylashganini ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkich shkalaning o‘rtadan yuqori darajasiga to‘g‘ri keladi.

2-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari

N	Pirson r	p qiymati	R^2 (%)
1052	0.287	p < 0,001	8.2%

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, mukammallikka intilish darajasi bilan prokrastinatsiya o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, musbat, kuchsiz-o‘rtacha darajadagi bog‘liqlik aniqlandi (r = 0,287; p < 0,001). Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 = 8,2%) shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiyaning umumiy o‘zgaruvchanligining taxminan 8 foizi mukammallikka intilish darajasi bilan izohlanadi.

Kohenning mezonlariga ko‘ra, r = 0,287 qiymati kuchsiz va o‘rtacha bog‘liqlik oralig‘ining chegarasida joylashgan bo‘lib, bu ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, biroq amaliy jihatdan o‘rtacha darajadagi bog‘liqlik mavjudligini bildiradi.

Namunaning katta hajmi (N = 1052) tufayli ushbu natija yuqori ishonchlilik darajasiga ega bo‘lib, mukammallikka intilishni prokrastinatsiyaning ma’lum darajadagi, biroq yagona bo‘lmagan omillaridan biri sifatida ko‘rish uchun asos yaratadi.

Ikkala o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymatlari (mukammallikka intilish uchun 7,49 ball 0–15 oralig‘ida, prokrastinatsiya uchun 45,00 ball 15-75 oralig‘ida) namunaning prokrastinatsiyaga nisbatan o‘rtadan yuqoriroq moyillikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda vazifalarni kechiktirish xulq-atvorining keng tarqalganligidan dalolat berishi mumkin.

Standart chetlanish qiymatlari (mukammallikka intilish uchun SD = 2,51, prokrastinatsiya uchun SD = 9,99) namuna ichida individual farqlarning sezilarli ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa ayrim respondentlarda prokrastinatsiya darajasi juda past, boshqalarida esa juda yuqori bo‘lishi mumkinligini bildiradi va ushbu farqlarning sabablarini kelgusi tadqiqotlarda chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar mukammallikka intilish va prokrastinatsiya o‘rtasidagi, ilk qarashda paradoksal ko‘rinuvchi bog‘liqlikni tasdiqlaydi: yuqori standartlarga intiluvchi shaxslar, aksincha, vazifalarni tezroq emas, balki kechroq boshlash tendensiyasiga ega bo‘lishlari mumkin. Bu natija “muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish” modeli orqali mantiqan izohlanadi: vazifani boshlamaslik mukammal bo‘lmagan natijadan himoya vositasi sifatida xizmat qiladi. Bog‘liqlikning kuchsiz-o‘rtacha darajada bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, mukammallikka intilishning barcha turlari ham

prokrastinatsiya bilan bir xil darajada bog‘liq emas. Perfektsionistik tashvishlar (xatolardan qo‘rqish, harakatlarga shubha) prokrastinatsiya bilan kuchliroq bog‘liq bo‘lsa, sof perfektsionistik intilishlar, aksincha, ichki motivatsiya orqali o‘z vaqtida harakat qilishga undashi mumkin. Bu ikkilanish mukammallikka intilishning nima uchun ayrim shaxslarda yuqori samaradorlik, boshqalarida esa surunkali kechiktirish bilan bog‘liq bo‘lishini izohlaydi. Farq ko‘pincha standartlarga qanday hissiy munosabatda bo‘lishda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, prokrastinatsiyani faqat mukammallikka intilish orqali izohlash yetarli emas. Bu hodisaning kelib chiqishida hissiy tartibga solish ko‘nikmalari, o‘zini o‘zi tartibga solish darajasi va vazifaning shaxs uchun ahamiyati kabi omillar ham muhim rol o‘ynashi mumkin. Ba’zi tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, vazifaning shaxsiy qiziqishga mos kelishi prokrastinatsiya darajasini mukammallikka intilishdan ko‘ra kuchliroq bashorat qiladi. Bu esa motivatsiyaning manbai (ichki yoki tashqi) alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Amaliy nuqtai nazardan, ushbu natija an’anaviy vaqtni boshqarish treninglari prokrastinatsiyani to‘liq hal qila olmasligini ko‘rsatadi, chunki agar prokrastinatsiyaning ildizi hissiy (muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish) bo‘lsa, faqat texnik vaqtni boshqarish usullari yetarli bo‘lmaydi. Hissiy tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Namunaning kasbiy va yosh jihatidan xilma-xilligi natijalarning kengroq populyatsiyaga tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq ijodiy natijaga yo‘naltirilgan kasb egalarida (dasturchi, pedagog) prokrastinatsiyaning mukammallikka intilish bilan bog‘liqligi, rutin vazifalarni bajaruvchi kasb egalariga (sotuvchi, hamshira) qaraganda kuchliroq bo‘lishi mumkinligini alohida hisobga olish lozim. Tadqiqotning kesim (ko‘ndalang) xarakterda ekanligi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga imkon bermaydi. Shu sababli kelgusida kundalik kuzatuv (diary study) usuli orqali mukammallikka intilish, hissiy holat va prokrastinatsiya o‘rtasidagi kunlik dinamikani o‘rganish tavsiya etiladi.

Individual maslahat berish jarayonida mutaxassislar mijozlarga vazifani “mukammal” emas, balki “yetarlicha yaxshi” bajarish tamoyilini qabul qilishga yordam beruvchi kognitiv-xulqiy texnikalardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Bunday texnikalar orasida “ikkilamchi tafakkur”ni yumshatishga qaratilgan mashqlar va vazifani bajarishning turli darajalarini (masalan, 70%, 85%, 100%) ongli ravishda belgilash usullari alohida samarali hisoblanadi.

Ta’lim va kasbiy muassasalarda katta vazifalarni kichik, boshqarish mumkin bo‘lgan qismlarga bo‘lish strategiyasini o‘rgatish mukammallikka intiluvchi shaxslarning vazifani boshlashdan oldingi qo‘rquvini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Bunday yondashuv “katta va qo‘rqinchli” vazifani bir qator kichik, erishish

mumkin bo‘lgan maqsadlarga aylantiradi, bu esa har bir kichik qadamda muvaffaqiyat hissini orttirish orqali umumiy motivatsiyani oshiradi.

Hissiy tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, xususan, vazifa bilan bog‘liq xavotirni boshqarish texnikalari prokrastinatsiyaning hissiy ildizlariga ta’sir ko‘rsatish orqali uzoq muddatli natija berishi mumkin.

Kasbiy tashkilotlarda oraliq muddatlar (milestones) va muntazam nazorat nuqtalarini joriy etish xodimlarning vazifani bir yo‘la “mukammal” bajarish o‘rniga bosqichma-bosqich, kichik qadamlar bilan yakunlashiga yordam beradi. Bu esa prokrastinatsiya ehtimolini kamaytiradi. Rahbarlar, shuningdek, xodimlarning jarayondagi kichik yutuqlarini tan olish va rag‘batlantirish orqali ularning ish jarayonidan qoniqish hissini oshirishlari mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot mukammallikka intilish darajasi bilan prokrastinatsiya o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, kuchsiz-o‘rtacha darajadagi musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($r = 0,287$; $p < 0,001$; $R^2 = 8,2\%$). Bu natija mukammallikka intilish va prokrastinatsiyaning “muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish” umumiy mexanizmi orqali qisman bog‘liq bo‘lishini, biroq bu bog‘liqlikning mutlaq emasligini ko‘rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda perfektsionistik intilishlar va tashvishlarning prokrastinatsiya bilan alohida-alohida bog‘liqligini o‘rganish tavsiya etiladi.

Umumiy xulosa sifatida, olingan empirik dalillar mukammallikka intilish va prokrastinatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni O‘zbekiston sharoitida son jihatidan tasdiqlagani uchun mahalliy psixologiya amaliyoti uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyotchilar prokrastinatsiya bilan ishlashda faqat tashqi, xulq-atvorga oid strategiyalarga emas, balki uning ichki, hissiy sabablariga ham e’tibor qaratishlari zarur. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu bog‘liqlikni kasb va yosh guruhlari kesimida, shuningdek, kundalik kuzatuv usullari orqali chuqurroq o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sirois F. M., & Pychyl T. A. Procrastination and the priority of short-term mood regulation: Consequences for future self. Social and Personality Psychology Compass, 7(2), 2013. 115-127.
2. Frost R. O., Marten P., Lahart C., & Rosenblate R. The dimensions of perfectionism. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 1990. 449-468.
3. Stoeber J., & Otto K. Positive conceptions of perfectionism: Approaches, evidence, challenges. Personality and Social Psychology Review, 10(4), 2006. 295-319.
4. Flett G. L., Blankstein K. R., & Hewitt P. L. Multidimensional Models of Perfectionism and Procrastination: Seeking Determinants of Both. Springer. 2016.

5. Hewitt P. L., & Flett G. L. Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 1991. 456-470.

6. Steel P. The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure. Psychological Bulletin, 133(1), 2007.65-94.

7. Zhang Y., Dong S., Fang W., Chai X., & Mei J. The chain mediating effect of negative perfectionism, fear of failure and ego depletion between parenting style and procrastination. Frontiers in Psychology, 13, 929683. 2022.

8. Ferrari J. R. Self-handicapping by procrastinators: Protecting self-esteem, social-esteem, or both? Journal of Research in Personality, 25(3), 1991. 245-261.

9. Solomon L. J., & Rothblum E. D. Academic procrastination: Frequency and cognitive-behavioral correlates. Journal of Counseling Psychology, 31(4), 1984. 503-509.

SHAXSDA IMPOSTER SINDROMINING INTROVERSIYA, EKSTROVERSIYA, NEVROTIZM VA IJTIMOIY TAQQOSLASH BILAN BOG‘LIQLIGI

Yuldasheva Nilufarxon Sherqo‘zi qizi
Renessans ta’lim universiteti
Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrasi
v.b dotsenti, PhD
e-mail: nilukhanscience@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsda imposter sindromining introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi bilan o‘zaro aloqadorligi empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 1605 nafar respondent ishtirok etgan bo‘lib, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil asosida aniqlangan. Natijalarga ko‘ra, imposter sindromi introversiya bilan manfiy, ekstroversiya, nevrotizm va ijtimoiy taqqoslash darajasi bilan esa musbat bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Ayniqsa, imposter sindromi bilan shaxsning o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligi qayd etilgan. Ushbu holat shaxsning ijtimoiy baholanishga sezgirligi, o‘z yutuqlarini yetarli darajada qadrlamasligi hamda o‘z kompetentligiga nisbatan shubha bilan qarashi imposter sindromining kuchayishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari imposter sindromining shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: imposter sindromi, introversiya, ekstroversiya, nevrotizm, ijtimoiy taqqoslash, shaxs xususiyatlari, korrelyatsion tahlil, psixologik holat, o‘zini baholash, kompetentlik, ijtimoiy baholanish, shaxs psixologiyasi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ СИНДРОМА САМОЗВАНЦА С ИНТРОВЕРСИЕЙ, ЭКСТРАВЕРСИЕЙ, НЕЙРОТИЗМОМ И СОЦИАЛЬНЫМ СРАВНЕНИЕМ У ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье эмпирически анализируется взаимосвязь синдрома самозванца с интроверсией, экстраверсией, невротизмом и уровнем социального сравнения личности. В исследовании приняли участие 1605 респондентов, а взаимосвязи между изучаемыми показателями были определены с использованием корреляционного анализа. Согласно полученным результатам, синдром самозванца имеет отрицательную связь с интроверсией и положительную связь с экстраверсией, невротизмом и

уровнем социального сравнения. Особо значимая положительная корреляция была выявлена между синдромом самозванца и склонностью личности сравнивать себя с другими. Это свидетельствует о том, что повышенная чувствительность к социальной оценке, недооценка собственных достижений и сомнение в собственной компетентности способствуют усилению проявлений синдрома самозванца. Полученные результаты позволяют глубже понять психологические механизмы, лежащие в основе проявления синдрома самозванца в структуре личностных особенностей.

Ключевые слова: синдром самозванца, интроверсия, экстраверсия, невротизм, социальное сравнение, личностные особенности, корреляционный анализ, психологическое состояние, самооценка, компетентность, социальная оценка, психология личности.

THE RELATIONSHIP OF IMPOSTER SYNDROME WITH INTROVERSION, EXTRAVERSION, NEUROTICISM, AND SOCIAL COMPARISON IN PERSONALITY

Annotation. This article empirically examines the relationship between impostor syndrome and introversion, extraversion, neuroticism, and the level of social comparison. The study involved 1,605 respondents, and the relationships among the variables were identified using correlation analysis. The findings revealed that impostor syndrome was negatively associated with introversion and positively associated with extraversion, neuroticism, and the level of social comparison. In particular, a strong positive correlation was found between impostor syndrome and individuals' tendency to compare themselves with others. These findings suggest that heightened sensitivity to social evaluation, underestimation of one's own achievements, and doubts about one's competence contribute to stronger manifestations of impostor syndrome. The results provide a deeper understanding of the psychological mechanisms underlying impostor syndrome and its relationship with personality traits.

Keywords: impostor syndrome, introversion, extraversion, neuroticism, social comparison, personality traits, correlation analysis, psychological state, self-esteem, competence, social evaluation, personality psychology.

KIRISH

Bugungi kunda shaxsning o‘z imkoniyatlarini baholashi, muvaffaqiyatga munosabati, ijtimoiy muhitdagi o‘rni va o‘zini boshqalar bilan taqqoslash xususiyatlari psixologiya fanida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda raqobatning kuchayishi, ijtimoiy

baholanishga bo‘lgan sezgirlikning ortishi, shaxsiy yutuqlarni doimiy ravishda boshqalarning natijalari bilan solishtirish tendensiyasi insonning o‘ziga nisbatan ishonchi, emotsional barqarorligi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda shaxs o‘z muvaffaqiyatlarini yetarli darajada qadrlamasligi, erishilgan natijalarni tashqi omillar, tasodif yoki boshqalarning yordami bilan izohlashi, o‘zini esa yetarlicha bilimli va kompetent emas deb his qilishi mumkin. Mazkur holat psixologik adabiyotlarda “imposter sindromi” tushunchasi orqali izohlanadi.

Imposter sindromi shaxsning real yutuqlari mavjud bo‘lishiga qaramay, o‘z muvaffaqiyatlarini ichki qobiliyat va salohiyat natijasi sifatida qabul qila olmasligi, o‘zini “yetarlicha munosib emas” deb his qilishi hamda atrofdagilar tomonidan fosh etilishidan xavotirlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sindrom shaxsda o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, ichki zo‘riqish, xavotir, o‘zini doimiy nazorat qilish, haddan tashqari mas’uliyatni his etish va ijtimoiy baholanishdan qo‘rqish kabi psixologik holatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, yuqori natijalarga erishgan, biroq o‘z yutuqlarini ichki jihatdan qabul qilishda qiyinchilik sezadigan shaxslarda imposter sindromi kuchliroq ifodalanadi.

Shaxs psixologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan imposter sindromining introversiya, ekstroversiya va nevrotizm bilan bog‘liqligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Introversiya shaxsning ichki kechinmalar, mustaqil fikrlash va individual faoliyatga ko‘proq yo‘naltirilganligini ifodalasa, ekstroversiya ijtimoiy faollik, muloqotga ochiqlik va tashqi muhit bilan faol aloqadorlikni bildiradi. Nevrotizm esa emotsional beqarorlik, xavotirga moyillik, stressga sezuvchanlik va salbiy kechinmalarni kuchliroq boshdan kechirish bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar imposter sindromining shakllanishi va namoyon bo‘lishida turlicha psixologik mexanizmlar orqali ishtirok etishi mumkin.

Shuningdek, shaxsning o‘zini boshqalar bilan taqqoslash darajasi imposter sindromi bilan chambarchas bog‘liq psixologik omillardan biridir. Inson o‘z yutuqlari, imkoniyatlari, bilim va kompetensiyasini boshqalarning natijalari bilan solishtirganda, ko‘pincha o‘zini past baholash, muvaffaqiyatlarini inkor etish yoki o‘z salohiyatiga shubha bilan qarash holatlari yuzaga keladi. Ayniqsa, ijtimoiy taqqoslash salbiy yo‘nalishda kechganda, shaxs o‘zini boshqalardan kamroq muvaffaqiyatli, kamroq bilimli yoki yetarlicha layoqatli emas deb qabul qilishi mumkin. Bu esa imposter sindromining kuchayishiga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotda imposter sindromining introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi bilan o‘zaro aloqadorligi empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, imposter sindromi shaxsning ayrim individual-psixologik xususiyatlari bilan

statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega. Xususan, introversiya bilan manfiy, ekstroversiya, nevrotizm va ijtimoiy taqqoslash darajasi bilan esa musbat korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. Bu esa imposter sindromini faqat shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchsizligi bilan emas, balki uning ijtimoiy muhitni idrok etishi, boshqalar bilan munosabatga kirishishi, emotsional barqarorligi va o‘zini baholash mexanizmlari bilan ham bog‘liq murakkab psixologik hodisa sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, imposter sindromini shaxs tipologik xususiyatlari, nevrotik kechinmalar va ijtimoiy taqqoslash jarayonlari bilan bog‘liq holda tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki mazkur sindromning psixologik omillarini aniqlash shaxsda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ijtimoiy baholanishga nisbatan sog‘lom munosabatni shakllantirish, o‘z yutuqlarini adekvat qabul qilish hamda psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Imposter sindromi muammosi psixologiya fanida dastlab klinik kuzatuvlar asosida shakllangan bo‘lib, mazkur tushuncha P. Klans va S. Ayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning 1978-yilda chop etilgan “The Impostor Phenomenon in High Achieving Women: Dynamics and Therapeutic Intervention” nomli tadqiqotida yuqori natijalarga erishgan ayollarda o‘z muvaffaqiyatlarini shaxsiy qobiliyat, bilim va mehnat natijasi sifatida qabul qila olmaslik, aksincha, uni omad, tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlash holatlari tahlil qilingan. Mualliflar imposter fenomenini “intellektual soxtalik hissi” sifatida izohlab, bunday shaxslar real yutuqlarga ega bo‘lishiga qaramay, o‘zlarini yetarlicha kompetent deb his qilmasliklari va atrofdagilar tomonidan “fosh etilish”dan qo‘rqishlarini ta’kidlaganlar.

P. Klans keyingi tadqiqotlarida imposter sindromini o‘lchashga mo‘ljallangan maxsus psixodiagnostik vosita - Clance Impostor Phenomenon Scale metodikasini ishlab chiqdi. Ushbu shkala imposter sindromining asosiy belgilari, ya’ni o‘z muvaffaqiyatini inkor etish, o‘zini “aldovchi” sifatida his qilish, yuqori natijalarga qaramay ichki ishonchsizlikni boshdan kechirish va muvaffaqiyatni tashqi omillar bilan bog‘lash kabi jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi. S. Krisman va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Clance Impostor Phenomenon Scale metodikasining psixometrik xususiyatlari tekshirilib, mazkur shkala imposter fenomenini aniqlashda ishonchli diagnostik vosita sifatida baholangan.

Imposter sindromini o‘rganishda J. Sakulku va J. Alexander tomonidan amalga oshirilgan nazariy sharh ham muhim o‘rin tutadi. Mualliflar imposter fenomenining kelib chiqishi, uning shaxs psixologik salomatligi, xavotir, depressiv

kechinmalar, o‘zini past baholash va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq jihatlarini umumlashtirganlar. Ularning fikricha, imposter sindromi shaxsning faqatgina o‘ziga ishonchsizligi bilan emas, balki muvaffaqiyatni qabul qilishdagi qiyinchilik, ijtimoiy baholanishga sezgirlik va ichki tanqidchanlik bilan ham bog‘liq murakkab psixologik hodisadir.

Imposter sindromi va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etishda N. Bernard, S. Dollinger va N. Ramaniahning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular imposter fenomenini “Katta beshlik” shaxs omillari bilan bog‘liq holda o‘rganganlar. Tadqiqotda imposter sindromining, ayniqsa, nevrotizm bilan yaqin aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Nevrotizm darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda xavotir, o‘zidan qoniqmaslik, tanqidga sezgirlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va o‘z kompetentligiga shubha bilan qarash kuchliroq namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat imposter sindromining emotsional beqarorlik va salbiy o‘zini baholash bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

S. Ross, K. Stewart va M. Sinacore tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda imposter fenomeni yutuqqa erishish motivatsiyasi, raqobatga munosabat, xavotir va shaxsning besh omilli modeli bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Mualliflar imposter sindromiga ega shaxslarda o‘zini himoyalash strategiyalari, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, o‘z natijalarini yetarli deb qabul qilmaslik va ichki zo‘riqish kuchli bo‘lishini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari imposter sindromining oddiy o‘ziga ishonchsizlik emas, balki yutuq, baholanish va shaxsiy kompetentlikni idrok etish bilan bog‘liq murakkab psixologik tuzilma ekanligini asoslaydi.

T. Thompson, P. Foreman va F. Martin imposter qo‘rquvlari bilan perfektsionistik xatodan qo‘rqish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganlar. Ularning tadqiqotida imposter sindromiga ega shaxslar muvaffaqiyatli bo‘lishiga qaramay, xatoga yo‘l qo‘yishdan kuchli xavotirlanishi, o‘z faoliyati ustidan nazoratni yetarli deb his qilmasligi va ko‘proq salbiy emotsional holatlarni boshdan kechirishi ko‘rsatilgan. Bu natijalar imposter sindromi nevrotizm, xavotir va perfektsionistik talabchanlik bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

J. Vergauwe, B. Wille, M. Feys, F. De Fruyt va F. Anseel tomonidan 2015-yilda amalga oshirilgan tadqiqot imposter fenomenining shaxs xususiyatlari va ish faoliyati kontekstidagi ahamiyatini ochib bergan. Mualliflar imposter sindromini “fosh etilishdan qo‘rqish” bilan bog‘liq shaxsga xos tendensiya sifatida tahlil qilganlar. Tadqiqotda imposter sindromi shaxsning individual xususiyatlari, ayniqsa nevrotizm, o‘ziga ishonch, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ishga qoniqish va tashkilotga sodiqlik kabi omillar bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Ijtimoiy taqqoslash masalasida L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasi mazkur mavzuning asosiy nazariy manbalaridan biri hisoblanadi.

Festingerga ko‘ra, insonlar o‘z qobiliyatlari, fikrlari va yutuqlarini baholashda ko‘pincha boshqalar bilan solishtirish mexanizmidan foydalanadilar. Bu jarayon shaxsning o‘zini anglashida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, doimiy va salbiy yo‘nalishdagi taqqoslash o‘zini past baholash, ichki ishonchsizlik va muvaffaqiyatni yetarli deb qabul qilmaslikka olib kelishi mumkin. Imposter sindromiga ega shaxslar aynan shu jihatdan o‘z yutuqlarini boshqalarning muvaffaqiyatlari bilan solishtirishga moyil bo‘ladilar.

F. Gibbons va B. Buunk tomonidan ishlab chiqilgan Iowa-Netherlands Comparison Orientation Measure metodikasi esa shaxsning ijtimoiy taqqoslashga moyilligini o‘lchashda keng qo‘llaniladi. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy taqqoslashga moyillik individual farq sifatida talqin qilingan bo‘lib, ayrim shaxslar o‘z imkoniyatlari, fikrlari va natijalarini boshqalar bilan solishtirishga nisbatan kuchliroq ehtiyoj sezishi ta’kidlangan. Mazkur yondashuv imposter sindromi bilan ijtimoiy taqqoslash o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

K. Mak, S. Kleitman va M. Abbott tomonidan olib borilgan tizimli sharhda imposter fenomenini o‘lchashga mo‘ljallangan psixodiagnostik shkalalar tahlil qilingan. Mualliflar imposter sindromini baholashda turli metodikalarning psixometrik imkoniyatlarini qiyosiy o‘rganib, bu fenomenni aniq diagnostika qilish uchun ishonchli, valid va nazariy asoslangan o‘lchov vositalaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaganlar. Bu tadqiqot imposter sindromi bo‘yicha empirik izlanishlarni metodologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, imposter sindromi shaxsning o‘ziga munosabati, muvaffaqiyatni qabul qilishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy baholanishga sezgirligi va boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, Klans va Ayms ushbu fenomenning nazariy asoslarini yaratgan bo‘lsa, Krisman va hamkorlari uni diagnostik jihatdan o‘lchash imkoniyatlarini asoslab bergan. Bernard, Ross, Thompson va Vergauwe tadqiqotlari imposter sindromining nevrotizm, xavotir, perfektsionizm va shaxs tipologik xususiyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Festinger, Gibbons va Buunkning ijtimoiy taqqoslash haqidagi qarashlari esa imposter sindromining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsda imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasi hamda introversiya–ekstroversiya va nevrotizm kabi individual-psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan aniqlashdan iborat. Tadqiqot korrelyatsion tadqiqot dizayni asosida tashkil etildi.

Ushbu yondashuv o‘rganilayotgan psixologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanishning yo‘nalishi, kuchi va statistik ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida turli yosh davrlaridagi shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari belgilandi. Tadqiqot predmetini esa imposter sindromining introversiya–ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqadorligi tashkil etdi. Tadqiqotda jami 1052 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilar 15 yoshdan 36 yosh va undan katta yoshgacha bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lib, yosh xususiyatlariga ko‘ra beshta guruhga ajratildi: 15–17 yosh, 18–22 yosh, 23–28 yosh, 28–35 yosh hamda 36 yosh va undan katta respondentlar. Tanlanmani shakllantirishda respondentlarning yoshi, jinsi, ta’lim darajasi va ijtimoiy faoliyat turi kabi demografik ko‘rsatkichlar hisobga olindi.

Respondentlarni tadqiqotga jalb etishda ixtiyoriy ishtirok etish, anonimlik, maxfiylik va olingan ma’lumotlardan faqat ilmiy maqsadlarda foydalanish tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqot boshlanishidan oldin ishtirokchilarga tadqiqotning umumiy maqsadi, topshiriqlarni bajarish tartibi va javoblarning maxfiy saqlanishi haqida ma’lumot berildi. Respondentlardan o‘zlariga eng mos bo‘lgan javob variantlarini tanlash hamda savollarga xolis javob berish so‘raldi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, psixodiagnostik va matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida imposter sindromi, shaxs xususiyatlari, introversiya–ekstroversiya va nevrotizm muammosiga bag‘ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, mavzuga oid nazariy konsepsiyalarni umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish va ilmiy talqin qilish usullari qo‘llanildi.

Imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasini aniqlashda Klans tomonidan ishlab chiqilgan “Imposter fenomeni shkalasi”dan foydalanildi. Mazkur metodika shaxsning o‘z muvaffaqiyatlarini tashqi omillar bilan izohlashi, o‘z qobiliyatlariga shubha bilan qarashi, atrofdagilar tomonidan fosh etilishdan qo‘rqishi va erishilgan natijalarni yetarlicha qadrlamasligi kabi holatlarni baholashga imkon beradi. Metodika orqali respondentlarda imposter sindromining past, o‘rta va yuqori darajada namoyon bo‘lish xususiyatlari aniqlandi.

Shaxsning introversiya–ekstroversiya va nevrotizm xususiyatlarini o‘rganishda G. Ayzenkning shaxs so‘rovnomasidan foydalanildi. Ushbu metodika shaxsning tashqi yoki ichki olamga yo‘nalganligini, ijtimoiy faollik darajasini, muloqotga kirishuvchanligini, hissiy barqarorligi yoki beqarorligini aniqlashga xizmat qiladi. Metodikaning ekstroversiya–introversiya shkalasi respondentning ijtimoiy faolligi, ochiqligi, muloqotga moyilligi yoki aksincha, ichki kechinmalarga yo‘nalganligi haqida ma’lumot beradi. Nevrotizm shkalasi esa shaxsning xavotirga moyilligi, hissiy ta’sirchanligi, kayfiyat o‘zgaruvchanligi, stressga sezgirligi va

emotsional barqarorlik darajasini baholash imkonini yaratadi. So‘rovnomadagi samimiylik shkalasi respondentlar javoblarining ishonchlilik darajasini nazorat qilish maqsadida qo‘llanildi.

Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda muammoning nazariy-metodologik asoslari o‘rganilib, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va ilmiy farazi belgilandi. Ikkinchi bosqichda psixodiagnostik metodikalar tanlandi va respondentlarga taqdim etildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar kodlashtirilib, elektron ma’lumotlar bazasiga kiritildi. To‘rtinchi bosqichda natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlandi, tizimlashtirildi va psixologik jihatdan talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy statistika ko‘rsatkichlari, jumladan, arifmetik o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, chastota va foiz ko‘rsatkichlaridan foydalanildi. Imposter sindromi bilan introversiya–ekstroversiya va nevrotizm o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash maqsadida Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti qo‘llanildi. Korrelyatsion tahlil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning musbat yoki manfiy yo‘nalishini, shuningdek, uning kuchini aniqlashga imkon berdi.

Statistik natijalarni baholashda $p<0,05$ darajasi statistik jihatdan ahamiyatli, $p<0,01$ darajasi yuqori darajada ahamiyatli, $p<0,001$ darajasi esa juda yuqori statistik ahamiyatga ega deb qabul qilindi. Korrelyatsiya koeffitsiyentlarini talqin qilishda bog‘lanishning yo‘nalishi bilan bir qatorda uning kuchiga ham e’tibor qaratildi. Bunda koeffitsiyentning 0,10 dan 0,29 gacha bo‘lgan qiymatlari zaif, 0,30 dan 0,49 gacha bo‘lgan qiymatlari o‘rtacha, 0,50 va undan yuqori qiymatlari kuchli bog‘lanish sifatida baholandi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda statistik dasturiy ta’minotdan foydalanildi. Dastlab respondentlarning umumiy ko‘rsatkichlari tavsifiy statistika yordamida tahlil qilindi. Keyinchalik imposter sindromi, introversiya–ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar hisoblandi. Zarur holatlarda respondentlarning yosh va jins xususiyatlari bo‘yicha guruhlararo farqlar ham qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy faraziga ko‘ra, imposter sindromining namoyon bo‘lishi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, nevrotizm darajasining ortishi imposter sindromi ko‘rsatkichlarining ham oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, introversiya–ekstroversiya xususiyatlari imposter sindromining namoyon bo‘lish darajasi va shakllariga turlicha ta’sir ko‘rsatishi taxmin qilindi.

Tanlangan metodologik yondashuv imposter sindromini alohida psixologik holat sifatida emas, balki shaxsning hissiy barqarorligi, ijtimoiy yo‘nalganligi, o‘ziga munosabati va individual xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik fenomen sifatida o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashda tanlanmaning yetarli hajmi, standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalardan foydalanish, statistik mezonlarning to‘g‘ri tanlanishi hamda empirik ma’lumotlarning tizimli tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

1-jadval

Shaxsda imposter sindromi va introversiya, ekstroversiya, nevrotizm hamda shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi xususiyatlarining o‘zaro aloqadorligi (n-1605)

Ko‘rsatkichlar	Imposter sindromi
Introversiya	-0,172**
Ekstroversiya	0,225**
Nevrotizm	0,438**
Shaxsning boshqalar bilan o‘zini taqqoslash darajasi	0,593**

Izoh: * - p<0.05; ** - p<0.01

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, imposter sindromi bilan introversiya o‘rtasida manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘lanish aniqlandi ($r = –0,172$; $p < 0,01$). Bu introversiya darajasi ortishi bilan imposter sindromi ko‘rsatkichlari nisbatan pasayishini anglatadi. Mazkur bog‘lanish kuch jihatidan zaif bo‘lsa-da, shaxsning ichki dunyoga yo‘nalganligi imposter kechinmalarining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ekstroversiya bilan imposter sindromi o‘rtasida esa ijobiy bog‘lanish qayd etildi ($r = 0,225$). Ushbu natija ijtimoiy faollik, tashqi baholarga e’tibor va o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga moyillik ortishi imposter sindromining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Nevrotizm bilan imposter sindromi o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish esa emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va tanqidga yuqori sezgirlik imposter sindromining namoyon bo‘lishiga ta’sir etishini bildiradi. Nevrotizm darajasi yuqori shaxslar o‘z yutuqlarini qadrsizlantirish va muvaffaqiyatini tasodif bilan izohlashga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin.

Umuman, natijalar imposter sindromining shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi va emotsional barqarorligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Biroq aniqlangan

korrelyatsiyalar sabab-oqibat munosabatini emas, balki ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liq holda o‘zgarishini ifodalaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari imposter sindromining shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, introversiya bilan imposter sindromi o‘rtasida manfiy bog‘lanish aniqlangan bo‘lsa, ekstroversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘lanish qayd etildi. Bu holat imposter sindromining namoyon bo‘lishida shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi, tashqi baholarga munosabati va emotsional barqarorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Introversiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda imposter sindromi ko‘rsatkichlarining nisbatan past bo‘lishi ularning tashqi baholarga kamroq yo‘nalganligi va ijtimoiy taqqoslashga nisbatan ehtiyojining pastligi bilan izohlanishi mumkin. Ekstroversiya bilan aniqlangan ijobiy bog‘lanish esa ijtimoiy faollik, boshqalarning fikriga e’tibor berish va o‘zini atrofdagilar bilan taqqoslash imposter kechinmalarini kuchaytirishi mumkinligini bildiradi.

Nevrotizm bilan imposter sindromi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va tanqidga yuqori sezgirlik ushbu sindromning namoyon bo‘lishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyatlarini qadrsizlantirish, erishilgan natijalarni tashqi omillar bilan izohlash va o‘z salohiyatiga shubha bilan qarashga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, imposter sindromini faqatgina o‘ziga ishonchsizlik yoki past o‘z-o‘zini baholash bilan izohlash yetarli emas. Uni shaxsning ijtimoiy faolligi, hissiy ta’sirchanligi, tashqi baholarga qaramligi va o‘z muvaffaqiyatlarini qabul qilish xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish zarur. Shu bois imposter sindromiga moyil shaxslar bilan psixologik ishlashda o‘ziga ishonchni mustahkamlash, emotsional barqarorlikni rivojlantirish, tashqi baholarga qaramlikni kamaytirish va shaxsiy yutuqlarni obyektiv baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bravata, D. M., Watts, S. A., Keefer, A. L., Madhusudhan, D. K., Taylor, K. T., Clark, D. M., Nelson, R. S., Cokley, K. O., & Hagg, H. K. (2020). Prevalence, predictors, and treatment of impostor syndrome: A systematic review. Journal of General Internal Medicine, 35(4), 1252–1275. https://doi.org/10.1007/s11606-019-05364-1

2. Clance, P. R. (1985). The impostor phenomenon: Overcoming the fear that haunts your success. Peachtree Publishers.

3. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The impostor phenomenon in high-achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. Psychotherapy: Theory, Research and Practice, 15(3), 241–247. https://doi.org/10.1037/h0086006

4. Cozzarelli, C., & Major, B. (1990). Exploring the validity of the impostor phenomenon. Journal of Social and Clinical Psychology, 9(4), 401–417. https://doi.org/10.1521/jscp.1990.9.4.401

5. Eysenck, H. J., & Eysenck, S. B. G. (1975). Manual of the Eysenck Personality Questionnaire: Junior and adult. Hodder and Stoughton.

6. Ferrari, J. R., & Thompson, T. (2006). Impostor fears: Links with self-presentational concerns and self-handicapping behaviours. Personality and Individual Differences, 40(2), 341–352. https://doi.org/10.1016/j.paid.2005.07.012

7. King, J. E., & Cooley, E. L. (1995). Achievement orientation and the impostor phenomenon among college students. Contemporary Educational Psychology, 20(3), 304–312. https://doi.org/10.1006/ceps.1995.1019

8. Kolligian, J., Jr., & Sternberg, R. J. (1991). Perceived fraudulence in young adults: Is there an impostor syndrome? Journal of Personality Assessment, 56(2), 308–326. https://doi.org/10.1207/s15327752jpa5602_10

9. Kumar, S., & Jagacinski, C. M. (2006). Impostors have goals too: The impostor phenomenon and its relationship to achievement goal theory. Personality and Individual Differences, 40(1), 147–157. https://doi.org/10.1016/j.paid.2005.05.014

10. Langford, J., & Clance, P. R. (1993). The impostor phenomenon: Recent research findings regarding dynamics, personality and family patterns and their implications for treatment. Psychotherapy: Theory, Research, Practice, Training, 30(3), 495–501. https://doi.org/10.1037/0033-3204.30.3.495

11. Mak, K. K. L., Kleitman, S., & Abbott, M. J. (2019). Impostor phenomenon measurement scales: A systematic review. Frontiers in Psychology, 10, Article 671. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2019.00671

12. McGregor, L. N., Gee, D. E., & Posey, K. E. (2008). I feel like a fraud and it depresses me: The relation between the impostor phenomenon and depression. Social Behavior and Personality: An International Journal, 36(1), 43–48. https://doi.org/10.2224/sbp.2008.36.1.43

13. Ross, S. R., Stewart, J., Mugge, M., & Fultz, B. (2001). The impostor phenomenon, achievement dispositions, and the Five-Factor Model. Personality and Individual Differences, 31(8), 1347–1355. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(00)00228-2

14. Ross, S. R., & Krukowski, R. A. (2003). The impostor phenomenon and maladaptive personality: Type and trait characteristics. Personality and Individual Differences, 34(3), 477–484. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(02)00067-3

15. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The impostor phenomenon. International Journal of Behavioral Science, 6(1), 73–92. https://doi.org/10.14456/ijbs.2011.6

16. Thompson, T., Davis, H., & Davidson, J. (1998). Attributional and affective responses of impostors to academic success and failure outcomes. Personality and Individual Differences, 25(2), 381–396. https://doi.org/10.1016/S0191-8869(98)00065-8

TALABALARDA OPTIMIZM XUSUSIYATI VA MUAMMONI HAL QILISH QOBILIYATINING RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Ko‘chkinova Zulxumor Shohobiddin qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda optimizm xususiyati hamda muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda optimistik dunyoqarash talabalarning murakkab hayotiy va ta’limiy vaziyatlarni ijobiy baholashi, muammolarga konstruktiv yondashishi hamda samarali yechimlarni izlashga yo‘naltiruvchi muhim psixologik resurs sifatida yoritilgan. Shuningdek, optimizm, muammoni hal qilish qobiliyati, o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik va qaror qabul qilish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari optimizmning rivojlanishi talabalarda muammoli vaziyatlarda faollik, mas’uliyat, mustaqil fikrlash, moslashuvchanlik hamda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salohiyatini rivojlantirish va ularni hayotiy hamda kasbiy muammolarni samarali hal etishga tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: optimizm, talaba, muammoni hal qilish qobiliyati, psixologik xususiyatlar, ijobiy tafakkur, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, o‘ziga ishonch, qaror qabul qilish, konstruktiv yondashuv, psixologik moslashuv, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, psixologik resurs.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОПТИМИЗМА И СПОСОБНОСТИ К РЕШЕНИЮ ПРОБЛЕМ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье научно анализируются психологические особенности развития оптимизма и способности к решению проблем у студентов. Оптимистическое мировоззрение рассматривается как важный психологический ресурс, способствующий позитивной оценке сложных жизненных и учебных ситуаций, конструктивному отношению к возникающим трудностям и поиску эффективных способов их преодоления. Обоснована взаимосвязь между оптимизмом, способностью решать проблемы, уверенностью в себе, эмоциональной устойчивостью, стрессоустойчивостью и процессами принятия решений.

Результаты исследования показали, что развитие оптимизма способствует повышению активности студентов в проблемных ситуациях, развитию ответственности, самостоятельности мышления, гибкости поведения и эффективности принятия решений. Представленный подход имеет важное научно-практическое значение для развития психологического потенциала студентов высших учебных заведений и их подготовки к успешному решению жизненных и профессиональных задач.

Ключевые слова: оптимизм, студент, решение проблем, психологические особенности, позитивное мышление, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, уверенность в себе, принятие решений, конструктивный подход, психологическая адаптация, личностное развитие, социальная активность, самостоятельное мышление, психологический ресурс.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF OPTIMISM AND PROBLEM-SOLVING ABILITY AMONG STUDENTS

Annotation. This article examines the psychological factors underlying the development of optimism and problem-solving ability among university students. Optimistic thinking is considered an important psychological resource that enables students to positively evaluate challenging academic and life situations, adopt constructive approaches to difficulties, and seek effective solutions.

The study substantiates the relationships among optimism, problem-solving ability, self-confidence, emotional stability, resilience to stress, and decision-making processes. The findings indicate that the development of optimism enhances students' activity in challenging situations, responsibility, independent thinking, cognitive flexibility, and effective decision-making skills. This approach has significant theoretical and practical value for strengthening the psychological potential of university students and preparing them to successfully cope with academic, professional, and everyday life challenges.

Keywords: optimism, university student, problem-solving ability, psychological characteristics, positive thinking, emotional stability, stress resilience, self-confidence, decision-making, constructive approach, psychological adaptation, personal development, social activity, independent thinking, psychological resources.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashlari, balki murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, mavjud muammolarni samarali hal etish hamda psixologik

barqarorlikni saqlay olish kabi muhim shaxsiy sifatlarni ham rivojlantirishlari zarur. Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi, raqobat muhitining kuchayishi, kasbiy talablarga qo‘yilayotgan mezonlarning yuksalishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi talabalardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga konstruktiv yondashuvni talab etmoqda.

Talabalik davri shaxsning intellektual, emotsional, ijtimoiy va kasbiy jihatdan faol shakllanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda yoshlar o‘z hayotiy maqsadlarini aniqlaydi, kasbiy yo‘nalishini belgilaydi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘radi. Biroq mazkur jarayon har doim ham oson kechmaydi. O‘quv yuklamasi, imtihonlar, vaqtni samarali taqsimlash zarurati, shaxslararo munosabatlar, kelajak kasbiga oid noaniqliklar hamda ijtimoiy bosim talabalarda psixologik zo‘riqishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyati muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Optimizm shaxsning kelajakdagi voqea-hodisalarga nisbatan ijobiy kutishlari, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ishonishi hamda qiyinchiliklarni vaqtinchalik va yengib o‘tiladigan holat sifatida baholashi bilan tavsiflanadi [1]. Optimistik dunyoqarashga ega bo‘lgan talabalar muammoli vaziyatlarda umidsizlikka berilmasdan, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilishga, yechim izlashga va faol harakat qilishga moyil bo‘ladilar. Shu jihatdan optimizm talabalarning muammoni hal qilish qobiliyati rivojlanishida muhim ichki omil sifatida xizmat qiladi.

Muammoni hal qilish qobiliyati esa shaxsning muammoli vaziyatni anglash, uni tahlil qilish, sabablarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, eng maqbul qarorni tanlash hamda uni amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini o‘z ichiga oladi [4]. Talabalarda ushbu qobiliyatning rivojlanishi ularning o‘quv faoliyati, ijtimoiy moslashuvi, kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, optimizm va muammoni hal qilish qobiliyati o‘zaro bog‘liq psixologik hodisalar bo‘lib, ular talabalarning murakkab vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, stressga bardosh berishi hamda hayotiy maqsadlariga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Optimistik talaba muammoga tahdid sifatida emas, balki rivojlanish va tajriba orttirish imkoniyati sifatida qaraydi. Bu esa uning muammoni hal qilishdagi faolligi va mas’uliyatini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi talabalarda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishidagi psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: optimizm tushunchasining psixologik mazmunini yoritish; muammoni hal qilish qobiliyatining talaba shaxsida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilish; optimizm va muammoni hal qilish qobiliyati o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni asoslash; talabalarda mazkur sifatlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; oliy ta’lim jarayonida optimistik tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida talabalarning shaxsiy-psixologik rivojlanish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa talabalarda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishidagi psixologik xususiyatlardan iborat.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Optimizm muammosi shaxs psixologiyasi, pozitiv psixologiya, stress psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya doirasida keng o‘rganilgan. M. Scheier, C. Carver va M. Bridges optimizmni shaxsning kelajakdagi ijobiy natijalarga nisbatan umumlashgan kutishlari sifatida talqin qilganlar [1]. Ularning fikricha, optimistik shaxslar qiyinchiliklarga duch kelganda faol kurashish strategiyalarini qo‘llaydi, maqsadga erishish yo‘lida izchil harakat qiladi hamda muvaffaqiyatsizliklarni vaqtinchalik holat sifatida baholaydi. C. Carver, M. Scheier va S. Segerstrom tadqiqotlarida optimizmning stressga bardoshlilik, subyektiv farovonlik, emotsional barqarorlik, sog‘lom moslashuv va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan [2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, optimizm shaxsning shunchaki ijobiy fikrlashi emas, balki uning murakkab vaziyatlarda faol harakat qilishini qo‘llab-quvvatlovchi motivatsion va kognitiv resursdir.

Pozitiv psixologiya vakillaridan M. Seligman optimizmni shaxsning muvaffaqiyatsizlik va qiyinchiliklarni qanday izohlashi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, optimistik izohlash uslubiga ega inson salbiy hodisalarni doimiy, umumiy va shaxsiy kamchilik sifatida emas, balki vaqtinchalik hamda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan holat sifatida baholaydi [5]. Ushbu yondashuv talabalarda muammoli vaziyatlarga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoni hal qilish qobiliyati masalasi T. D’Zurilla va A. Nezu tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy muammoni hal qilish nazariyasida chuqur tahlil qilingan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, muammoni hal qilish jarayoni shaxsning muammoli vaziyatni idrok etishi, unga munosabat bildirishi, muqobil yechimlarni ishlab chiqishi hamda samarali qaror qabul qilishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir [4]. Ijobiy muammo yo‘nalishiga ega shaxs muammoga tahdid sifatida

emas, balki hal qilinishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qaraydi. Bu esa optimistik tafakkur bilan bevosita bog‘liqdir.

Stress va moslashuv masalalarini o‘rgangan R. Lazarus va S. Folkman shaxsning stressli vaziyatga munosabati uning kognitiv baholash jarayoni bilan belgilanishini ta’kidlaydilar [6]. Ya’ni, inson vaziyatni qanday talqin qilsa, uning emotsional reaksiyasi va xatti-harakati ham shunga mos ravishda shakllanadi. Optimistik talaba muammoli vaziyatni boshqarilishi mumkin bo‘lgan holat sifatida baholagani sababli stressga kamroq beriladi va muammoning samarali yechimini topishga faol intiladi.

B. Fredricksonning ijobiy emotsiyalar nazariyasida ijobiy hissiyotlar inson tafakkurini kengaytirishi, yangi imkoniyatlarni ko‘rishga yordam berishi va shaxsiy resurslarni rivojlantirishi ta’kidlanadi [7]. Ushbu nazariya talabalarda optimizmning muammoni hal qilish jarayoniga ta’sirini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki optimistik kayfiyat talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, muqobil yechimlarni ko‘rish imkoniyatini oshiradi hamda qaror qabul qilish jarayonini faollashtiradi.

Mazkur maqolada nazariy-tahliliy, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, psixologik talqin va ilmiy manbalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi optimizm, muammoni hal qilish qobiliyati, stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik va psixologik moslashuvga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirishga asoslandi. Maqolada talabalarda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishidagi psixologik mexanizmlar ilmiy-nazariy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Optimizm shaxsning muammoli vaziyatni qanday baholashi, unga nisbatan qanday munosabat bildirishi va qanday yechim izlashi jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Muammoni hal qilish qobiliyati esa talabaning optimistik munosabatini amaliy harakatga aylantiruvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Talabalik davrida uchraydigan muammoli vaziyatlar turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklar, imtihon jarayonidagi xavotir, vaqtni rejalashtirishdagi muammolar, kasbiy tanlovdagi noaniqlik, guruhdagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy mas’uliyat, moddiy qiyinchiliklar va kelajak haqidagi xavotirlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda talabaning optimistik yoki pessimistik munosabati uning psixologik holati va xatti-harakat yo‘nalishini belgilaydi.

Optimistik talaba muammoga duch kelganda, avvalo, vaziyatni real baholashga harakat qiladi. U muammoni inkor etmaydi, balki uning sabablarini aniqlashga, mavjud imkoniyatlarni ko‘rib chiqishga va yechim variantlarini ishlab chiqishga intiladi. Bunday yondashuv muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pessimistik talaba esa muammoni ko‘pincha hal qilib bo‘lmaydigan, o‘z imkoniyatlaridan yuqori yoki shaxsiy muvaffaqiyatsizlik belgisi sifatida qabul qilishi mumkin. Natijada unda passivlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va muammodan qochish holatlari kuchayadi.

Optimizmning muammoni hal qilish qobiliyatiga ta’siri bir nechta psixologik mexanizmlar orqali izohlanadi. Birinchidan, optimizm kognitiv baholash jarayoniga ta’sir qiladi. Talaba muammoli vaziyatni tahdid sifatida emas, balki hal qilinishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilsa, uning fikrlash jarayoni faol va konstruktiv yo‘nalishda kechadi [4]. Ikkinchidan, optimizm motivatsion faollikni oshiradi. Talaba natijaning ijobiy bo‘lishiga ishongan sari muammoni hal qilish uchun ko‘proq harakat qiladi [2]. Uchinchidan, optimizm emotsional barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Ijobiy kutishlar salbiy emotsiyalarni kamaytirib, vaziyatga xotirjam va oqilona yondashishga yordam beradi [3].

Muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishida mustaqil fikrlash alohida ahamiyatga ega. Mustaqil fikrlay oladigan talaba muammoli vaziyatda boshqalarning fikriga to‘liq qaram bo‘lib qolmaydi, balki mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, turli yechimlarni solishtiradi va eng maqbul qarorni tanlaydi. Optimistik dunyoqarash esa bunday fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u talabaning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi.

Talabalarda optimizmning rivojlanishi o‘ziga ishonch bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘ziga ishongan talaba muammoli vaziyatlarda qo‘rquv yoki ikkilanishga kamroq beriladi, o‘z bilim va tajribasidan foydalanishga harakat qiladi. O‘ziga ishonchi past bo‘lgan talabalar esa ko‘pincha muammoni hal qilishga kirishishdan avval muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadilar. Shuning uchun optimizm va o‘ziga ishonch muammoni hal qilish jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Emotsional barqarorlik ham mazkur jarayonda muhim o‘rin tutadi. Talaba muammoli vaziyatda o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olsa, u vaziyatni aniqroq tahlil qiladi va xatolarga kamroq yo‘l qo‘yadi. Kuchli xavotir, qo‘rquv yoki tushkunlik esa fikrlash jarayonini toraytirib, muqobil yechimlarni ko‘rishga xalaqit beradi. Optimistik kayfiyat emotsional zo‘riqishni kamaytiradi va talabaning muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan faolligini oshiradi [7].

Talabalarda muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishi bir necha bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqichda talaba muammoni anglaydi va uni

aniqlaydi. Ikkinchi bosqichda muammoning sabablarini tahlil qiladi. Uchinchi bosqichda mumkin bo‘lgan yechim variantlarini ishlab chiqadi. To‘rtinchi bosqichda eng maqbul yechimni tanlaydi. Beshinchi bosqichda tanlangan yechimni amaliyotga tatbiq etadi va natijani baholaydi. Optimistik munosabat ushbu bosqichlarning har birida talabaning faolligi, qat’iyati va mas’uliyatini oshiradi.

O‘quv jarayonida optimizm va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishi talabaning akademik muvaffaqiyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, murakkab fanlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan talaba optimistik munosabatga ega bo‘lsa, bu qiyinchilikni vaqtinchalik holat sifatida baholaydi, qo‘shimcha manbalarni izlaydi, o‘qituvchidan yordam so‘raydi va o‘z ustida ishlaydi. Pessimistik munosabatga ega talaba esa o‘zini qobiliyatsiz deb hisoblab, faol harakat qilishdan voz kechishi mumkin. Demak, optimizm o‘quv motivatsiyasi va muammoni hal qilish strategiyalarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy munosabatlarda ham muammoni hal qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Talabalar guruhdagi kelishmovchiliklar, do‘stlar bilan tushunmovchiliklar, jamoaviy topshiriqlarni bajarishdagi muammolar va kommunikativ qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Optimistik talaba bunday vaziyatlarda murosaga kelish, muloqot qilish, fikr almashish va kelishuvga erishish yo‘llarini izlaydi. Bu esa uning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.

Talabalarda optimizm va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali hisoblanadi. Ularga oilaviy tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘quv muhitining psixologik iqlimi, pedagogik munosabat, shaxsiy tajriba, o‘zini baholash darajasi, motivatsiya va emotsional barqarorlik kiradi. Ayniqsa, talabaning o‘z kuchiga ishonishi va muvaffaqiyatga erishish tajribasi optimistik dunyoqarashni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, optimizmni haddan tashqari idealistik qarash sifatida emas, balki realistik optimizm shaklida rivojlantirish muhimdir. Realistik optimizm muammolarni inkor etish emas, balki ularni to‘g‘ri baholash, mavjud xavflarni anglash va shunga qaramay yechim izlashga tayyor bo‘lishdir. Bunday optimizm talabalarda mas’uliyatli qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda barqaror harakat qilish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda optimizm xususiyatining rivojlanishi muammoni hal qilish qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Optimistik talabalar qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, vaziyatga faol yondashishga, muqobil yechimlarni izlashga va natijaga erishish uchun izchil harakat qilishga moyil bo‘ladilar. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning optimistik tafakkuri, mustaqil fikrlashi, stressga bardoshliligi va muammoni hal qilish

ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur.

XULOSA

Talabalarda optimizm xususiyati va muammoni hal qilish qobiliyatining rivojlanishidagi psixologik xususiyatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur ikki sifat shaxsning o‘quv, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Optimizm talabalarning muammoli vaziyatlarga nisbatan ijobiy va konstruktiv munosabatini shakllantiradi, muammoni hal qilish qobiliyati esa ushbu munosabatni amaliy faoliyatga aylantiradi.

Maqolada olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, optimizm talabalarda o‘ziga ishonch, ijobiy tafakkur, emotsional barqarorlik va stressga bardoshlilikni rivojlantiradi; ikkinchidan, muammoni hal qilish qobiliyati talabaning vaziyatni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va oqilona qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi; uchinchidan, optimistik dunyoqarash muammoli vaziyatlarda passivlikni kamaytirib, faol harakat va mas’uliyatni kuchaytiradi; to‘rtinchidan, mazkur sifatlarning rivojlanishi talabalarning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarda optimizm va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida psixologik treninglar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish mashg‘ulotlari, stressni boshqarish bo‘yicha seminarlar, o‘ziga ishonchni rivojlantirish dasturlari hamda jamoaviy ishlashga yo‘naltirilgan interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, talabalar bilan olib boriladigan psixologik xizmat jarayonida ularning realistik optimizmini shakllantirish, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga o‘rgatish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, optimizm va muammoni hal qilish qobiliyati talabalarning shaxsiy rivojlanishi, psixologik salomatligi va kasbiy tayyorgarligini ta’minlovchi muhim psixologik omillardir. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-amaliy ishlar oliy ta’lim tizimida talabalar salohiyatini rivojlantirish va ularni hayotiy muammolarni samarali hal etishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Scheier, M. F., Carver, C. S., & Bridges, M. W. (1994). Distinguishing optimism from neuroticism and trait anxiety, self-mastery, and self-esteem: A reevaluation of the Life Orientation Test. Journal of Personality and Social Psychology, 67(6), 1063-1078. https://doi.org/10.1037/0022-3514.67.6.1063

2. Carver, C. S., Scheier, M. F., & Segerstrom, S. C. (2010). Optimism. Clinical Psychology Review, 30(7), 879-889. https://doi.org/10.1016/j.cpr.2010.01.006

3. Connor, K. M., & Davidson, J. R. T. (2003). Development of a new resilience scale: The Connor-Davidson Resilience Scale. Depression and Anxiety, 18(2), 76-82. https://doi.org/10.1002/da.10113

4. D'Zurilla, T. J., & Nezu, A. M. (1990). Development and preliminary evaluation of the Social Problem-Solving Inventory. Psychological Assessment: A Journal of Consulting and Clinical Psychology, 2(2), 156-163. https://doi.org/10.1037/1040-3590.2.2.156

5. Seligman, M. E. P. (2006). Learned optimism: How to change your mind and your life. Vintage Books.

6. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, appraisal, and coping. Springer Publishing Company.

7. Fredrickson, B. L. (2001). The role of positive emotions in positive psychology: The broaden-and-build theory of positive emotions. American Psychologist, 56(3), 218-226. https://doi.org/10.1037/0003-066X.56.3.218

TALABALAR IQTISODIY XULQ-ATVORINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: GENDER TAHLILI

Yuldosheva Gavhar O‘tkirovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi tayanch-doktoranti
ORCID: 0009-0008-2739-2354

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning iqtisodiy xulq-atvorining diniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi globallashuv, raqamli iqtisodiyot va bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning iqtisodiy madaniyati, moliyaviy savodxonligi hamda mas’uliyatli iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga diniy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik omillarning ta’sirini aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini empirik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda tizimli, kompleks va qiyosiy yondashuvlar, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, so‘rovnoma, matematik-statistik tahlil hamda O.F.Potyomkina tomonidan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy-psixologik ustanovkalarni diagnostika qilish” metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalar SPSS dasturi yordamida Studentning mustaqil tanlanmalar uchun t-testi asosida tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, mehnatga yo‘nalganlik bo‘yicha jinslar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Biroq erkinlikka yo‘nalganlik ayol talabalarda, hokimiyatga yo‘nalganlik esa erkak talabalarda statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari talabalarning iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirishda diniy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik omillarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya, moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy xulq-atvor, talaba, diniy qadriyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, iqtisodiy psixologiya, Potyomkina metodikasi, gender tafovutlari, iqtisodiy tarbiya, moliyaviy savodxonlik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ: ГЕНДЕРНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье исследуются религиозные и социально-психологические особенности экономического поведения студентов, а также их влияние на процесс принятия экономических решений. Актуальность

исследования обусловлена необходимостью формирования экономической культуры, финансовой грамотности и ответственного экономического поведения молодежи в условиях глобализации, цифровой экономики и развития рыночных отношений. Цель исследования заключается в выявлении влияния религиозных ценностей и социально-психологических факторов на экономическое поведение студентов, а также в эмпирическом обосновании взаимосвязи между ними. Методологическую основу исследования составили системный, комплексный и сравнительный подходы, анализ научной литературы, наблюдение, анкетирование, методы математико-статистической обработки данных и методика диагностики социально-психологических установок О.Ф.Потемкиной. Статистическая обработка результатов проводилась с использованием программы SPSS и t-критерия Стьюдента для независимых выборок. Результаты исследования показали отсутствие статистически значимых гендерных различий по шкале «ориентация на труд». Вместе с тем установлено, что студентки демонстрируют более высокий уровень ориентации на свободу, тогда как студенты-мужчины имеют более выраженную ориентацию на власть. Полученные результаты свидетельствуют о существенной роли религиозных ценностей и социально-психологических установок в формировании экономического поведения студентов. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования полученных выводов при разработке программ экономического воспитания, повышения финансовой грамотности и формирования предпринимательских компетенций в системе высшего образования.

Ключевые слова: экономическое поведение, студенты, религиозные ценности, социально-психологические факторы, экономическая психология, методика Потемкиной, гендерные различия, финансовая грамотность.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF STUDENTS' ECONOMIC BEHAVIOR: A GENDER ANALYSIS

Annotation. This article examines the religious and socio-psychological characteristics of students' economic behavior and their influence on economic decision-making. The relevance of the study is determined by the growing need to develop economic culture, financial literacy, and responsible economic behavior among young people in the context of globalization, digital transformation, and the expansion of market relations. The aim of the research is to identify the impact of religious values and socio-psychological factors on students' economic behavior and to determine the relationship between these variables through empirical analysis.

The study employed a systematic, comprehensive, and comparative research approach. Scientific literature analysis, observation, questionnaire surveys, mathematical and statistical methods, and O.F.Potemkina's methodology for diagnosing socio-psychological attitudes were used as the main research tools. The collected data were processed using the SPSS statistical package and analyzed through the independent samples Student's t-test. The findings revealed no statistically significant gender differences in work orientation. However, female students demonstrated significantly higher scores on freedom orientation, whereas male students showed significantly higher levels of power orientation. These results indicate that religious values and socio-psychological attitudes play a significant role in shaping students' economic behavior and decision-making. The study contributes to the field of economic psychology by providing empirical evidence on the interaction between psychological attitudes and economic behavior. The findings may serve as a scientific basis for improving economic education, financial literacy programs, and entrepreneurship development initiatives in higher education institutions.

Keywords: economic behavior, students, religious values, socio-psychological factors, economic psychology, Potemkina methodology, gender differences, financial literacy, entrepreneurship.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yoshlarning iqtisodiy xulq-atvorini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, talabalarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishi, tadbirkorlikka bo‘lgan munosabati va iste’mol madaniyatining shakllanishida diniy hamda ijtimoiy-psixologik omillar muhim o‘rin tutadi. Ushbu omillar shaxsning qadriyatlari, motivlari, e’tiqodi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy globallashuv, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida talabalar iqtisodiy xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Diniy qadriyatlarning halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik va isrofgarchilikka qarshi munosabat kabi tamoyillari iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, ijtimoiy ta’sir, motivatsiya, shaxsiy qadriyatlar, o‘zini o‘zi boshqarish va ijtimoiy me’yorlar ham talabalarning iqtisodiy qarorlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Shu sababli talabalar iqtisodiy xulq-atvorining diniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kompleks o‘rganish, ushbu omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni

aniqlash hamda yoshlarning iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya samaradorligini oshirish, yoshlarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish va ularning mas’uliyatli iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Talabalar iqtisodiy xulq-atvori hamda unga ta’sir etuvchi diniy va ijtimoiy-psixologik omillar turli fanlar doirasida, jumladan, iqtisodiyot, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va dinshunoslik yo‘nalishlarida keng tadqiq etilgan. Xorijiy olimlar tomonidan iqtisodiy xulq-atvorning nazariy asoslari, iqtisodiy qarorlar qabul qilish mexanizmlari, shaxs motivatsiyasi va qadriyatlar tizimining iqtisodiy faoliyatga ta’siri yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, iste’molchilar xulq-atvorining o‘smirlik identikligiga ta’siri (V.A.Xashenko, A.P.Vyatkin) [1.1], iqtisodiy iste’mol xulqining gender jihatlari (T.A.Guseva),[2.3] iste’mol xulqining motivlari (B.G.Rebzuyev, A.A.Savelyev),[3.4] o‘smirlar iste’mol xulqining tahlil modeli (C.B.Shadrina) [4.5] lar tomonidan o‘rganilgan.

Ijtimoiy psixologiya sohasida shaxsning qadriyatlari, motivatsiyasi, ijtimoiy me’yorlar, referent guruhlar va ijtimoiy identifikatsiyaning iqtisodiy xulq-atvorga ta’siri bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Diniy qadriyatlarning iqtisodiy faoliyatga ta’siri, halollik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, mas’uliyat va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ham ko‘plab ilmiy manbalarda tahlil qilingan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham yoshlarning iqtisodiy tarbiyasi, iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish hamda ma’naviy qadriyatlarning shaxs kamolotidagi o‘rni bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq talabalar iqtisodiy xulq-atvorining aynan diniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘zaro bog‘liqlikda, kompleks yondashuv asosida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Shu bois mazkur tadqiqot talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga diniy va ijtimoiy-psixologik omillarning ta’sirini kompleks tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgani bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda talabalar iqtisodiy xulq-atvorining diniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishda tizimli, kompleks va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi va xulq-atvor iqtisodiyoti nazariyalari tashkil etdi.

Empirik tadqiqot jarayonida respondentlarning iqtisodiy xulq-atvoriga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik ustanovkalarni aniqlash maqsadida O.F.Potyomkina (Potemkina) tomonidan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy-psixologik ustanovkalarni diagnostika qilish” metodikasi qo‘llanildi. Ushbu metodika shaxsning “erkinlik–hokimiyat” hamda “mehnat–pul” yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini aniqlash imkonini beradi. Metodika yordamida talabalarning mehnatga munosabati, moddiy qadriyatlarga yo‘nalganligi, mustaqillikka intilishi, hokimiyat va ijtimoiy mavqega bo‘lgan munosabati baholandi.

Tadqiqot davomida, shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, so‘rovnoma, statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar respondentlarning iqtisodiy xulq-atvorida diniy qadriyatlar va ijtimoiy-psixologik ustanovkalarning o‘rnini aniqlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ishonchliligi, obyektivligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O.F.Potyomkina metodikasi asosida talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga oid ijtimoiy-psixologik ustanovkalari jins kesimida tahlil qilindi.

1-jadval

Potemkina metodikasi bo‘yicha jins tafovutlari o‘rtacha qiymatlar tahlili (student-t)

Shkalalar	Jins	M	SD	SEM	t	p
Mehnatga yo‘nalganlik	ayol	6,34	1,68	0,11	0,484	0,629
	erkak	6,25	1,47	0,13		
Erkinlikka yo‘nalganlik	ayol	7,13	1,76	0,12	0,635	0,000
	erkak	6,37	1,97	0,18		
Hokimiyatga yo‘nalganlik	Ayol	4,24	2,08	0,14	-2,163	0,031
	Erkak	4,75	1,98	0,18		
Pulga yo‘nalganlik	Ayol	3,71	1,91	0,13	-1,722	0,086
	Erkak	4,10	2,01	0,18		

Izoh: M – o‘rtacha qiymat (Mean), SD – standart og‘ish (Standard Deviation), t-Studentning mustaqil tanlanmalar uchun t-kriteriyasi, p – statistik ahamiyatlilik darajasi. **p<0,05** – statistik jihatdan ishonchli farq.

Muallif tomonidan O.F.Potyomkina metodikasi asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari va SPSS dasturida amalga oshirilgan statistik tahlil asosida tuzildi.

Talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga oid ijtimoiy-psixologik ustanovkalarida jinslar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida O.F. Potyomkina metodikasi natijalari Studentning mustaqil tanlanmalar uchun t-testi yordamida tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, mehnatga yo‘nalganlik shkalasi bo‘yicha ayol (M=6,34; SD=1,68) va erkak (M=6,25; SD=1,47) talabalar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi (t=0,484; p=0,629). Mazkur natija mehnatga munosabatning jins omiliga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanmasligini ko‘rsatadi.

Erkinlikka yo‘nalganlik shkalasi bo‘yicha esa ayol talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi (M=7,13; SD=1,76) erkak talabalarnikidan (M=6,37; SD=1,97) yuqori bo‘lib, ushbu tafovut statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi (t=3,635; p<0,001). Bu natija ayol talabalarda mustaqillik, erkin tanlov va shaxsiy qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan ustanovkalar nisbatan kuchliroq rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Hokimiyatga yo‘nalganlik shkalasi bo‘yicha erkak talabalar (M=4,75; SD=1,98) ayol talabalarga (M=4,24; SD=2,08) nisbatan yuqori natija qayd etdilar va mazkur farq statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi (t=-2,163; p=0,031). Bu holat erkak talabalarda boshqaruv, yetakchilik va ijtimoiy mavqega intilish motivlari nisbatan kuchliroq ekanligini anglatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga oid ijtimoiy-psixologik ustanovkalarida ayrim gender tafovutlari mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, ayol talabalar erkinlikka yo‘nalganlik, erkak talabalar esa hokimiyatga yo‘nalganlik bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etdilar. Mehnatga yo‘nalganlik bo‘yicha esa jinslar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmadi (p>0,05).

Mazkur tadqiqot natijalari talabalarning iqtisodiy xulq-atvori diniy qadriyatlar hamda ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida shakllanishini tasdiqladi. Iqtisodiy qarorlar qabul qilish, mehnatga munosabat, mustaqillik, ijtimoiy mavqe va moddiy qadriyatlarga yo‘nalganlik kabi ko‘rsatkichlar shaxsning ijtimoiy-psixologik ustanovkalari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

O.F.Potyomkina metodikasi asosida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari mehnatga yo‘nalganlik bo‘yicha ayol va erkak talabalar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi (p>0,05). Bu holat mehnat qadriyatlari zamonaviy talaba yoshlar orasida jinsdan qat'i nazar deyarli bir xil shakllanganligini anglatadi.

Shu bilan birga, erkinlikka yo‘nalganlik shkalasi bo‘yicha ayol talabalar erkaklarga nisbatan statistik jihatdan yuqori natijalarni namoyon etdilar (p<0,001). Bu esa ayol talabalarda mustaqillik, o‘z qarorlarini erkin qabul qilish va shaxsiy mas'uliyat hissi kuchliroq shakllanganligini ko‘rsatadi. Hokimiyatga yo‘nalganlik

shkalasida esa erkak talabalar yuqoriroq natija qayd etib ($p<0,05$), ularda yetakchilik, boshqaruv va ijtimoiy mavqega intilish motivlari kuchliroq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari diniy qadriyatlarning halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik, tejamkorlik va isrofgarchilikka qarshi munosabatni shakllantirish orqali talabalarning iqtisodiy xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini nazariy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik ustanovkalar iqtisodiy qarorlarning shakllanishida muhim determinantlardan biri ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy psixologiya va moliyaviy savodxonlikka oid maxsus o‘quv kurslari hamda treninglarni joriy etish maqsadga muvofiq.
2. Talabalarda halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik va tejamkorlik kabi diniy-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan ma’rifiy dasturlarni kengaytirish lozim.
3. Iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirishda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik trening va konsultatsiyalarni tashkil etish tavsiya etiladi.
4. Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalari, iqtisodiy tafakkuri va innovatsion faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy loyihalar sonini ko‘paytirish zarur.
5. Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy xulq-atvorning diniy qadriyatlar, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy tafakkur hamda shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqligini korrelyatsion va regressiya tahlillari asosida chuqurroq o‘rganish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarning iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Olingan ilmiy xulosalar oliy ta’lim tizimida iqtisodiy tarbiya, moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Хащенко В.А. Экономическая идентичность личности: экономические детерминанты формирования // Психологический журнал. 2004. №5; Хащенко В.А. Диагностика субъек_тивного экономического благополучия // Психологическая диагностика. 2010. № 4.

2. Вяткан А.П. Личное конструирование как механизм экономической социализации в транзитивном обществе. 2015. № 5; Вяткин А.П. Система личностных конструктов как средство адаптации в условиях экономической

неопределенности // Человек в условиях неопределенности: сб. материалов Всероссийской конференции, 18-19 мая 2006г. Ново_сибирск: Повоснб. гос. ун-т, 2006.

3.Гусева Т.В. Потребительское поведение детей старшего дошкольного возраста в процессе социализации: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Ярославль, 2005.

4. Ребчуев Б.Г.,Савельева А.А. Потребительское повеление подростков // Вопросы психо_логии. 2006. № 2.

5. Шадрина С.В. Потребительское поведение подростков: основные факторы влияния // Вестник Санкт-Петербургского университета. 2009. № 2.

PROBLEMS AND NECESSARY CONSIDERATIONS OF ECOLOGICAL AND BIOPHYSICAL EDUCATION

Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Teacher, Bukhara State University

Abstract: In modern science, developed in a modernized contemporary society, the development and innovations in the field of ecology and communication systems consist of the development and application of new technologies. Analyzing great discoveries for the present educational process, in the analysis of great discoveries, both familiar and physical, ecological and biophysical phenomena that also produce practical skills, it is important to use the news and achievements of science that enrich perception during the learning process.

Keywords: Ecological education, ecological-biophysical upbringing, nature protection, natural resources, radiation emission, information and communication systems, education reform, creativity, ecological values.

EKOLOGIK VA BIOFIZIK TA’LIMNING MUAMMOLARI HAMDA ZARURIY MASALALARI

Annotatsiya: Zamonaviy modernizatsiyalashgan jamiyat sharoitida fan taraqqiyoti ekologiya hamda axborot-kommunikatsiya tizimlari sohalarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bilan tavsiflanadi. Ta'lim jarayonini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy kashfiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, ekologik va biofizik hodisalarni o‘rganish orqali nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonida fan va texnologiyaning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning idrokini boyitadi, ekologik tafakkurini rivojlantiradi hamda ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik ta'lim, ekologik-biofizik tarbiya, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslar, radiatsion nurlanish, axborot-kommunikatsiya tizimlari, ta'lim islohoti, kreativlik, ekologik qadriyatlar.

ПРОБЛЕМЫ И НЕОБХОДИМЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО И БИОФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В условиях современного модернизированного общества развитие науки характеризуется активным внедрением инноваций и новых технологий в области экологии и информационно-коммуникационных систем. Важное значение для совершенствования образовательного процесса имеет анализ современных научных достижений и открытий, а также изучение

экологических и биофизических явлений, способствующих интеграции теоретических знаний с практическими навыками. Использование новейших достижений науки и техники в процессе обучения обогащает познавательную деятельность обучающихся, способствует формированию экологического мышления и расширению их научного мировоззрения.

Ключевые слова: экологическое образование, эколого-биофизическое воспитание, охрана природы, природные ресурсы, радиационное излучение, информационно-коммуникационные системы, реформа образования, креативность, экологические ценности.

INTRODUCTION

Teaching physics is a pedagogical process in which students, under the guidance of a teacher, acquire skills and abilities to apply systematized knowledge of the fundamentals of science in practice, and gain skills in handling physical instruments widely used in modern daily life and technology. In order to properly organize the learning process, a teacher needs not only a good knowledge of the theoretical foundations of physics and its teaching methodology, but also the general psychological patterns of the learning process and the acquisition of knowledge, skills, and abilities, as well as knowledge of how to form their own skills and develop their thinking.

LITERATURE REVIEW AND RESEARCH METHODOLOGY

Ecological education is the cultivation in students of love for nature, respect for its elements, a conscious attitude towards nature and its resources, and active activity in nature protection. In educational institutions, the idea of nature protection should be integrated into the content of all disciplines, such as physics and biology, so that they are aimed at raising the intellectual level of students. At all stages of physics lessons, elements of ecological-biophysical education must be introduced into students' consciousness through interdisciplinary connections.

As a subject, the process of students' conscious mastery of ecological education in physics is carried out in the following three directions:

- Development and use of environmentally friendly energy sources in the production process;
- Efficient use of natural resources or reduction of energy and material consumption;
- Study of the structure of environmental protection means.

Science is aimed at the development and application of technologies in the teaching, learning, and control of physics, using achievements and innovations in the field of ecology and biophysics through the development of information and

communication systems in modern society. Analyzing in the educational process the great discoveries in the field of physics up to the present time, physical, ecological, and biophysical phenomena, processes that are understandable to students, providing both theoretical knowledge and practical skills, it is important to use in teaching the news and achievements of science in the learning process that enriches perception. The education reform has clearly defined its essence: we need worthy education, not just graduates. Logic itself requires selecting the best experienced teachers from primary grades who shape the worldview and thinking of the student. The correct use of universal and national values, consisting of the experience of world pedagogy and psychology, is the key to forming a modern creative active personality. That is why the psychological-pedagogical thinking of the Uzbek people, built on mentality, national characteristics, spirituality, and the rational use of the experience of other peoples, is of great importance.

Numerous international studies emphasize that environmental education should not be limited to the acquisition of theoretical knowledge but should also foster practical skills, ecological values, critical thinking, and environmentally responsible behavior. According to UNESCO, ecological education plays a crucial role in promoting sustainable development by equipping learners with the competencies necessary to understand environmental challenges and participate actively in solving them. Similarly, researchers have highlighted that integrating environmental issues into science education significantly enhances students' scientific literacy and ecological consciousness.

Biophysical education serves as an interdisciplinary field that combines principles of biology, physics, ecology, chemistry, and environmental sciences to explain natural phenomena and interactions within ecosystems. It enables students to understand complex ecological processes such as energy transformation, radiation, climate dynamics, biodiversity conservation, and the sustainable use of natural resources. Contemporary educational research suggests that interdisciplinary teaching approaches improve learners' analytical thinking, problem-solving abilities, and practical competencies.

Recent educational reforms have further emphasized the integration of information and communication technologies (ICT), digital learning platforms, virtual laboratories, simulation software, and multimedia resources into environmental education. These innovative educational tools facilitate visualization of ecological and biophysical processes, increase students' motivation, and support inquiry-based learning. Therefore, modern ecological education should integrate scientific innovations with practical educational activities to develop environmentally conscious citizens capable of making sustainable decisions.

This study is based on a qualitative theoretical and methodological approach aimed at analyzing the current problems and essential considerations of ecological and biophysical education. The research employed several complementary scientific methods to achieve its objectives.

The first method involved a comprehensive review and content analysis of national and international scientific literature related to environmental education, biophysical sciences, sustainable development, and educational innovation. Scholarly articles, books, policy documents, and international reports were systematically examined to identify current trends, challenges, and best practices.

The second method was comparative analysis. Different educational approaches, pedagogical models, and international experiences in ecological and biophysical education were compared to determine their effectiveness in developing environmental awareness, scientific literacy, and ecological competencies among learners.

The third method consisted of analytical and systematic evaluation of contemporary educational technologies, including information and communication systems, digital learning environments, virtual simulations, and multimedia resources used in environmental education. Their pedagogical advantages and contributions to improving students' understanding of ecological and biophysical concepts were assessed.

Finally, the research applied synthesis and generalization methods to integrate the findings obtained from the literature and comparative analyses. This approach enabled the formulation of scientifically grounded conclusions and practical recommendations for improving ecological and biophysical education within modern educational systems.

The methodological framework adopted in this study ensures a comprehensive understanding of the theoretical foundations, current challenges, and future directions of ecological and biophysical education while supporting the development of environmentally responsible, scientifically literate, and sustainability-oriented individuals.

ANALYSIS AND RESULTS

Numerous studies in the fields of pedagogy, psychology, and sociology are related to the development of a new stage of quality interest of youth in education during this period, and to solving specific problems of upbringing in adolescence. It is believed that this is connected with the increasing role of the learning process and the student's perception of themselves as a certain whole, capable and expressive. Creativity is not an innate quality; it can be learned, and the rule that it is necessary is an important conclusion of psychologists and pedagogues. At the same time, the

most effective way to achieve any goal is not only to involve the individual in active creative activity. The world community is joining efforts to develop and improve ecological education and, of course, first and foremost, the ecological education of the younger generation. That is why the task of achieving ecological education in our country is put forward: all links of the education system should be involved in the implementation of general ecological education. It promotes the socialization of the individual, introduces them to global ecological values, achievements of science, technology, and culture, accelerates the process of human development as a healthy subject and personality, forms spirituality and worldview in the younger generation, forms universal moral principles, and develops values in the ecological direction. The problem of ecological education in society is becoming increasingly urgent in the context of the global crisis of development in the noosphere.

CONCLUSION

All educational materials are provided to students not only in the form of lectures or instructions, but also in the form of computer games, educational programs in computer science, knowledge of the universe, all technical and technological aspects of the role of information and communication technologies in the study of planets. The use of possibilities gives great results. Currently, sufficient conditions have been created for this in academic lyceums. In such ecological clubs, students can effectively carry out their creative activities, become comprehensively developed children of their time, knowledgeable in all areas, worthy heirs of future human development.

REFERENCES

1. Concept of Continuous Ecological Education. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. – T.: "Bioekosan", 1999. p. 16.
2. Qahhorov S.Q. Technology of periodic organization of physics teaching in general secondary schools. – Bukhara: 2004. p. 56.
3. State Educational Standard on Ecology // "Public Education". 2000. No. 1. pp. 79-82.
4. Integrative program for implementing ecological education-upbringing in teaching social subjects in general secondary schools. – T.: Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, RTM., 2019. – p. 34.
5. Nazarov E.S., Tuksanova Z.I. Effective use of innovative technologies in the education system. Abstracts of IX International Scientific and Practical Conference "SCIENTIFIC ACHIEVEMENTS OF MODERN SOCIETY" Liverpool, United Kingdom, April 28-30, 2020. pp. 772-778.

TA’LIM JARAYONIDA TEXNIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MODELI

Z.F. Amirova

Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida texnik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotning metodologik asoslari hamda ilmiy-metodik tahlili yoritilgan. Texnik tafakkurni rivojlantirish modelining tashkiliy va mazmuniy komponentlari tizimli ravishda tavsiflanib, uning tarkibiy bosqichlari, ularning mazmuni hamda o‘zaro integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, ishlab chiqilgan modelning ta’lim amaliyotidagi qo‘llanish imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: metodologiya, harbiy tayyorgarlik, kompetentlik, texnik tafakkur, model, shakllantirish, ta’lim va tarbiya.

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье представлены методологические основы и научно-методический анализ исследования, посвящённого формированию технического мышления в образовательном процессе. Системно раскрыты организационные и содержательные компоненты разработанной модели, научно обоснованы её структурные этапы, их содержание и взаимосвязь. Особое внимание уделено практической значимости модели, её возможностям внедрения в образовательную практику и роли в развитии профессиональных компетенций обучающихся.

Ключевые слова: методология, военная подготовка, компетентность, техническое мышление, модель, формирование, образование и воспитание.

A MODEL FOR DEVELOPING TECHNICAL THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. This article presents the methodological foundations and scientific analysis of research aimed at developing technical thinking in the educational process. The organizational and content-related components of the proposed model are systematically described, while its structural stages, underlying principles, and interrelationships are scientifically substantiated. Furthermore, the study explains the practical significance of the model, its applicability in educational practice, and its role in enhancing learners' professional competencies and technical thinking skills.

Keywords: methodology, military training, competence, technical thinking, model, development, education and training.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti kursantlarda texnik tafakkurni shakllantirish borasidagi maxsus sa’y-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi. Ushbu masalani hal etish mobaynida ilmiy izlanishimiz yo‘nalishini va uning natijasini tavsif etuvchi metodik yondashuvlarni tanlab olish zarurati vujudga keldi [1].

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Texnik tafakkurni shakllantirish muammosi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xususan, Aleksey Nikolaevich Leontev faoliyat nazariyasida tafakkurning rivojlanishini insonning amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda izohlaydi. Olimning fikricha, texnik tafakkur murakkab faoliyat jarayonida shakllanib, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashuvi natijasida rivojlanadi [4].

Dagmar Tollingerova aqliy rivojlanishni loyihalashtirishga oid tadqiqotlarida o‘quvchilarning texnik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar hamda loyihaviy yondashuvning muhimligini asoslab bergan [5].

Mahalliy tadqiqotchilardan Shavkat Rustamovich Urakov kompetent yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning pedagogik tizimini

takomillashtirish masalalarini o‘rganib, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatib bergan [6]. Shuningdek, Zulayho Farhodovna Amirova kursantlarda texnik tafakkurni rivojlantirish omillari, interaktiv metodlardan foydalanish hamda harbiy texnik tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini yoritgan [1; 2; 3].

Tadqiqot ishimiz metodologiyasi tahlili quyidagilarni qayd etish imkonini beradi:

- harbiy tayyorgarlik jarayonida texnik tafakkurni shakllantirish muammosini ikki darajada: strategik va taktik miqyosda tadqiq qilish;
- strategik darajada shaxsga oid va tizimli yondashuvlar natija beradi, taktik darajada esa kompetentlik hamda integrativ yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega bo‘ladi;
- yondashuvlar o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lib, ular o‘rtasida uzviylik va o‘zaro aloqadorlik mavjud;
- keltirib o‘tilgan yondashuvlarning har biri tadqiqotning ilmiy apparatini, shuningdek, oliy harbiy ta’lim jarayonida texnik tafakkurning shakllanishini belgilab beradi;
- tadqiqot ishimiz kontekstida mazkur yondashuvlar yig‘indisini qo‘llash texnik tafakkurni shakllantirish modelining ko‘rinishini beradi [2].

Model ilmiy maqsadlarda tanlangan yoki isloh etilgan, asosiy obyekt sifatida yangi axborot ulashuvchi yordamchi obyekt o‘laroq tavsif etilgan.

Quyida berilgan model ta’rifi tadqiqot ishimizga ancha yaqin: “...shunaqangi bir xayolan tasavvur etilgan yoki moddiy yuzaga chiqarilgan tizim bo‘lib, u tadqiqot obyektini aks ettirgan va qayta tiklagan holda uning o‘rnini shunday bosishga qodirki, natijada uni o‘rganish bizga ushbu obyekt haqida yangi axborot taqdim etadi” [4]. Modelni shu tariqa tushunish texnik tafakkurning rivojlanish jarayonini modellashtirish va tizimlashtirish uchun tamoyiliy ahamiyat kasb etadi.

Oliy harbiy ta’limda bo‘lajak harbiy muhandisni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifati mezoni ta’lim natijalarining muayyan standartga muvofiqligidadir. Ushbu


elementlar oliy harbiy ta’lim bitiruvchisi modelida tasvirlanadi. Oliy harbiy ta’lim bitiruvchisi modeli Davlat ta’lim standarti va malaka talablarini inobatga oluvchi o‘ziga xos etalonga aylanadi. Modellarning amaliy qiymati esa bo‘lajak harbiy muhandisga qo‘yiladigan asosiy talablar qanday darajada to‘liq aks etishiga bog‘liq [3].

Texnik tafakkurni shakllantirish bo‘yicha tahsil metodlari sifatida an’anaviy - so‘zli, izohlash, kuzatish, ko‘rgazmali, namoyish etish, mashq metodlari qatorida faol - muammoli, o‘yinli, loyihalashtirish metodi, tadqiqotchilik metodlaridan ham foydalanildi. Pedagogika fanida pedagog va kursantlarning bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga, tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq kasbiy faoliyat tarzini ta’lim metodi deb qabul qilish mumkin [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijaviy blok modelning maqsadli, jarayonli va diagnostik (tashxislash) bloklari bilan uzviy hamda funksional jihatdan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, texnik tafakkurning shakllanganlik darajasini kompleks baholashni ta’minlaydi. Mazkur blok orqali ta’lim jarayonining yakuniy samaradorligi, shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligi, shuningdek, har bir rivojlanish bosqichida kompetensiyalarning o‘zlashtirilish darajasi aniqlanadi. Natijaviy blok texnik tafakkur komponentlarining rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, kompetensiyalarning sifat ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish hamda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini obyektiv mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, olingan natijalar ta’lim jarayonini takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar samaradorligini aniqlash va modelning amaliy natijadorligini baholash uchun muhim axborot manbai vazifasini bajaradi [6]



1-rasm. Bo‘lajak harbiy muhandislarnining texnik tafakkurini shakllantirish modeli

XULOSA

Ishlab chiqilgan modelning maqsadli, jarayonli, tashxislash va natijaviy bloklar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda kasbiy kompetensiyalarni ketma-ket egallashni, bashorat qilinayotgan darajadagi shaxsiy va kasbiy sifat hamda fazilatlar rivojlanishini, shuningdek, texnik tafakkurning shakllanishini ta’minlaydi. Asosiy funksiyalari: motivatsiya funksiyasi – adekvat kasbiy motivlar rivojlanishi, qiziqish vujudga kelishi va kasbiy kompetensiyalarni qo‘llashga ehtiyoj yuzaga kelishini belgilaydi; ta’lim olish funksiyasi – kasbiy kompetensiyalarning o‘zlashtirilishini ta’minlaydi; ta’lim va tarbiyalash funksiyasi – shaxsiy-kasbiy muhim sifatlar majmuining rivojlanishiga ko‘maklashadi; rivojlanish funksiyasi – tezkor, tizimli va obrazli fikrlash rivojini ta’minlaydi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kursantlarda texnik tafakkurlash ko‘nikmalari texnika oliy ta’limi jarayonida o‘qish boshlanishi bilan rivojlantirilib borilishi lozim.

2. O‘tilgan yangi texnik tushunchalarning tatbiqini doimo davriy ravishda takrorlashni tashkil etish kerak bo‘ladi, chunki uning natijasida kursantlarda tajriba to‘planib, texnik tafakkurlash ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amirova Z.F. Texnika fanlarini o‘qitish jarayonida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish omillari. // Ta’lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Chirchiq, 19-oktyabr, 2021. – B. 138–141.

2. Amirova Z.F. Development of Technical Thinking of Cadets Using Interactive Methods. // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – India, 2022. – Vol. Issue 1. – Pp. 18879–18884. (05.00.00; № 9).

3. Amirova Z.F. Kursantlarda harbiy texnik tafakkurni shakllantirish bilan bog‘liq kasbiy sifatlar va faoliyatlarning nazariy tahlili. // Zirhli qalqon. Ilmiy-axborot jurnali. – Chirchiq, 2021. – B. 236–239.

4. Леонтев А.Н. Избранне психологические произведения. – Москва, 1983. – С. 2–318.

5. Толлингерова Д. Психология проектирования умственного развития детей. – Москва–Прага, 1994. – С. 48.

6. Urakov Sh.R. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018. – B. 36.

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI SHAHAR AHOLISI VA MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti v.b.dotsenti
bjonibek85@gmail.com +99897-776-30-57
ORCID ID 0009-0003-9262-6851

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi shaharlar soni, shahar aholisi va ma’muriy boshqaruv tizimida yuz bergan o‘zgarishlar tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda shahar aholisi ulushining ortishi, temiryo‘l qurilishi ta’sirida migratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda 1886-yilgi “Nizom” asosida joriy etilgan ma’muriy boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Shuningdek, shahar hududlarining rus va mahalliy qismlarga ajratilishi, politsiya mahkamalari hamda oqsoqollik institutining faoliyati ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan. Maqolada mazkur jarayonlarning Samarqand viloyatidagi urbanizatsiya va ijtimoiy-ma’muriy munosabatlar rivojiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zarafshon okrugi, Samarqand viloyati, shahar aholisi, urbanizatsiya, ma’muriy boshqaruv, 1886-yilgi “Nizom”, politsiya mahkamasi, oqsoqollik instituti, temiryo‘l, migratsiya.

ИЗМЕНЕНИЯ В ГОРОДСКОМ НАСЕЛЕНИИ И СИСТЕМЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В данной статье с исторической точки зрения проанализированы изменения в численности городов, составе городского населения и системе административного управления Самаркандской области в конце XIX - начале XX века. Особое внимание уделено росту удельного веса городского населения, активизации миграционных процессов под влиянием строительства железной дороги, а также особенностям административной системы, введённой на основе «Положения» 1886 года.

Кроме того, на основе научных источников рассмотрены разделение городских территорий на русскую и местную части, деятельность полицейских учреждений и института аксакалов. Раскрыто влияние указанных процессов на развитие урбанизации и социально-административных отношений в Самаркандской области.

Ключевые слова: Зарафшанский округ, Самаркандская область, городское население, урбанизация, административное управление, «Положение» 1886 года, полицейское управление, институт аксакалов, железная дорога, миграция.

CHANGES IN THE URBAN POPULATION AND THE ADMINISTRATIVE GOVERNANCE SYSTEM OF THE SAMARKAND REGION IN THE LATE NINETEENTH AND EARLY TWENTIETH CENTURIES

Abstract. This article provides a historical analysis of changes in the number of cities, the composition of the urban population, and the administrative governance system in the Samarkand Region from the late nineteenth to the early twentieth century. Particular attention is given to the increasing proportion of the urban population, the intensification of migration processes under the influence of railway construction, and the distinctive features of the administrative system introduced under the 1886 Regulations.

The study also examines the division of urban areas into Russian and local sections, as well as the activities of police authorities and the institution of aksakals, based on relevant scholarly sources. The article reveals the impact of these processes on the development of urbanization and socio-administrative relations in the Samarkand Region.

Keywords: Zarafshan District, Samarkand Region, urban population, urbanization, administrative governance, 1886 Regulations, police administration, institution of aksakals, railway, migration.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududlarida, jumladan, Zarafshon okrugida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan ma’muriy boshqaruv tizimi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va yangi shahar markazlarining shakllanishi hududda urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi.

Dastlab okrug tarkibida Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Panjikent kabi uchta asosiy shahar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ularning soni ortib, Samarqand viloyati tarkibida oltita shahar shakllandi. Bu jarayon shahar aholisi soni va ulushining sezilarli darajada o‘sishiga olib keldi. Shu bilan birga, shahar boshqaruv tizimida ham yangi ma’muriy institutlar joriy etilib, mahalliy va rus aholisi o‘rtasida muayyan boshqaruv bo‘linishi yuzaga keldi. Mazkur maqolada aynan shu o‘zgarishlar, ularning sabablari va oqibatlari ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida hududdagi shaharlar soni hamda ularda istiqomat qiluvchi aholi miqdori o‘zgarib borganini ko‘rish mumkin. Dastlab okrugdagi shaharlar soni uchta: Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Panjikent bo‘lib, ularning har biri o‘z ma’muriy boshqaruv markazi hisoblangan [1]. 1870-yillarda Samarqand shahri aholisi xorijiy manbalarda 30 ming atrofida bo‘lib, asosan o‘zbeklar (sartlar) va tojiklardan iborat ekanligi qayd etilgan [2].

Zarafshon okrugi viloyatga aylantirilgach, ma’muriy jihatdan oltita shahar: Samarqand, Panjikent, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand va O‘ratepadan iborat bo‘ldi. Viloyat shaharlarida eng ko‘p aholi Samarqandda, eng kam aholi esa Panjikent shahrida istiqomat qilgan.

Shahar aholisining viloyat aholisi umumiy miqdoridagi ulushi 1868–1870-yillarda 1,3 foiz, 1897-yilda 15,7 foiz [3], 1900-yilda 14,7 foiz [4], 1907-yilda 15,95 foiz [5] bo‘lgan. 1910-yilda esa viloyat umumiy aholisining 960 202 nafaridan 158 145 nafari yoki 16,47 foizini shahar aholisi, 80,67 foizini esa qishloq aholisi tashkil etgan [6]. Demak, 1868-yilda 1,3 foiz bo‘lgan shahar aholisi ulushi 1910-yilga kelib 16 barobar ortib, 16,47 foizga yetgan. Mazkur holat viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shahar markazlarining ahamiyati ortganini ko‘rsatadi.

Ushbu o‘sish bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, shaharlarning geografik va iqtisodiy jihatdan kengayishi, ya’ni yangi mahallalar va savdo hududlarining rivojlanishi shahar aholisining tabiiy ko‘payishi va qishloqlardan migratsiyasini rag‘batlantirgan. Ikkinchidan, XIX asr oxirida viloyat hududida temiryo‘l liniyalarining qurilishi shaharlarni iqtisodiy markazlar sifatida mustahkamladi, savdo va sanoat faoliyatining rivojlanishiga xizmat qildi. Bu esa qishloq aholisi orasida shaharlarga ko‘chib kelish jarayonlarini tezlashtirdi.

Shunday qilib, Samarqand viloyatidagi shahar aholisi ulushining keskin ortishi nafaqat demografik jarayonlar, balki iqtisodiy, ma’muriy va transport sohalaridagi islohotlar bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ushbu jarayonlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O‘zbekiston hududidagi shahar markazlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotda tutgan o‘rnini aniqlash va viloyat aholisining urbanizatsiya darajasini tahlil qilishda muhim manba sifatida baholanishi mumkin.

1886-yilgi “Nizom”ning 66-72-moddalarida shahar boshqaruvi masalalari asoslab berilgan. Xususan, shaharlar viloyat va uezd boshqarmalari joylashgan hududlar hisoblanib, maqsadga muvofiq deb topilgan shaharlarda harbiy gubernatorga general-gubernator ruxsati bilan shahar boshlig‘idan iborat soddalashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil etishga ruxsat berilgan [7].

Imperiya Samarqand shahrini ishg‘ol qilgach, rus ma’muriyati tomonidan shaharda mustamlakachilik boshqaruvini mustahkamlash maqsadida alohida ma’muriy-hududiy qism tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Natijada 1871-yilda shaharning “rus qismi”ga asos solinib, u yerda asosan imperiya amaldorlari, harbiylar va rus aholisi joylashtirildi [8]. Ushbu hudud Yevropa tipidagi rejalashtirish asosida qurilib, keng ko‘chalar, ma’muriy binolar va harbiy inshootlar bilan ajralib turgan. Bu esa Samarqand shahrining ichki tuzilishida ikki xil - mahalliy, ya’ni an’anaviy va rus, ya’ni yangi urbanistik tizimning parallel ravishda shakllanishiga olib keldi.

Shunga o‘xshash amaliyot viloyatning boshqa shaharlari - Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand va O‘ratepada ham joriy etilib, ushbu hududlarda ham rus qismlari tashkil qilindi. Bu jarayon imperiyaning siyosiy nazoratini kuchaytirish, mahalliy aholiga ta’sir o‘tkazish hamda iqtisodiy manfaatlarni ta’minlashga xizmat qilgan.

1886-yilgi “Nizom”ning 70-moddasiga muvofiq, Samarqand shahrining rus va mahalliy qismlarida jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizlikni ta’minlash vazifasi yagona markazlashgan politsiya mahkamasiga yuklatildi. Mazkur politsiya organi umumiy qoidalar asosida faoliyat yuritib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, soliq va ma’muriy tartibni nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirgan. Viloyatning boshqa shaharlarida ham shunday politsiya mahkamalari tashkil etilib, ular imperiya ma’muriy apparatining muhim bo‘g‘iniga aylangan [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, politsiya tizimining moliyaviy ta’minoti markaziy byudjetdan emas, balki mahalliy manbalar, ya’ni shahar daromadlari hisobidan qoplangan. Bu esa, bir tomondan, shahar iqtisodiyotiga qo‘shimcha yuk bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, imperiyaning mustamlakachilik siyosatida mahalliy resurslardan samarali foydalanish tamoyilini aks ettiradi. Umuman olganda, mazkur davrda shaharlarda rus qismlarining tashkil etilishi va politsiya tizimining joriy qilinishi imperiya nazoratini mustahkamlashga, shahar boshqaruvini markazlashtirishga hamda hududni siyosiy-iqtisodiy jihatdan integratsiyalashga xizmat qilgan muhim omillardan biri bo‘lgan.

Shaharning mahalliy aholisi istiqomat qiladigan hududlari ma’muriy jihatdan alohida qismlarga ajratilib, ularning soni va chegaralari viloyat harbiy gubernatori qarori asosida belgilangan. Bunday hududiy bo‘linish, avvalo, shahar boshqaruvini tartibga solish, aholini nazorat qilish hamda soliq yig‘ish tizimini samarali tashkil etish maqsadida joriy etilgan. Mazkur qismlar aholining o‘zini o‘zi boshqarish tamoyiliga asoslangan holda, xonadon egalari tomonidan saylanadigan boshliqlar - oqsoqollar tomonidan boshqarilgan.

Oqsoqollar tizimi ichida ma’lum ierarxiya shakllangan bo‘lib, ular orasidan biri katta oqsoqol sifatida ajratilgan, qolganlari esa aholi soni va hudud hajmidan kelib chiqib kichik oqsoqollar sifatida faoliyat yuritgan. Katta oqsoqol umumiy boshqaruvni amalga oshirgan bo‘lsa, kichik oqsoqollar o‘zlariga biriktirilgan hududlarda tartib-intizomni saqlash, soliq yig‘ilishiga ko‘maklashish hamda mahalliy masalalarni hal etishda vositachilik vazifasini bajargan. Masalan, 1898-yilda Kattaqo‘rg‘on shahrida katta oqsoqol lavozimini Akrom Xo‘ja Zakriyo Xo‘jayev egallagan bo‘lib, shahar Xaydarchaman, Medressin, Kattaarabxona, Sufin va Oqmachit kabi qismlarga bo‘linib, har bir hududga alohida boshliqlar saylangan [9]. Bu esa shahar boshqaruvida mahalliy ijtimoiy tuzilmaning saqlanib qolganini, ayni paytda uning imperiya ma’muriy tizimiga moslashtirilganini ko‘rsatadi.

Shahar oqsoqollarini saylash tartibi ham aniq me’yorlar asosida tashkil etilgan bo‘lib, u volost boshliqlari saylovi tizimiga o‘xshash tarzda amalga oshirilgan. Saylov jarayonining o‘tkazilish vaqti hamda joyi uezd boshlig‘i tomonidan belgilanganligi ushbu tizim ustidan imperiya ma’muriyatining qat’iy nazorati mavjud bo‘lganini anglatadi. Natijada, oqsoqollik instituti tashqi tomondan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish shakli sifatida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, amalda u mustamlakachilik boshqaruv tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biriga aylangan. Umuman olganda, mazkur tizim mahalliy an’anaviy boshqaruv shakllarini imperiya ma’muriyati manfaatlariga moslashtirish orqali hududda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va siyosiy nazoratni kuchaytirishga xizmat qilgan.

XULOSA

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Samarqand viloyatida shaharlar tarmog‘i va shahar aholisi soni sezilarli darajada o‘sgan. Shahar aholisi ulushining 1,3 foizdan 16,47 foizgacha ortgani urbanizatsiya jarayonlarining jadal kechganini ko‘rsatadi. Bu, avvalo, shaharlarning hududiy kengayishi, temiryo‘l qurilishi hamda aholining ko‘chib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan ma’muriy boshqaruv tizimi shahar hayotida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. 1886-yilgi “Nizom” asosida shahar boshqaruvining huquqiy asoslari yaratildi, politsiya tizimi shakllantirildi hamda shaharlar rus va mahalliy qismlarga ajratildi. Mahalliy aholi boshqaruvida esa an’anaviy oqsoqollik instituti saqlanib qolgan bo‘lsa-da, u imperiya ma’muriyati nazorati ostida faoliyat yuritgan. Umuman olganda, mazkur davr shaharlar rivoji va ma’muriy boshqaruv tizimining transformatsiyasi bilan tavsiflanib, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar uchun muhim zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гирс. Отчет ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край. - С. 89.
2. Skayler Yu. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari / kirish, ingliz tilidan qisqartirilgan tarjima, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Z. A. Saidboboev. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. - B. 200.
3. Samarqand tarixi: 2 tomlik / mas’ul muharrir I. M. Mo‘minov; tahrir hay’ati: V. A. Abdullaev va boshq. - T. 1: Qadim davrlardan to Ulug‘ Oktyabr sotsialistik revolyusiyasigacha. - Toshkent: Fan, 1971. - B. 309.
4. Справочник и адрес-календарь Самаркандской области на 1901 год. Вып. III. - Самарканд, 1901. - С. 19.
5. Пален К. К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Ч. 1. - Санкт-Петербург, 1911. - С. 53-54.
6. Обзор Самаркандской области за 1910 год. - Самарканд, 1912. - С. 10.
7. Положение об управлении Туркестанского края. - Ташкент: Типография при канцелярии Туркестанского генерал-губернатора, 1911. - С. 22.
8. Справочная книжка Самаркандской области на 1893 год. Вып. I. - Самарканд, 1893. - С. 1-3.
9. Адрес-календарь Самаркандской области на 1898 год. - Самарканд, 1898. - С. 36.

MAQOM SAN’ATINI O‘QITISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi, mustaqil tadqiqotchi (PhD),
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti dotsenti
assunnatillayev92@bk.ru
https://orcid.org/0009-0008-2437-8573

Annotatsiya: Mazkur maqolada maqom san’atini o‘qitish jarayonida raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqom ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, raqamli ta’lim vositalarining afzalliklari hamda sun’iy intellekt asosidagi innovatsion yondashuvlarning istiqbollari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar maqom ta’limining samaradorligini oshirish, milliy musiqiy merosni saqlash va targ‘ib qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Maqom san’ati, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, multimedia texnologiyalari, musiqa pedagogikasi, elektron ta’lim platformalari, nomoddiy madaniy meros, zamonaviy tendensiyalar.

MODERN TRENDS IN THE USE OF DIGITAL PLATFORMS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING MAQOM ART

Аннотация: В данной статье анализируются современные тенденции использования цифровых платформ и технологий искусственного интеллекта в процессе обучения искусству макома. Также будет освещена роль информационно-коммуникационных технологий в образовании макома, преимущества цифровых образовательных инструментов и перспективы инновационных подходов на основе искусственного интеллекта. Согласно результатам исследования, цифровые технологии являются важным инструментом повышения эффективности образования макома, сохранения и популяризации национального музыкального наследия.

Ключевые слова: Искусство макома, цифровое образование, искусственный интеллект, мультимедийные технологии, музыкальная

педагогика, электронные образовательные платформы, нематериальное культурное наследие, современные тенденции.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ И ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ИСКУССТВУ МАКОМА

Abstract: This article analyzes modern trends in using digital platforms and artificial intelligence technologies in the process of teaching maqom art. It will also highlight the role of information and communication technologies in maqom education, the advantages of digital educational tools, and the prospects for innovative approaches based on artificial intelligence. According to the research results, digital technologies are an important tool for increasing the efficiency of maqom education and preserving and popularizing national musical heritage.

Keywords: Maqom art, digital education, artificial intelligence, multimedia technologies, music pedagogy, electronic educational platforms, intangible cultural heritage, modern trends.

KIRISH

Maqom san’ati o‘zbek xalqining ko‘p asrlik musiqiy-ma’naviy merosi bo‘lib, uni o‘rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda maqom ta’limini takomillashtirish maqsadida raqamli platformalar, elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa maqom san’atini o‘qitishning yangi shakl va usullarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bugungi raqamli transformatsiya davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlariga, jumladan, musiqa ta’limi va maqom san’atini o‘qitish jarayoniga ham jadal kirib bormoqda. O‘zbekistonda 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston” strategiyasi va “Milliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida zamonaviy raqamli platformalar, elektron ta’lim resurslari, masofaviy ta’lim texnologiyalari hamda sun’iy intellekt tizimlarini o‘quv jarayoniga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda innovatsion-pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Hozirda respublikamizda masofaviy ta’lim tizimi rivojlanib, elektron kutubxonalar, raqamli audio va video arxivlar, onlayn ta’lim platformalari faoliyat

yuritmoqda. Mazkur imkoniyatlar maqom namunalarini keng auditoriyaga yetkazish, talabalarning mustaqil ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining maqom ta’limidagi o‘rni, ularning musiqiy tahlil, notalashtirish, ijro sifatini baholash va individual o‘quv jarayonini tashkil etishdagi imkoniyatlarini chuqur o‘rganish zarurati mavjud. Mazkur texnologiyalar kelajakda maqom san’atini o‘qitishning innovatsion modelini shakllantirish, milliy musiqiy merosni raqamlashtirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt – bu murakkab intellektual vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo‘lgan kompyuter tizimlari va algoritmlardir. Zamonaviy SI tizimlari tabiiy tilni qayta ishlash, tasvirlarni tanish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va bashoratlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu imkoniyatlar ta’lim sohasida o‘qitish va o‘qish jarayonlarini takomillashtirish, individuallashtirish va avtomatlashtirish uchun keng qo‘llanilmoqda.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt turli shakllarda namoyon bo‘ladi: adaptiv o‘qitish tizimlari, virtual qo‘llab-quvvatlash vositalari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, o‘quv platformalari, ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari va boshqalar. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga ham, talaba-yoshlarga ham bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

XXI asrda raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) yo‘nalishining rivojlanishi madaniy meros obyektlarini saqlash va tadqiq etishda yangi imkoniyatlarni yaratdi. Xususan, an’anaviy musiqa namunalarini raqamlashtirish dunyoning ko‘plab mamlakatlarida strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreyada milliy musiqa merosining audio, video va nota fondlari elektron arxivlarga joylashtirilgan. Xorijiy tadqiqotchilar raqamli gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biri tarixiy-madaniy merosni raqamli muhitda saqlash va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuv maqom san’ati uchun ham dolzarb bo‘lib, mavjud maqom fondlarini elektron shaklda saqlash va ilmiy muomalaga kiritish zaruratini ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim muhiti va uning imkoniyatlari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Raqamli ta’lim texnologiyalari zamonaviy pedagogikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga asoslanadi. Xususan, M.Prensky [2] “raqamli aborigenlar” va “raqamli immigrantlar” tushunchalarini kiritib, zamonaviy o‘quvchilarning axborot bilan ishlash xususiyatlarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, bugungi talabalar (raqamli aborigenlar) ma’lumotlarni qayta ishlashning mutlaqo boshqa uslubiga ega bo‘lib,

ular paralel jarayonlarni afzal ko‘radilar va ko‘p vazifali rejimda samarali ishlay oladilar.

Bates (2019) ning fundamental asarida raqamli asrda o‘qitish va o‘qishni tashkil etishning asosiy tamoyillari va metodologiyasi batafsil yoritilgan [3]. Ushbu asar raqamli ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini Holmes, Bialik va Fadel (2019) keng ko‘lamda o‘rganishgan [4]. Ular AI asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlarining har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish qobiliyatini ko‘rsatgan.

Luckin (2018) esa mashinali o‘qitish va inson intellektining ta’lim sohasida birgalikda qo‘llanilishi kelajakda sifatini tubdan o‘zgartirishini asoslagan [5].
UNESCO (2021) hisobotida sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda siyosat ishlab chiqaruvchilar uchun ko‘rsatmalar berilgan [6].

Mahalliy tadqiqotchilar Abduqodirov (2020), Xoliqov (2021) va Rahimov (2022) zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellektni O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgangan [7, 8, 9].
N.A.Muslimov va M.H.Lutfillayev [10] respublikamizda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish muammolari va istiqbollarini o‘rganib, O‘zbekiston sharoitida raqamli ta’limni joriy etishning milliy modelini taklif etadilar. Ular elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqishda milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellektni samarali qo‘llash uchun kompleks yondashuv zarur: texnik infratuzilma, pedagog malakasi va etik me’yorlarga rioya etish birgalikda ta’minlanishi lozim. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari hali ham yetrli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida talabalarning yangi rollarini aniqlash, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va raqamli ta’limning samaradorligini baholash mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqom san’atini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish strategiyasi nafaqat zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga joriy etishga, balki pedagoglar hamda ta’lim oluvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va maqom ta’limini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga ham qaratilishi lozim. Bunday yondashuv maqom san’atining

nazariy va amaliy jihatlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan samarali foydalanish, milliy musiqiy merosni raqamlashtirish hamda uni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari talabalar faoliyatini faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotda qo‘llash imkonini kengaytiradi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalari ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi: talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish tezligi tahlil qilinib, har bir talaba uchun individual ta’lim trayektoriyasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar avtomatlashtirilgan baholash, aqlli test tizimlari va virtual yordamchilar orqali talabalarning ish yukini kamaytiradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari va AI vositalarining qiyosiy tavsifi

Texnologiya turi	Asosiy vazifalari	Ta’limdagi roli	Misol platformalar
LMS (Learning Management System)	• Kurs boshqaruvi, baholash, monitoring	O‘qituvchi talaba muloqotini tashkil etish	moodle, Google Classroom
Video konferensiya tizimlari	• Real vaqtda masofaviy dars	Sinxron masofaviy ta’lim	Zoom, MS Teams
Adaptiv o‘qitish tizimlari (AI)	• Individual trayektoriya yaratish	Ta’limni personallashtirish	Khan Academy, duolingo
Aqlli baholash tizimlari (AI)	• Avtomatik test, esse baholash	O‘qituvchi yukini kamaytirish	turnitin, gradescope
Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)	• Immersiv o‘quv muhiti	Murakkab tushunchalarni vizuallashtirish	Google Expeditions, Labster

COVID19 pandemiyasi ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonini keskin tezlashtirgan eng muhim global omillardan biri bo‘ldi. An’anaviy auditoriya darslari vaqtincha yoki to‘liq to‘xtatilib, ta’lim jarayonini masofaviy va raqamli shaklga o‘tkazish zaruriyati yuzaga keldi. O‘zbekistonda ham ta’lim jarayoni onlayn platformalar orqali tashkil etildi: Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams kabi vositalar keng qo‘llanila boshlandi.

Pandemiya ta’lim tizimida muhim muammolarni ham ochib berdi. Eng asosiy muammolardan biri raqamli tengsizlik bo‘lib, barcha talabalar kompyuter yoki internetga bir xil darajada ega emas edi. Shuningdek, ayrim pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli tayyorgarligining yo‘qligi dars jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq pandemiya ta’lim tizimi

uchun muhim tajriba maktabi bo‘ldi va raqamli ta’lim infratuzilmasi rivojlanishini jadallashtirdi.

Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida musiqiy asarlarning ritmik, melodik va intonatsion xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa maqomlarni o‘rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirmoqda. Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Zoom kabi ta’lim platformalari musiqa ta’limida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar yordamida maqom nazariyasi va amaliyotiga oid mashg‘ulotlarni masofaviy shaklda tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari esa maqom san’atini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, AI asosidagi ovoz tahlili tizimlari ijrochining kuylash yoki cholg‘u ijrosidagi xatolarni aniqlash, intonatsiya va ritm aniqligini baholash hamda individual tavsiyalar berish imkoniyatiga ega.

Maqom san’atini o‘qitishda raqamli platformalardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri ta’lim resurslarining keng ommaga ochiqligidir. Audio va video darslar, elektron notalar, virtual kutubxonalar hamda onlayn ta’lim platformalari orqali talabalar maqom namunalarini istalgan vaqt va joyda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa an’anaviy ta’lim bilan bir qatorda mustaqil ta’lim olish jarayonini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Maqom san’atini o‘qitishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning muhim belgilari

№	Muhim belgilar	Asosiy mazmuni	Qo‘llaniladigan texnologiyalar	Natija
1	Raqamli materiallar yaratish	Maqom namunalarini audio, video, nota va matn ko‘rinishida raqamlashtirish.	YouTube, bulutli saqlash, elektron kutubxonalar	Maqom merosining saqlanishi va keng ommalashishi.
2	Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	O‘quvchining ijrosini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tavsiyalar berish.	AI ovoz tahlili tizimlari, mashina o‘rganish algoritmlari	Ijro sifatining oshishi va individual rivojlanish.
3	Interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish	Onlayn darslar, testlar va interaktiv mashqlar orqali o‘qitish.	Moodle, Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams	Masofaviy ta’lim sifatining oshishi va interaktivlik kuchayishi.
4	Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari	Maqom ijrochiligi va musiqiy muhitni virtual tarzda namoyish etish.	VR/AR ilovalari, 3D modellashtirish	Qiziqish ortishi va amaliy tajriba chuqurlashishi.
5	Adaptiv va individual ta’lim	Talabaning bilim darajasi va o‘qish sur’atiga mos o‘quv jarayonini tashkil etish.	Adaptive learning platformalari, AI analytics	O‘zlashtirish samaradorligi oshishi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.
6	Baholash va monitoring tizimlari	Avtomatik baholash, ijro tahlili va natijalarni doimiy kuzatish.	LMS tizimlari, AI baholash vositalari	Obyektiv baholash va ta’lim sifatining doimiy nazorati.

Zamonaviy tendensiyalardan yana biri adaptiv ta’lim texnologiyalarining joriy etilishidir. Sun’iy intellekt yordamida talabalarning bilim darajasi, qiziqishi va

o‘zlashtirish sur’atlari tahlil qilinib, ularga mos individual o‘quv trayektoriyasi shakllantiriladi. Natijada har talaba o‘z imkoniyatlariga mos ravishda maqom nazariyasi va amaliy ijrochiligini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining rivojlanishi maqom san’atini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali tarixiy maqom maktablari, mashhur hofiz va sozandalar ijrosi hamda musiqiy muhitni virtual tarzda namoyish etish mumkin. Bu esa talabalarning milliy musiqiy merosga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Zamonaviy ta’lim sohasidagi tendensiyalardan kelib chiqqan holda, raqamli ta’lim muhiti kelajakda yanada rivojlanib, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, internet of things (IoT) va boshqa innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashib borishi kutilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonining yanada personallashtirish, adaptivligini oshirish va global ta’lim ekotizimiga integratsiyalashishiga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhiti har bir talabaning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o‘qish sur’atiga mos ravishda o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatini beradi. Adaptive learning texnologiyalari talabaning bilim darajasiga qarab o‘quv materiallarini tanlashga imkon beradi [11]. Bu esa talabalarning vaqtini tejash bilan birga, ta’lim sifatini oshirishga ham yordam beradi. Ayniqsa, maqom san’atini o‘qitishda audio va video materiallar, virtual mashg‘ulotlar, elektron notalar hamda interaktiv platformalardan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Maqom san’atini o‘qitishda raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish hamda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash va keng targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa talabalarning bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish, individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, ijro mahoratini baholash hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa maqom san’atini o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, maqom ta’limida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallarni yaratish va milliy musiqiy merosni innovatsion yondashuvlar asosida o‘rgatishni taqozo etadi. Kelgusida raqamli platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalarining yanada takomillashuvi maqom san’atini o‘qitishning yangi

shakl va usullarini yuzaga keltirib, uning xalqaro miqyosda ommalashuvi hamda kelajak avlodlarga samarali yetkazilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni

2. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9. – No. 5. – P. 1-6.

3. Bates, A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: BCcampus, 2019.

4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

5. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press, 2018.

6. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. - Paris: UNESCO Publishing, 2021.

7. Abduqodirov A. A. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o‘rni. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

8. Xoliqov A. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

9. Rahimov S. Sun’iy intellekt va ta’lim tizimi integratsiyasi // Zamonaviy ta’lim. - 2022. - №2(3). - B. 25–30.

10. Muslimov N.A., Lutfillayev M.H. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish muammolari va istiqbollari // Zamonaviy ta’lim. – 2023. – № 2. – B. 2-b.

11. Horn M., Staker H. Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. – San Francisco: Jossey-Bass, 2020. – 336 p.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI: MILLIY TAFAKKUR VA BADIIY MEROS NAMUNASI

Karimova Muqaddas Abdisamatovna
San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
karimovamukaddas13@gmail.com
0009-0003-7450-8683

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarining kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati hamda badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Maqollarning xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni, ularning mavzu va ma’no jihatdan tasnifi yoritilgan. Shuningdek, maqollarda qo‘llanadigan poetik vositalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, folklor, xalq og‘zaki ijodi, tarbiya, poetika, xalq donoligi, badiiy vositalar.

УЗБЕКСКИЕ НАРОДНЫЕ ПОСЛОВИЦЫ: ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются происхождение, содержание, воспитательное значение и художественные особенности узбекских народных пословиц. Освещается роль пословиц в устном народном творчестве, а также их тематическая и смысловая классификация. Кроме того, на примерах показаны поэтические средства, используемые в пословицах, и их значение в воспитании молодого поколения. Ключевые слова: пословица, фольклор, устное народное творчество, воспитание, поэтика, народная мудрость, художественные средства.

UZBEK FOLK PROVERBS: A REFLECTION OF NATIONAL THINKING AND LITERARY HERITAGE

Annotation. This article analyzes the origin, essence, educational significance, and artistic features of Uzbek folk proverbs. The role of proverbs in oral folk literature, as well as their thematic and semantic classification, is discussed. The article also highlights the poetic devices used in proverbs and demonstrates their importance in the upbringing of the younger generation through various examples.

Keywords: proverb, folklore, oral folk art, education, poetics, folk wisdom, artistic devices.

KIRISH

O‘zbek xalq maqollari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sermazmun janrlaridan biri hisoblanadi. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy-me’yoriy qarashlari hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkurining badiiy ifodasidir. Maqollar qisqa shaklda chuqur mazmunni ifodalashi, obrazlilik va umumlashma xususiyatiga egaligi bilan boshqa folklor janrlaridan ajralib turadi. Shu jihatdan ular nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki muhim tilshunoslik va madaniyatshunoslik manbasi hamdir.

“Maqol” termini arab tilidagi “qavlun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “so‘z”, “gap”, “hikmatli ibora” ma’nolarini anglatadi. Folklorshunoslikda maqol xalq tomonidan yaratilgan, avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan, ixcham shaklda tugal fikr ifodalovchi hikmatli janr sifatida talqin qilinadi[1]. Maqollarda xalqning mehnatga, odob-axloqqa, ilmga, vatanparvarlikka, do‘stlikka hamda insoniy munosabatlarga oid qarashlari mujassamlashgan bo‘ladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. [2].

Ayniqsa, XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning “Devoni lug‘otit turk” asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. “Devon”da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda.

Ayrim tarixiy manbalarda yozilishicha Uyg‘urlardan meros bo‘lib qolgan Go‘kturk yodgorliklari va asarlarida so‘z, xabar, nutq, shon-shuhrat yoki biror narsa ma’nosini anglatuvchi sa fe’lidan olingan “sab” – “sav” so‘zi XI asrda Qoraxoniylar davrida Sharqiy turkiy o‘lkalarda, XIV asrda esa islom ta’siri ostidagi Qipchoq mintaqasida uchraydi. Ma’lumki, Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni ajdodlardan qolgan nasihatlar, shuningdek, maktublar, hikoyatlar, tarixiy voqealarni ifodalashda qo‘llagan. XI asrda mumtoz islom turkiy adabiyotining eng qimmatli asarlaridan biri

bo‘lgan “Qutadg‘u bilig”da Yusuf Xos Hojib arab va ehtimol fors ta’sirida “mesel” atamasini ishlatadi [3].

Bu orinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o‘zining “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir[4].

Maqollar o‘zining didaktik mohiyati bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular kishilarni ezgulikka, halollikka, mehnatsevarlikka undaydi, salbiy illatlarni esa tanqid qiladi. Shu sababli maqollar xalq pedagogikasining muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, “Mehnatning tagi rohat”, “Odobning boshi til”, “Yaxshi do‘st jon ozig‘i” kabi maqollar insonni komillikka yetaklovchi hayotiy xulosalarni ifodalaydi. Oddiy nasihat unutilishi mumkin, ammo maqol xotirada qoladi. Chunki xalq donoligi qisqa va lo‘nda maqollarda o‘z aksini topadi. Maqollar xalq pedagogikasining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular yosh avlodni: halollikka, mehnatsevarlikka, sabr-toqatga, odoblilikka, ilm olishga, vatanparvarlikka chorlaydi.

Masalan, “Ilm olgan xor bo‘lmas” maqoli ilmning inson hayotidagi o‘rnini ko‘rsatsa, “Odobning boshi til” maqoli muomala madaniyatining ahamiyatini ta’kidlaydi. Maqollar insonni ogohlantirish, nasihat qilish va to‘g‘ri yo‘lga undash vazifasini bajaradi. Shu jihatdan ular tarbiya jarayonida ota-onalar va ustozlar tomonidan keng qo‘llaniladi.

O‘zbek xalq maqollari mazmun va shakl jihatidan rang-barangdir. Ular mavzusiga ko‘ra mehnat, ilm, do‘stlik, vatan, muhabbat, odob-axloq, tabiat va turmush bilan bog‘liq guruhlarga ajratiladi. Jumladan, mehnat mavzusidagi maqollar inson faoliyatining qadri va zarurligini ulug‘laydi: “Ter to‘kkan to‘q yashar”, “Mehnat qilgan elda aziz”, “Yer haydasang kuz hayda”.

Ilm haqidagi maqollarda esa ma’rifatning inson hayotidagi o‘rni aks etadi: “Bilim baxt kaliti”, “Hunarli kishi xor bo‘lmas”, Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar”.

Mazkur maqollar yoshlarni ilm olishga va kasb-hunar egallashga undaydi.

Do‘stlik va insoniylik haqidagi maqollar insoniy munosabatlarning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi: “Yaxshi do‘st jon ozig‘i”, “Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi”, “Hisobli do‘st ayrilmas.”

Vatan haqidagi maqollar insonni vatanni sevib ardoqlashga o‘rgatadi: “Ona yurting oltin beshiging”, “Vatansiz inson ildizsiz daraxt”, “Bulbul chamanni sevar-inson vatanni”.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqollar xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlaridan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Masalan, ertak, rivoyat, afsona yoki dostonlarda voqealar hikoya tarzida bayon qilinsa, maqollarda hayotiy hodisalarga nisbatan xalqning tayyor xulosasi, hukmi yoki munosabati ifodalanadi. Shu sababli maqollar loʻnda, ixcham va tugal fikr shaklida boʻladi.

Maqollar quyidagi xususiyatlarga ega:

- qisqa va aniq shaklda boʻlishi;
- chuqur hayotiy mazmunni ifodalashi;
- obrazlilikka ega boʻlishi;
- xalq tajribasi asosida yuzaga kelishi;
- tarbiyaviy va didaktik ahamiyat kasb etishi.

Masalan: “Mehnatning tagi rohat”, “Tilga e’tibor — elga e’tibor”, “Koʻp oʻyla, oz soʻyla”, “Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib”.Ushbu maqollarda inson hayotiga oid muhim axloqiy tamoyillar ifodalangan[5].

Maqollar ma’no xususiyatiga koʻra ham bir necha turga boʻlinadi. Ayrim maqollar oʻz ma’nosida qoʻllansa, ba’zilari koʻchma ma’noda ishlatiladi

Oʻz ma’nosida qoʻllanadigan maqollar

Bunday maqollar toʻgʻridan-toʻgʻri ma’noni bildiradi.

Masalan:

“Yer haydasang kuz hayda.”

Koʻchma ma’noda qoʻllanadigan maqollar

Bu turdagi maqollarda fikr ramziy tarzda ifodalanadi.

Masalan:

“Baliq boshidan chiriydi.”

Mazkur maqolda jamiyatdagi muammolar yuqori tabaqadan boshlanishi obrazli tarzda ifodalangan.

Ham oʻz, ham koʻchma ma’noda qoʻllanadigan maqollar

Masalan:

“Quruq qoshiq ogʻiz yirtar.”

Folklorshunos olimlar maqollarni turli mezonlar asosida tasniflaydilar. Jumladan:

1. Alfavit tartibidagi tasnif. Bunda maqollar alifbo tartibida joylashtiriladi.
2. Mavzu asosidagi tasnifda esa maqollar mazmuniga koʻra guruhlarga boʻlinadi.
3. Poetika va badiiy tuzilishga koʻra tasnifda maqollarning badiiy va poetik xususiyatlari oʻrganiladi.
4. Tarixiy tasnifda turli davrlarda yaratilgan maqollar tarixiy xususiyatlariga qarab ajratiladi.

5. Strukturaviy tasnif. Maqollar ikki qismli, to‘rt qismli yoki murakkab tuzilishga ega bo‘lishi mumkin.

Masalan: “Arg‘umoqda yol yo‘q deb, Yo‘lga tashlab ketmanglar. Er yigitda mol yo‘q deb, Yovga tashlab ketmanglar”.

Strukturaviy jihatdan maqollar ikki qismli, to‘rt qismli va ko‘p komponentli shakllarda uchraydi. Masalan: “Do‘st achitib gapirar, Dushman kuldirib.”

Mazkur maqolda tazod san’ati qo‘llangan. Do‘st va dushman qarama-qarshi qo‘yilib, chuqur ma’no yuzaga chiqarilgan[6].

Tazod san’ati orqali do‘st va dushman qarama-qarshi qo‘yilgan. Qarama-qarshilik asosidagi bunday badiiy usul maqollarning ta’sirchanligini oshiradi. Shuningdek, metafora, o‘xshatish, takror, ritmik parallelizm, qofiya kabi poetik vositalar ham maqollarda faol qo‘llanadi. “Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmas” maqolida insonlar o‘rtasidagi yaqinlik metaforik ifodalangan.

Maqollarning badiiy xususiyatlaridan biri ularning ritmik va ohangdor tuzilishidir. Ayniqsa, she’riy shakldagi maqollar xalq orasida tez yodda qoladi:

“Bo‘zchi bilganin to‘qir, Baxshi bilganin o‘qir.”

Mazkur maqolda qofiyadoshlik va parallel sintaktik qurilish orqali fikrning obrazliligi kuchaytirilgan. Maqolning asosiy mazmuni har kim o‘z qobiliyati va bilimi asosida ish tutishini anglatadi. Shu sababli maqollar faqat maishiy nutqda emas, balki badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi.

XULOSA

O‘zbek xalq maqollari xalqning ko‘p asrlik donoligi, hayotiy tajribasi va ma’naviy qarashlarini aks ettiruvchi bebaho madaniy merosdir. Maqollar xalq tafakkurining mahsuli sifatida insonni yaxshilikka, mehnatsevarlikka, ilm olishga va odoblilikka chorlaydi.

Maqollar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni asrashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki xalqning eng uzoq yashaydigan boyligi, aynan uning so‘zidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: Ensiklopediya, 2008. – B. 192.
2. O’zbek xalq maqollari **www.ziyouz.com** kutubxonasi
3. Aksoy, Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü I. İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 1995. – B.27.

4. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O’zbek xalq maqollari – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B. 43.
6. Suvonqulova N. O’zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014. – B. 152.

O‘SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIGA BARQARORLIGI XUSUSIYATLARI **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**	**6**
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIGA QARATILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI **Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna**	**19**
OLIY TA’LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARIDA SHAXSIY QADRIYATLARNING KASBIY KARYERANI REJALASHTIRISHDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna**	**25**
O‘QUVCHILARNING DEMOKRATIK VA AVTORITAR USLUBDAGI O‘QITUVCHILAR SHAXSIGA NISBATAN PSIXOSEMANTIK TASAVVURLARI **Turayeva Dilafruz Rustamboevna**	**32**
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI BILAN DEPRESSIYA, XAVOTIR VA STRESS O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK **Kasimova Xulkar Atabayevna**	**45**
TURLI YOSH DAVRLARIDA PERFEKTSIONIZM VA PROKRASTINATSIYA XUSUSIYATLARINING O‘ZARO ALOQADORLIGI **Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna**	**52**
SHAXSDA IMPOSTER SINDROMINING INTROVERSIYA, EKSTROVERSIYA, NEVROTIZM VA IJTIMOIY TAQQOSLASH BILAN BOG‘LIQLIGI **Yuldasheva Nilufarxon Sherqo‘zi qizi**	**61**
TALABALARDA OPTIMIZM XUSUSIYATI VA MUAMMONI HAL QILISH QOBILIYATINING RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR **Ko‘chkinova Zulxumor Shohobiddin qizi**	**73**
TALABALAR IQTISODIY XULQ-ATVORINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: GENDER TAHLILI **Yuldosheva Gavhar O‘tkirovna**	**82**

PROBLEMS AND NECESSARY CONSIDERATIONS OF ECOLOGICAL AND BIOPHYSICAL EDUCATION **Tuksanova Zilola Izatulloyevna**	**90**
TA’LIM JARAYONIDA TEXNIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MODELI **Z.F. Amirova**	**95**
XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI SHAHAR AHOLISI VA MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR **Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich**	**102**
MAQOM SAN’ATINI O‘QITISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI **Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich**	**108**
O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI: MILLIY TAFAKKUR VA BADIIY MEROS NAMUNASI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**116**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/